

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK _____

ESONTURDIYEVA DILNOZA YUSUPOVNA

**MUSTAQILLIKDAN KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTONDA
LISONIY VAZIYAT**

70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.d. (DSc), prof. Sh.Maxmaraimova

Termiz – 2024

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2023-yil ___-martdagi №__-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ **f.f.d. (DSc) Maxmaraimova Sh.**

Kafedra mudiri: _____ **f.f.f.d. (PhD) Amonturdiyev N.**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____

Esonturdiyeva Dilnozaning “Mustaqillikdan keyingi yillarda O‘zbekistonda lisoniy vaziyat ” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tadqiqot obyekti: Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistondagi til siyosati va lisoniy vaziyat tanlandi.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekistondagi til siyosati va lisoniy vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlarini organishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: dissertatsiyada tipologik-qiyosiy tahlil, statistik tahlil va tasniflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilar:

- globallashev sharoitida dunyoning lisoniy qiyofasini aniqlash, jahon tillari holatini o‘rganish, tillar haqidagi aniq ma'lumotlarni olish, tillarning o‘zaro munosabatlarini aniqlashning ahamiyati lingvistik asoslar bilan dalillangan;

- globallashev va svilizatsiya jarayonida o‘zbek tili o‘z mavqeyini ilmiy, qonuniy mustahkamlab, yangicha mezonlar asosida taraqqiy etayotganligi lingvistik asoslanib, til siyosatining tolerantlik, inson manfaatlari ustuvorligi asosida shakllanayotganligi dalillangan;

- mukammal bo‘lmagan alifboni qo‘llashning millat hayotidagi savodxonlik, imlo muammolari bilan bog‘liq til me‘yorsizligini yuzaga keltirayotganligi kabi salbiy oqibatlarini asoslanib, imlo me‘yorlarini takomillashtirish zarurati ochib berilgan.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliy filologiya bo‘limlari: sotsiolingvistika, lingvodidaktika, lingvokulturologiyaning fan sifatida o‘qitilish jarayonida dastur, reja tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o‘tashi bilan izohlanib, falsafa, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik

sohalarida davlat tili ya'ni o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlariga doir mavzularda o'qitilishi, davlat va jamiyat qurilishi muammolari bilan shug'ullanadigan mutaxassislariga tavsiya etilishi, til siyosati va lisoniy vaziyatni yoritishda foydalanish, ushbu hodisalar tadqiqi jarayonida, turli tahliliy va nazariy tadqiqotlarda qo'llanishi mumkin.

Tatbiq etish darajasi: Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan sotsiolingvistika, lingvodidaktika, lingvokulturologiya sohasida nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Qo'llanilish sohasi: tilshunoslik, sotsiolingvistika, siyosatshunoslik, lingvokulturologiya.

70230101-master of Linguistics (Uzbek language) specialty

Esonturdiyeva Dilnoza's master's thesis on " The linguistic situation in Uzbekistan in the years after Independence"

ANNOTATION

Object of study: language policy and linguistic situation in Uzbekistan were selected as object of study.

The purpose of the study: consists in the study of the specifics of the language policy and the linguistic situation in Uzbekistan.

Research methods: the dissertation used typological-comparative analysis, statistical analysis and classification methods.

The scientific novelty of the research work is as follows:

- the importance of determining the linguistic picture of the world in the context of globalization, studying the state of world languages, obtaining accurate information

about languages, determining the relationship of languages is evidenced by linguistic grounds;

- in the process of globalization and civilization, it is proved that the Uzbek language is developing on the basis of tolerance, the priority of human interests of language policy, on the basis of linguistics, on the basis of new criteria, strengthening its position scientifically, legally;

- based on the negative consequences of the use of the imperfect alphabet, such as literacy in the life of the nation, language normlessness associated with spelling problems, the need to improve spelling standards is revealed.

Practical significance: practical significance of research results practical philology departments: sociolinguistics, linguodidactics, linguoculturology as a science, explained by the fact that in the process of teaching it serves as a source for drawing up a program, a plan and describing topics, "historical features of the development of the Uzbek language" in the fields of Philosophy, History, Sociology, Political Science, "the role of the state language, the use in the coverage of language policy and the linguistic situation can be used in the course of the study of these phenomena, in various analytical and theoretical studies.

Degree of application: the practical significance of the study is that the results of the study can be used as a theoretical resource in the field of sociolinguistics, linguodidactics, linguoculturology.

Field of application: linguistics, sociolinguistics, political science, linguoculturology.

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. SOTSIOLINGVISTIK TADQIQOTLARDA *TIL SIYOSATI*

TUSHUNCHASINING TALQINI

- 1.1. Jahon va o‘zbek tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar va ularda *til siyosati* tushunchasiga yondashuvlar
- 1.2. O‘zbekiston sotsiolingvistikasining jahon sotsiolingvistikasi bilan tipologik-qiyosiy tavsifi

Bobga doir xulosalar

II BOB. O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI: O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZINI KO‘TARISHGA DOIR HARAKATLARNING TADRIJIY RIVOJI

- 2.1. O‘rta asrlarda o‘zbek tilining nufuzi va uni oshirishga bo‘lgan harakatlar
- 2.2. Bir tilli, ikki tilli va ko‘p tilli eski o‘zbek lug‘atlarida o‘zbek tilining nufuziga doir qarashlarning ifodasi
- 2.3. Jadidchilik davrida o‘zbek tilining maqomini yuksaltirishga doir harakatlar

Bobga doir xulosalar

III BOB. XX-XXI ASRDA O‘ZBEK TILINING MAQOMINI KO‘TARISHGA DOIR HARAKATLAR

- 3.1. O‘zbek tilining rivojiga totalitar tuzumning ta'siri: til rivojidadagi to‘siqlar (ish yuritish, o‘zbek terminologiyasi, o‘zbek ilm-fani tili misolida)
- 3.2. Mustaqillik davrida o‘zbek tili
 - 3.2.1. Mustaqillik davrida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini ko‘tarishga doir hujjatlar
 - 3.2.2. Mustaqil O‘zbekistonda alifbo islohоти
- 3.3. XXI asr birinchi o‘n yilliklarida O‘zbekistonda til siyosati: bilingvizm va polilingvizm sharoitida o‘zbek tili
- 3.4. Mahalliy tillar va ularning rivojlanish imkoniyatlari

Bobga doir xulosalar

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Jahon tilshunosligida til hodisalarini boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq holda yorituvchi lingvistik tadqiqotlar XX asr boshlarida Fransiya, Rossiya, Chexiya, AQSh kabi mamlakatlarda vujudga kela boshladi. Tilni ijtimoiy institutlar va jamiyat evolyutsiyasi bilan birga o‘rganish, til va jamiyat, lingvistik vaziyat, ijtimoiy va kommunikativ tizim, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kod, kodni o‘zgartirish, ikkitillilik, ko‘ptillilik, til siyosati, adabiy til, milliy tillar, til taraqqiyoti modellari masalalari olimlarning diqqat markazida bo‘ldi. Ushbu g‘oyalar XX asr boshlarida yetuk tilshunoslar tomonidan ilgari surilib, bu boradagi qarashlar nazariy bayon qilingan. XX asrning 50- yillaridan keyin qayd etilgan jihatlarni o‘rganish lingvistikaning asosiy masalalari sifatida e‘tirof etilib, yirik tadqiqotlarning vujudga kelishiga zamin bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmida yuqoridagi masalalar yuzasidan qilingan tadqiqotlarda eksperimental tekshirishga o‘tish, aniq faktlarni matematik asoslar vositasida tavsiflash, izchillik, ma‘lumot to‘plashga jiddiy e‘tibor berish, faktlarni miqdoriy va statistik tahlil qilish kabi xususiyatlar ustunlik qildi.

XXI asrga kelib til siyosati muammolarini ilmiy-nazariy va amaliy o‘rganish dunyo tilshunosligida keng tus oldi. Ijtimoiy hayotda davlat tilidan foydalanish, davlat tilini muhofaza qilish, uning qo‘llanishini nazorat qilish hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikni ta‘minlash masalalarini tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va ushbu maqsadlar yo‘lida ko‘p mamlakatlarda davlat tili haqida maxsus qonunlar qabul qilinmoqda. Ayrim mamlakatlarda til masalalari Respublika Konstitutsiyasida aks ettirilgan. Ushbu jihatlar til siyosati muammolarining yanada chuqur tadqiq etilishiga olib kelmoqda. Globallashuv jarayonida dunyodagi millatlar, xalqlar, jamoalarning muloqotini kuzatish, taraqqiyotning tilga ta‘siri, tilning rivojlanishga ta‘siri masalalarini yoritish, svilizatsiya jarayonida olamning lisoniy manzarasi (ko‘rinishi), Yer shari aholisi o‘rtasida ko‘p ishlatilayotgan tillar va ularning keng qo‘llanilish omillarini ilmiy tadqiq etish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning til siyosati, mamlakatdagi lingvistik vaziyat, til siyosati modellari tadqiqi yuzasidan qator ishlar amalga oshirilgan. Binobarin, barcha ilmiy yo‘nalishlar qatorida tilshunoslikda ham “...davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab- quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish vazifasi”¹ ning belgilanishi o‘zbek tilining taraqqiyot modellarini tadqiq etish bilan bog‘liq izlanishlar olib borish muhimligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda davlat tiliga e‘tibor ma‘naviyatga bo‘lgan e‘tiborning ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga o‘zbek tilining mustahkam qonuniy himoyasini ishlab chiqish, alifboni isloh etish, o‘zbek tili me‘yorlarini zamon talablari asosida takomillashtirish kechiktirib bo‘lmas masalaga aylandi. Milliy qadriyatlarimiz, madaniy boyliklarimiz bilan birga ma'naviy yuksalishimizda, xalqimiz dunyoqarashining kengayishida ulkan ahamiyatga ega ona tilimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, respublikamizda olib borilgan til siyosati va bu sohada erishilgan yutuqlar hamda ayrim kamchiliklar, mamlakatimizdagi lisoniy vaziyat, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojlanish tendensiyasi, uning strukturasi yuz berayotgan lisoniy o‘zgarish singari masalalarni zamonaviy va ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: Magistrlik dissertatsiyamizning obyektini mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yuritilgan til siyosati tashkil qiladi. Ishda jahon va o‘zbek tilshunosligidagi til siyosati va sotsiolingvistikaga doir tadqiqotlar, o‘zbek tilining nufuzini oshirishga qaratilgan harakatlar majmuyi va mamlakatimizdagi mavjud lisoniy vaziyat tadqiqi magistrlik dissertatsiyasining predmeti etib belgilandi.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari: Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi o‘zbek tilining davlat tili sifatida shakllanishi va nufuzining o‘sib borishini, mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat va

¹ "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/-4561730?query=0%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

yuritilayotgan til siyosati masalalarini lingvistik jihatdan tahlil qilish va yoritishdan iborat.

Ishning maqsadini amalga oshirish uchun magistrlik dissertatsiyasining oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- O'zbekistondagi lisoniy vaziyatni sotsiolingvistik aspektida tekshirish;

- mustaqillik davrida O'zbekistondagi til siyosati, alifbo va imlo masalalarining lingvistik xususiyatlarini ochib berish;

- o'zbek tili taraqqiyoti yo'lida qabul qilingan qonun hujjatlarini lingvistik tadqiq etish va ularda belgilangan me'yorlarga e'tibor qaratish, til normalari aks etgan hujjatlarda belgilangan majburiyatlarning ijrosi masalalarini kuzatish, e'tiborsiz qoldirilayotgan o'rinlarni aniqlash;

- o'zbek tili taraqqiyotiga doir, til siyosati masalalari yoritilgan, lisoniy vaziyat tadqiq etilgan, sotsiolingvistik kuzatuvlar amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil etish;

- mamlakatdagi lisoniy vaziyatni sotsiolingvistik baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- globallashtirish sharoitida dunyoning lisoniy qiyofasini aniqlash, jahon tillari holatini o'rganish, tillar haqidagi aniq ma'lumotlarni olish, tillarning o'zaro munosabatlarini aniqlashning ahamiyati lingvistik asoslar bilan dalillangan;

- globallashtirish va sivilizatsiya jarayonida o'zbek tili o'z mavqeyini ilmiy, qonuniy mustahkamlab, yangicha mezonlar asosida taraqqiy etayotganligi lingvistik asoslanib, til siyosatining tolerantlik, inson manfaatlarini ustuvorligi asosida shakllanayotganligi dalillangan;

- mukammal bo'lmagan alifboni qo'llashning millat hayotidagi savodxonlik, imlo muammolari bilan bog'liq til me'yorsizligi kabi salbiy oqibatlari asoslanib, imlo me'yorlarini takomillashtirish zarurati ochib berilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ilmiy tadqiqot ishida O'zbekistondagi lisoniy vaziyat yoritildi va O'zbekistonning til siyosatiga xos bo'lgan xususiyatlar haqida aniq xulosalar berildi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi: Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni va taraqqiyoti masalasining turli jihatlarini diqqat- e‘tiborni hamisha o‘ziga tortib kelgan. Xususan, bunday tadqiqotlarni M.Mirtojiyev², B.To‘ychiboyev, E.Xudoyberdiyev, A.Nurmonov, E.Begmatov, H.Ne‘matov, N.Mahmudov³, M.Irisqulov, I.Qo‘chqortoyev, G‘.Raximov⁴, B.Karimov⁵, Q.Xonazarov⁶, S.Shermuxeamedov⁷, B.Karimov, K.Mira‘zamov⁸, J.Tulenov, B.Siddiqov, Z.G‘ofurov, A.Abdunabiyev, E.Yusupov, J.Mamashukurov⁹, M.Zokirov, Sh.Usmonova, Z.Ochilova singari tilshunos va faylasuflarimizning ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, g‘arb tilshunos olimlari B.Shlayter, U.Fierman¹⁰, X.Shiffman, I.Baldauflarning monografiya va maqolalarida yurtimizdagi til siyosati va ona tilimizning davlat tili sifatidagi rivojlanish jarayonlari atroflicha yoritilgan.

Ushbu muammolar jahon tilshunosligida ham atroflicha o‘rganilgan. Jumladan, Jan Baudouin de Courtenay, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, V.M.Alpatov, Y.D.Desheriyev, J.Fishman, Ch.Ferguson, U.Ammon, A.I.Baskakov, E.D.Polivanov, N.F.Yakovlev, A.M.Selishev, V.M.Peshkov, J.P.Yakubinskiy, L.I.Jirkov, D.V.Bubrix, N.N.Poppe, N.K.Dmitriyev, A.M.Suxotin, K.K.Yudaxin, A.A.Leontev, A.E.Suprun, U.Vaynrayx, Y.A.Iluktenko, A.R.Luriya, E.M.Vreshchagin, L.S.Vigotskiy, Y.A.Zemskaya, X.M.Grigorevna, L.V.Shcherba, A.Zaleviskata, M.M.Mixaylov, A.Y.Sorokin, V.N.Teliya kabi olimlarning ishlarida qayd etilgan.

Tilning shakllanishi, taraqqiyoti va xususiyatlariga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, til va jamiyat munosabati muammolarining tahlili va tadqiqiga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, huquqiy davlat qurish jarayonida davlat tilining

² Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -Б. 27.

³ Махмудов Н. Тил. - Тошкент: Ёзувчи, 1998. - Б. 24.

⁴ Рахимов Ғ. Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (социолингвистик ва прагматик жиҳатлар): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. - Тошкент, 2017.

⁵ Каримов Б.Р. Миллат, инсон ва тил: тараққиёт муаммолари. - Қарши: Насаф, 2003. – Б. 131.

⁶ Хоназаров Қ. Тил ва дил. -Тошкент: Ўзбекистон, 1991. - Б. 68; Хоназаров Қ. Мустақиллик ва ёшларни байналмилал руҳда тарбиялаш. Тошкент: Қаторгол-Қамолот, 1998; Хоназаров Қ. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. - Тошкент, 2001. – Б. 44.

⁷ Шермухамедов С. Ижтимоий тараққиётда миллатлараро алоқа маданиятининг аҳамияти. – Тошкент: Маънавият, 1998. - Б. 32.

⁸ Каримов Б., Мира‘замов К. Миллат раънақи ва тил муаммолари. - Тошкент: ФАН, 1993. – Б. 21.

⁹ Мамашуқуров Ж.А. Ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланишининг ижтимоий-сиёсий ва маънавий асослари: Фалс. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 22.

¹⁰ Fierman, William, 1991, Language Planning and National Development: The Uzbek Experience, Berlin /New York: Mouton de Gruyter & Co.

amal qilish mexanizmlarini tadqiq etish alohida yondashuvni talab qiladi. Davriy matbuotda, ayrim ilmiy maqolalarda davlat tili muammolarining u yoki bu jihatlari tahlil etilsa-da, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojlanish muammolari yaxlit tarzda, ijtimoiy, lingvistik tahlil darajasida o‘rganilmagan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotning metodologik asosini til va tafakkur, til va jamiyat masalalarining sotsiolingvistik jihatdan o‘rganilishiga doir qarashlar tashkil qiladi. Yurtimizdagi mavjud lisoniy vaziyatni to‘g‘ri baholashga erishishda o‘zbek tilshunosligi, turkologiya, jahon tilshunosligida mavjud ilmiy-nazariy xulosalarga tayanildi. Magistrlik dissertatsiyamizning tadqiq usullarini tavsifiy usul, qiyosiy-tarixiy usul, statistik tahlil usuli, tipologik-tasnifiy talqin hamda sinxron tahlil usullari tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda til siyosatining zamonaviy modellarini shakllantirishda, o‘zbek tili taraqqiyotining innovatsion strategiyalarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda, sotsiolingvistika yo‘nalishida tadqiqotlarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliy filologiya bo‘limlari: sotsiolingvistika, lingvodidaktika, lingvokulturologiyaning fan sifatida o‘qitilish jarayonida dastur, reja tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o‘tashi bilan izohlanib, falsafa, tarix, sotsiologiya, siyosatshunoslik sohalarida "O‘zbek tili taraqqiyotining tarixiy xususiyatlari", "Davlat tilining davlat va jamiyat qurilishidagi o‘rni" va shu kabi mavzularda o‘qitilishi, davlat va jamiyat qurilishi muammolari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarga tavsiya etilishi, til siyosati va lisoniy vaziyatni yoritishda foydalanish, ushbu hodisalar tadqiqi jarayonida, turli tahliliy va nazariy tadqiqotlarda qo‘llanishi mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami ____ sahifani tashkil etadi.

I BOB. SOTSIOLINGVISTIK TADQIQOTLARDA *TIL SIYOSATI* TUSHUNCHASINING TALQINI

1.1. Jahon va o‘zbek tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar va ularda *til siyosati* tushunchasiga yondashuvlar

Ma’lumki, hech bir til kishilik jamiyatidan ayro holda paydo bo‘lmagan va shu bilan birga ayro tarzda mavjud bo‘la olmaydi ham. Til va jamiyat har doim uzviy aloqadorlikda rivojlanadi. Shu bois ham XX asrda tilni jamiyat va uning a’zolari bo‘lgan til egalari bilan birgalikda o‘rganish boshlandi. Natijada 1963-yildan boshlab yangi bir tadqiqot yo‘nalishlari shakllana boshladi. Bu termin sifatida ilk bor AQShda 1952-yilda (G.Karri tomonidan) fanga kiritilgan “Sotsiolingvistika” fani edi. “Sotsiolingvistika (lot. *societas* — jamiyat va *lingvistika*) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolar majmuini o‘rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi”¹¹. Bugungi kunga qadar dunyo tilshunosligida bu sohaga doir minglab tadqiqotlar olib borilgan.

1950-yillardan beri, bu soha lingvistika fani ichida katta sifat va miqdoriy o‘rishni namoyon qildi. Hozirgi vaqtda sotsiolingvistika – bu til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni ilmiy o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan tilshunoslikning sohasi, u faqat tilshunoslikninggina emas, balki ijtimoiy fanlarning ham tadqiqot metodlari va yutuqlaridan oziqlanib rivojlanadi. Uning kuzatishga asoslangan empirik tadqiqotlarida odamlar real ijtimoiy aloqalarda, kundalik hayotiy vaziyatlarda tildan qanday foydalanishlariga va o‘zlarining tabiiy ijtimoiy kontekstlarida tilga oid bilimlarni qanday qilib avtomatik tarzda oson o‘rganishlariga e’tibor qaratilgan¹². Sotsiolingvistika tilshunoslikning qisman antropologiyadan, qisman etnografiyadan, qisman sotsiologiyadan va qisman dialektologiyadan

¹¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>

¹² Labov, W. 1997. Linguistics and sociolinguistics. In *Sociolinguistics: A Reader and Coursebook*, Coupland & A. Jaworski (eds.), 23–24. London: MacMillan.

nazariy va uslubiy jihatlarni shartli ravishda o'zlashtirgan ko'p tarmoqli sohasidir. Dell Haymesning antropologiya va folklorga asoslangan ilmiy ishlari, Jon Gumperz va uning o'zaro muloqotga doir etnografik tadqiqotlari, Joshua Fishman va uning til sotsiologiyasi hamda Vilyam Labovning lingvistik variantlar ta'limoti ushbu sohaning vujudga kelishiga asos bo'lgan izlanishlardir. Figueroaning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, sotsiolingvistikadagi ushbu uchta asosiy yo'nalishlar o'zining falsafiy asoslariga ega: Hymes ishi relyativizm doirasida, Labovning variatsionistik yondashuvi realizmga asoslangan va Gumperzga ko'ra ijtimoiy ma'noni talqin qilish so'zlovchi niyatining kontekstda namoyon qilinishi asosiga qurilgan ¹³ . Sotsiolingvistik tadqiqotlarda "fieldwork" metodi (ya'ni intervyu yoki tabiiy muhitda insonlarning tildan qanday foydalanishlarini kuzatishga asoslangan metod) usullaridan foydalanishni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQShda Hind tillarini o'rgangan antropologik va etnografik tadqiqotlar olib borgan tilshunoslar (Frants Boas, Edvard Sapir yoki Leonard Bloomfield), Afrika, Osiyo yoki Avstraliyadagi tub yerlik aholining tillarini o'rgangan olimlar (Alan Gardiner, Bronislav Malinovskiy yoki Jon Firth) va Yevropa dialektologlari, masalan, Georg Venker, Jyul gilli Rokskron, Karl Jaberg yoki Yakob Jud kabi tadqiqotchilar boshlab bergan. Ularning maqsadi ofisda o'tirib til haqida nazariyalarni faraz qilmasdan, tabiiy sharoitda odamlar bir-biri bilan uchrashib qolishganida tildan qanday foydalanishlari, ya'ni odatiy va erkin jonli muloqotdagi tilni talqin qilish va shu haqidagi ma'lumotlarni to'plash edi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek sotsiolingvistika terminining Amerikada fanga kiritilishi ham AQSh olimlarining til va jamiyat masalasiga alohida qiziqish va e'tibor bilan qaraganliklarini ko'rsatadi. Xususan, J.A.Fishmanning "Til jamiyatidagi ma'ruzalar" ("Readings in the Society of Language") nomli 50-yillarning lingvistlari, sotsiologlari, madaniyat antropologlari, dialektologlari va kommunikatsiya (muloqot) sohasi turli mutaxassislarning maqolalarida sotsiolingvistikaga oid muammolar ko'tarib chiqildi. Kitobning "So'zboshi"sida J.A.Fishman "til sotsiologiyasi" va "sotsiolingvistika" terminlarining sinonim

¹³ Figueroa, E. 1994. *Sociolinguistic Metatheory*. Oxford: Pergamon.

sifatida qoʻllanishiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, AQShda D.Xayms "Nutq etnografiyasi", U.Labov "Nyu-Yorkda ingliz tilining ijtimoiy stratifikatsiyasi", J.O.Gersler "Til sotsiologiyasi" asarlari bilan; X.P.Ronan, A.D.Grimsho, A.Keypel, S.M.Ervin-Tripp, U.Braytlar qator ilmiy izlanishlari bilan sotsiolingvistika rivojiga munosib hissalarini qoʻshgan. Yuqorida sanab oʻtilgan olimlar va ulardan soʻng yana koʻplab tilshunos va sotsiologlar, sotsiolingvistlar Amerikada hukm surgan lisoniy vaziyatni va AQSh hukumati yuritgan til siyosatini tahlil qilishga urinishgan.

Ammo, ayrim sotsiolingvistlarning fikricha, sotsiolingvistikaning ildizlarini Amerika tilshunosligidan emas, balki Yevropa, xususan, rus tilshunosligidan izlash kerak¹⁴.

Sotsiolingvistikaning shakllanishida I.A.Boduen de Kurtenening til hodisalarining ijtimoiy shartlanganligi, shuningdek, tilning qoʻllanishi va rivojlanishiga ekstralingvistik ijtimoiy omillar ta'siri borasidagi tadqiqotlari katta rol oʻynagan. 1974-yilda "Русский язык зарубежом" jurnalida e'lon qilingan maqolada N.G.Mixaylovskaya I.A.Boduen de Kurteneni "rus va sovet tilshunosligidagi sotsio-etnolingvistik tadqiqotlarning asoschisi" tarzida atagan. I.A.Boduen de Kurtene: "Til faqat kishilar jamiyatida mavjud ekan, u holda, uning ruhiy tomonidan tashqari, ijtimoiy tomoniga ham har doim e'tibor qaratishimiz kerak. Nafaqat individual psixologiya, balki sotsiologiya ham tilshunoslikning asosi boʻlib xizmat qilishi lozim", - deb yozgan¹⁵.

XX asrning birinchi yarmida Fransiya, Rossiya, Chexiya tilshunoslik maktablarida tillarning ijtimoiy tabiatiga katta ahamiyat berilgan. Rus tilshunoslari I. A. Boduen de Kurtene, Y.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M. Selishev, G.O.Vinokur, fransuz tilshunoslari F.Bruno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, shved tilshunoslari Sh.Balli, A.Seshe; belgiyalik tilshunos J.Vandries, chex tilshunoslari B.Gavranek, A.Mateziuslarning ilmiy gʻoyalari sotsiolingvistikaning fan sifatida shakllanishiga turtki boʻldi. Binobarin, A.

¹⁴ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. -М., 2001. –С. 6-7.

¹⁵ Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. Том II. - М.: Изд-во Академии Наук СССР, 1963. - С. 15.

Meyening til - jamiyat hayoti bilan bevosita aloqada bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun uning rivojlanishida differentsiatsiya va unifikatsiya jarayonlari mavjudligi; Sh.Ballining tilning barcha vositalari muloqot doirasiga ko‘ra taqsimlanishi, bunday taqsimlanishda ijtimoiy o‘zaro bog‘liqlikning salmoqli o‘rin tutishi; rus va chex tilshunoslarining yagona milliy til egalarining ijtimoiy mavqeiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy differentsiatsiya; Y.D.Polivanovning jamiyatning tilga ta'siri to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmasligi, jamiyatdagi o‘zgarishlarning til evolyutsiyasini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkinligi haqidagi, shuningdek, hududiy dialektologiya bilan birga, ijtimoiy dialektologiyaning ham muhimligini asoslash; B.A. Larin, V.M.Jirmunskiy, D.S.Lixachevlarning milliy til ichki tizimini tushunishda jargonlar, argolar va tilning boshqa kodlashmagan sohalarini o‘rganishning muhimligi to‘g‘risidagi g‘oyalari shular jumlasidandir¹⁶.

XX asrning birinchi yarmidagi sotsiolingvistika diaxron jihatdan talqin bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmidagi qilingan bo‘lsa, ya’ni unda til evolyutsiyasi bilan jamiyat rivojlanishining sotsiolingvistik tadqiqotlar sinxron xarakterga ega bo‘lib, ularda til strukturasi unsurlari bilan jamiyat strukturasi unsurlari orasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.

A.Keypelning fikricha, "sotsiolingvistika" terminining o‘zi o‘zini aniqlab keladi. O‘z nomidan ham ko‘rinib turganidek, sotsiolingvistika sotsiologiya va lingvistika kesishgan nuqtada yuzaga kelgan fan hisoblanadi. Sotsiolingvistikaning fanlararo xarakteri aksariyat tadqiqotchilar tomonidan tan olingan. Lekin bunday tan olish o‘z-o‘zidan: mazkur fanda sotsiologiya ko‘pmi, yoki lingvistika ko‘pmi? Sotsiolingvistika bilan sotsiologlar shug‘ullanishadimi yoki tilshunoslar shug‘ullanishadimi? degan savollarga javob bermaydi. Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki, zamonaviy sotsiolingvistika - tilshunoslikning sohalaridan biri. Ushbu soha endigina shakllanayotgan, "oyoqqa turayotgan" paytda uning mavqeyi haqida munozara qilish mumkin edi. Biroq bugungi kunga kelib, sotsiolingvistikaning nafaqat tadqiqot obyekti, maqsadi hamda vazifalari aniqlandi,

¹⁶ Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. -М., 2001. -С. 7.

balki uning tilshunoslikka xos tabiatini ochib beradigan salmoqli natijalarga ham erishildi.

Shu bilan birga, sotsiolingvistlarning sotsiolog (shuning uchun "sotsio - ...")lardan ko'plab metodlarni, xususan, ommaviy tadqiqot metodlari, anketalashtirish, og'zaki metodlar, og'zaki so'rov va intervyu metodlarini o'zlashtirishganini ham tan olish kerak. Biroq sotsiolingvistlar mazkur metodlardan tilni o'rganish vazifalaridan kelib chiqqan holda ijodiy foydalanishadi, bundan tashqari, ular asosida til faktlari va til egalari bilan ishlashga qaratilgan xususiy metodik usullar yaratilmoqda.

Zamonaviy sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik tadqiqotchi U.Labov sotsiolingvistikani "tilni uning ijtimoiy kontekstida" o'rganadigan fan sifatida belgilagan. sifatida belgilagan. Boshqacha qilib aytganda, sotsiolingvistlar tilga ham, uning ichki tuzilishini o'rganishga ham e'tibor qaratmaydilar. Ular, asosan, u yoki bu jamiyatdagi insonlarning tildan qanday foydalanishlarini tadqiq etadilar. Bunda tilga ta'sir qiluvchi barcha ijtimoiy omillar: muloqotga kiruvchilarning yoshi, jinsi, madaniyati va bilim darajasi, kasbidan tortib, to aniq nutqiy aktning xususiyatlarigacha hisobga olinadi¹⁷.

U.Braytga ko'ra, sotsiolingvistik tadqiqotlar til va jamiyat munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi. Biroq bunday qarash ham noaniqlikni keltirib chiqaradi. Agar biz bunga aniqlik kiritadigan bo'lsak, unda til va jamiyat shunchaki qandaydir birliklarning majmuyi emas, balki ular struktura hisoblanadi. Mazkur holatda sotsiolingvistning vazifasi til strukturasidagi va ijtimoiy strukturadagi o'zaro munosabatlar tizimini ochib berish bo'ladi. Ya'ni sotsiolingvistlarning vazifasi lingvistik strukturaning sistematik qo'shma variatsiyalashuvini ko'rsatib berish, hatto, u yoki bu yo'nalishning tasodifiy aloqasini ochib berishdan iboratdir. Sotsiolingvistikaning asosiy vazifalaridan biri mazkur variatsiyalarning haqiqatan ham "erkin" emasligi, ularni sistematik, sotsial farqlar bilan o'zaro aloqada

¹⁷ Labov W. Phonological correlates or social stratification. AA, 66 (6), part 2, 1964. -P. 170.

ekanligini ko'rsatib berishdir. Til farqliligini ana shunday keng planda tushunish sotsiolingvistikaning asosiy obyekti sanaladi¹⁸.

Sotsiolingvistikada eng muhim masalalardan biri bu til siyosati masalasidir. J.Fishman va O.Garsiya kabi ba'zi olimlar uni sotsiolingvistikaning bir qismi deb hisoblashadi. Boshqa tomondan esa, B.Spolskiy, Kaplan va J.Bianko kabi boshqa bir nechta olimlar til siyosati amaliy tilshunoslikning bir tarmog'i ekanligini ta'kidlaydilar. Tabiiyki, til siyosati hamda tilga oid siyosat masalalari jamiyatda doimo mavjud bo'lib turadi, bu xalqaro munosabatlar masalasida yoki ozchilik tillari bilan bog'liq muammolarda, migratsiyaga aloqador nizolarda, tildan to'g'ri foydalanish yoki lingvistik diskriminatsiya kabi muammolar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, til siyosatiga ilmiy qiziqish nisbatan ancha kech boshlangan va tadqiqotlar hozirgacha hech qanday yagona nazariyani ishlab chiqishga olib kelmagan. Ayniqsa terminologiya sohasida juda ko'p noaniqliklar mavjud, buning asosiy sababi sohaning turli tillarda turli terminologik tuzilishga ega ekanligi bilan izohlanadi va yanada bu masalani ancha murakkablashtiradi.

Mustaqil soha sifatida til siyosati va tilni planlashtirish (LPP-language policy and planning)ga doir ilmiy tadqiqotlarni 1960-yillarda Haugen (1966), Kloss (1966) yoki Fishman (1968) kabi olimlar ishlarida ko'rish mumkin. Ularda dastlab tilni planlashtirish jihatiga e'tibor qaratilgan edi. Masalan, Risento shunday deydi: "men ataylab "til siyosati"ni "tilni planlashtirish" degan o'ta murakkab atama sifatida ishlataman. Chunki til siyosati tadqiqotlari nafaqat hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarning rasmiy va norasmiy hujjatlari bilan, balki tildan foydalanish va ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi tarixiy va madaniy jarayonlar bilan ham bog'liq"¹⁹. Risentoning so'zlariga ko'ra, bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim savol: "nima uchun odamlar turli sohalarda belgilangan funksiyalar uchun ma'lum tillar va variantlardan foydalanishni afzal ko'rishadi (yoki ulardan foydalanishni to'xtatadilar) va bu tanlovlarga qanday omillar ta'sir qiladi, shuningdek qanday qilib ular rasmiy til siyosatiga oid qarorlarni

¹⁸ Брайт У. Введение: параметры социоллингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41.

¹⁹ Ricento T. Historical and theoretical perspectives in language policy and planning. Journal of Sociolinguistics, 4(2), 196-213.

qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi (mahalliy, milliy yoki millatlararo)"²⁰. Shubhasiz, mana shu savollarga javob topish orqali til siyosatining nima ekanligini, uning asosiy mazmun-mohiyati va maqsadlarini anglash mumkin.

Til siyosati turli joylarda turli yo'llar bilan belgilanadi. Jumladan Kaplan va Baldauf (1997) fikricha ham, "Til siyosati jamiyatlarda, guruhda yoki tizimda tilda rejalashtirilgan o'zgarishlarga erishishga qaratilgan g'oyalar, qonunlar, qoidalar va amaliyotlar yig'indisidir". Makkarti til siyosatini "hokimiyat tomonidan amalga oshiriladigan, ammo odamlarning o'zaro aloqalari va bir-biriga ta'siri natijasida kechadigan murakkab ijtimoiy-madaniy jarayon",- deb ta'riflaydi. "Bu jarayonlardagi "siyosat" ularning tilni tartibga soluvchi kuchidadir; ya'ni qonuniy va noqonuniy til shakllari va qo'llanishlariga nisbatan me'yoriy qoidalarni ifodalash, shu orqali til maqomlari va qo'llanishlarini tartibga solish usullari" demakdir²¹. Til siyosatining an'anaviy ko'lami tilni tartibga solish bilan bog'liq. Bu hukumatning tillardan qanday foydalanilishini aniqlash, milliy ustuvorliklarga javob berish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini rivojlantirish, shaxslar yoki guruhlarining tillardan foydalanish va ularni saqlash huquqlarini nazorat qilishni sof qonunchilik yo'li bilan qonunlar, qarorlar va farmoyishlar bilan amalga oshirishini anglatadi.

Til siyosatini amalga oshirish dunyoning turli davlatlarida turlicha. Buni ko'pincha til siyosatining ma'lum bir tarixiy sabablarga asoslanishi bilan izohlash mumkin. Xuddi shunday, davlatlar biron bir til siyosatini amalga oshirishlarining aniqlik darajasi ham farqlanadi. Fransiyadagi "Tubon qonuni" aniq til siyosatining eng yaxshi namunasidir. Kvebekdagi "Fransuz tili xartiyasi" haqida ham shunday deyish mumkin. Tollefson esa til siyosati tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi: "Tilni rejalashtirish-siyosati tilni ijtimoiy guruhlar (sinflar) o'rtasidagi farqlar uchun asos sifatida institutsionalizatsiya qilishni anglatadi. Ya'ni, til siyosati tilni ijtimoiy tuzilma ichida joylashtirishning bir mexanizmi bo'lib, til kimning siyosiy kuch va iqtisodiy resurslarga ega bo'lishini belgilab beradi. Til siyosati hukmron guruhlar tildan foydalanishda gegemonlikni o'rnatadigan

²⁰ Ricento T. Historical and theoretical perspectives in language policy and planning. *Journal of Sociolinguistics*, 4(2), 196–213.

²¹ Makkarti T. *Ethnography of language*. Nyu-York: Routledge, 2011. – P. 8.

mexanizmlardan biridir”²² . Bu esa boshqa til egalarining huquq va manfaatlariga zid va ularning kamsitilishiga olib kelishi mumkin.

Ko‘plab mamlakatlarda ma’lum bir til yoki tillar guruhidan foydalanishni ma’qullash yoki rad etishga qaratilgan til siyosati mavjud. Shtatlar, mahalliy hokimiyat organlari yoki boshqa ayrim guruhlar yo kuchlar ikki tilli yozuvni targ‘ib qilishlari yoki ommaviy axborot vositalarini boshqa tilga ham tarjima qilinishi uchun tashviqot qilishlari mumkin. Garchi xalqlar tarixan bitta rasmiy tilni boshqalarning o‘z ona tilidan foydalanish huquqlarining cheklanishi hisobiga targ‘ib qilish uchun til siyosatini qo‘llagan bo‘lsa-da, hozirda ko‘pgina mamlakatlar hayotiyli xavf ostida bo‘lgan mintaqaviy va etnik tillarni himoya qilish va targ‘ib qilishga qaratilgan siyosatlarni yuritishmoqda. Haqiqatan ham, siyosiy jihatdan minority tilli guruhlarning mavjudligi ko‘pincha ichki birlashish uchun potensial tahdid deb hisoblangan bo‘lsa-da, davlatlar ozchilik til egalariga til huquqlarini ta’minlash ularning uzoq muddatli manfaatlariga ko‘proq mos kelishi mumkinligini tushunishmoqda. Bugungi kunda madaniyat va tillararo xilma-xillikni saqlash ko‘plab olimlar, san’atkorlar, yozuvchilar, siyosatchilar, til hamjamiyatlari rahbarlari va insonlarning tilga oid huquqlari himoyachilarining asosiy tashvishidir . Hozirda dunyoda so‘zlashiladigan 6000 ta tilning yarmidan ko‘pi XXI asrda yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida ekanligi taxmin qilinmoqda. Har qanday inson tilining mavjudligi hamda qo‘llanilishiga juda ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Masalan o‘z ona tilisida so‘zlashuvchilarning soni, tillarning rasmiy muloqotda qo‘llanilish darajasi, geografik tarqoqlik va so‘zlashuvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy salmog‘i kabi qator omillar. Milliy til siyosati esa shu omillarning ayrimlarining ta’sirini yumshatishi yoki kuchaytirishi mumkin. Boshqa bir tomondan esa **til siyosati** bu biror siyosiy maydonda til va xalqlar o‘rtasidagi lingvistik tafovutlarni hal qilish usuli hamdir. Bu hukumatning tan olinishi va rasmiy vakolatlarda tilga qanday munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

²² Tollefson J. Planning language, planning inequality: language policy in the community. – London: Longman,1989. – P. 16.

O‘zbek tilshunosligida dastlab tilning ijtimoiy tabiati, jamiyatning tilga ta’siri masalasiga o‘tgan asrning 80-yillarida “Tilshunoslikka kirish” qo‘llanmasida alohida to‘xtalgan bo‘lsa ham, aslida til va jamiyat muammolari avvalroq tilga olina boshlagan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida oz bo‘lsa ham shunga oid qaydlar uchrab turadi. Tilshunos Zaynabidin Abdurashidov esa Jadid bobokalonlarimiz ijodi va faoliyatini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilar ekan Behbudiyni o‘ziga xos tajriba va so‘rovnomalar o‘tkazgan sotsiolog sifatida ham kashf etamiz deydi. O‘tkazilgan tajriba xulosalari esa uning “Til masalasi” nomli maqolasining ikkinchi qismida bayon etilganligi ta’kidlanadi ²³ . Tilshunos olimlarimiz Miraziz Mirtojiev va Nizomiddin Mahmudovning “Til va madaniyat” risolasida ham tilning ijtimoiyligi, davlat tili va til siyosati haqida so‘z ketgan o‘rinlar mavjud. Mutaxassislar esa S.Mo‘minovning “O‘zbek muloqot nutqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli doktorlik dissertatsiyasini sotsiolingvistika bo‘yicha qilingan ilk ish sifatida qayd etadi. So‘nggi yillarda bu boradagi tadqiqotlar ko‘lami yanada kengaymoqda. Jumladan amaliy tilshunoslikning muhim masalalari sifatida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida tilshunos Rafiqjon Zaripov va bir qator shogirdlari faoliyatida til siyosati va menejmenti mavzusida turli konferensiya va jurnallarda ko‘plab maqola va tezislari e’lon qilinmoqda. Tilshunosning o‘zi ham 2021-yilda “Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Muammoning o‘ganilganlik darajasini tahlil qilar ekan: “O‘zbek tilshunosligida til siyosati, bilingvizm, pluralingvizm masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarni M.Mirtojiev, B.To‘ychiboyev, E.Xudoyberdiyev, A.Nurmonov, E.Begmatov, H.Ne‘matov, N.Mahmudov, M.Irisqulov, I.Qo‘chqortoyev, G‘.Raximov, B.Karimov, Q.Xonazarov, S.Shermuxamedov, B.Karimov, K.Mira‘zamov, J.Tulenov, B.Siddiqov, Z.G‘ofurov, A.Abdunabiyev, E.Yusupov, J.Mamashukurov, M.Zokirov, Sh.Usmonova, Z.Ochilova singari tilshunos va faylasuflarimizning

²³ Abdirashidov, Z. Sh. 2020. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslikka oid tadqiqotlariga doir”. O‘zbekiston: til va madaniyat 2: 24–37.

ishlarida ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, g‘arb tilshunos olimlari B.Shlayter, U.Fierman, X.Shiffman, I.Baldauflarning monografiya va maqolalarida O‘zbekistondagi til siyosati, o‘zbek tilining mustaqillik davridagi rivojlanishi milliy taraqqiyot va millatlararo munosabatlar kontekstida yoritilgan”, - deydi tilshunos dissertatsiya avtoreferatida²⁴.

1.2. O‘zbekiston sotsiolingvistikasining jahon sotsiolingvistikasi bilan tipologik-qiyosiy tavsifi

Sotsiolingvistika o‘tgan asrning 60-yillaridan jahon tilshunosligining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lsa, 80-yillarga kelib esa u ilg‘or sohalardan biri sifatida tanildi. Zamonaviy sotsiolingvistika til(lar)ning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rnini, rolini, vazifasi va vaziyatini yaqqol ko‘rsatib beruvchi fan sohasi sifatida shiddat bilan taraqqiy etmoqda. Hech shubhasiz, mavjud mamlakatlarning hamda ularda yashayotgan xalqlarning maqomi va mavqeyi rang-barangdir, xuddi shunday tillarning yoyilish va qo‘llanish doirasi ham o‘zgacha. Shu nuqtayi nazardan tillar vaziyati masalasida aniq va ishonchli xulosalarga kelish, tillarning jamiyat hayotidagi rolini belgilash, ertangi holatini bashorat qilish sotsiolingvistik tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi. Shu bois quyida dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari va O‘zbekistonda hukm surgan lisoniy vaziyat va til siyosati qiyosiy tavsiflanadi.

Eng avvalo, Amerika sotsiolingvistikasiga nazar tashlasak. 1990-yilgi aholini ro‘yxatdan o‘tkazish hisobotida AQShda 329 ta tilda gaplashadigan turli lingvistik farqlilik qayd qilingan. Bular 175 ta tilni o‘z ichiga oladigan 55ta sof mahalliy Amerika til oilalaridir²⁵. Ushbu faktdan AQShdagi lisoniy vaziyatning qanchalik murakkab va ko‘p qirrali ekanligini bilish qiyin emas. Massachusetts Boston universiteti tadqiqotchisi Panayota Gounari yagona rasmiy til siyosati yetarlicha ilgari surilmagan bo‘lsa-da, AQSh ingliz tili asosiy so‘zlashuv tiliga aylanishi bilan monolingualizmning yuqori ko‘rsatkichiga erisha olganini ta’kidlaydi. “Amerika monolingualizmi mahalliy

²⁴ Zaripov R. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: f.f.f.d. ...diss. Avtoref. – Andijon, 2021. – B. 7.

²⁵ Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. – Toshkent:Universitet,2014. – B. 12.

Amerika hindu tillari sonining yuqoriligi va mamlakatga oqib kelgan immigrantlar to'liqini bilan turli-tuman tillarning ko'plab kirib kelishi natijasida tabiiy ravishda ingliz tili umumiy muloqot tili sifatida tanlanishining mevasidir"-deydi olim²⁶. Haqiqatdan ham AQSh konstitutsiyasida ingliz tili yagona rasmiy til deb e'lon qilinmagan. Lekin yillar davomida ko'plab ingliz faollari ingliz tilini Qo'shma Shtatlarning rasmiy tiliga aylantirishga harakat qilishgan, kongressning deyarli har bir sessiyasida ingliz tilini rasmiy til maqomiga chiqarish maqsadida konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish taklif etilgan. Jumladan, 107-Kongressda muhokama qilingan HJ RES 16 VA HR 3333 qonun loyihalarida ingliz tili AQShning rasmiy tili bo'lishi, barcha rasmiy ishlar, hujjat ishlari bundan tashqari ingliz tili AQShning rasmiy tili sifatidagi rolini saqlab qolishi, boshqa tillardan mansabdor shaxslarning foydalanishi hamda xizmat ko'rsatishi va shu kabi qator ishlarni amalga oshirish ta'qiqlanishi, yuridik xizmatlarning yaratib berilmasligi kabi masalalarni o'z ichiga olgan. AQSh senatorlaridan biri, Ken Salazar, hattoki ingliz tilini "AQShning umumiy va birlashtiruvchi tili" deb e'lon qiladi²⁷. Hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlarda mavjud bo'lgan ikki tili ta'lim siyosati ham bu qonun loyihalari tomonidan rad etilishi va mamlakatda ingliz tilidan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi ispan tilini (taxminan 13,4%) ham mamlakatdan siqib chiqarishga harakat qilishadi. Lekin, qilingan sa'y harakatlar amalda deyarli o'z isbotini topmagan. Bunga teskari ravishda, AQSh shtatlarga o'z rasmiy tillarini belgilash imkonini berdi. Hujjat ishlari, ta'lim sohasi o'sha hudud doirasida amalda bo'lgan til siyosati orqali amalga oshiriladigan bo'ldi, buning natijasida AQShda aniq bir til siyosati o'rnatilmadi²⁸. Ammo aholisining asosiy so'zlashuv tili(taxminan 78%) ingliz tili ekanligini ta'kidlab o'tadi maqola mualliflari. Boshqa bir manbada esa "ingliz tili qanday bo'lmasin o'z o'rnini ispan yoki boshqa tillarlarga bo'shatib berishi hamda yangi muhojirlarning ingliz tilini o'rganishdan bosh tortishi borasidagi qo'rquvlar asossizdir. Ma'lumotlarda qayd qilinishicha, hatto, uyda ingliz tilidan boshqa tilda so'zlashadiganlarning 82%i ingliz tilini yaxshi yoki juda yaxshi biladi. Muhojirlar ingliz tilini o'rganishda davom

²⁶ Panayota Gounari. Language Policy in the United States: Uncommon Language and the Discourse of Common Sense.

²⁷ <https://www.usconstitution.net/>

²⁸ Safarova G., Zaripov R. Jahon mamlakatlarida til siyosati va til boshqaruvi. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari.konf.to'plami. 2022. – B.31-34.

etmoqda, AQSh bir tilli mamlakat bo‘lib, aholisining deyarli 90% ingliz tilida so‘zlashmoqda²⁹”-deyiladi.

Buyuk Britaniyada esa til siyosati XX asrning birinchi yarmida vujudga keldi,- deb boshlaydi yana bir sotsiolingvist olim Viv Edwards o‘zining “Ko‘p madaniyatli Britaniyada til siyosati³⁰” nomli asarini. Britaniya til siyosatida avvalo ta’limda Keltlar(qadimiy Britaniyaliklar) tillari va standart bo‘lmagan ingliz dialektlarini qabul qilmaslikka, hamda standart ingliz tilini o‘qitishning ahamiyatiga diqqat qaratilgan. Britaniya maktablari bir tilli (monolingual) va yagona madaniyatli (monocultural) tashkilotlar edi. Ularning asosiy vazifalaridan biri yagona til va madaniyat normalarini singdirish kerak edi. 1950-1960-yillarda aholining demografik holatida katta o‘zgarishlar yuz berdi. 1950-yil o‘rtalaridan boshlab asosiy xomashyo bazasi bo‘lgan hududlar: Hindiston va Karib dengizi mamlakatlari aholisi Britaniyadagi urushdan keyin paydo bo‘lgan sanoat inqilobida ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun mamlakatga kelib o‘rnasha boshlashdi. Dastlabki immigrantlar shu ikki hududdan bo‘lishiga qaramay, keyinchalik Sharqiy Afrika va Gong Kong aholisi kelib joylashishdi. Bu vaqtda Kipr va Italiyaliklar allaqachon kelib jamoalar tuzib o‘rnashishgan edi. Polsha, Ukraina, Vengriya va Vetnamdan ham ko‘ngillilarning kirib kelishi oqibatida Britaniyada kam sonli etnik va lingvistik guruhlar sonini oshirib yubordi. Endi bir tilli ingliz maktablarida turli til va madaniyatga mansub, ingliz tilidan bexabar o‘quvchilarga ta’lim berish qiyin bo‘lib qoldi. Shu bois Britaniya Ta’lim vazirligi “Immigrantlar uchun ingliz tili” (“English for Immigrants”.1963) nomli pamflet e’lon qildi. Unga ko‘ra ingliz bo‘lmagan bolalar uchun intensiv ingliz tili kurslari tashkil etildi va standart ingliz tili o‘qitila boshlandi³¹. Aslida Britaniyada standart til uchun kurash XVIII asrdan boshlangan. Chunki jamiyatda biron amaldorlik lavozimini band qilish va mavqega ega bo‘lish sotsioelektga bog‘liq bo‘lgan. Ammo so‘nggi yuz yillikda demokratlashuv sababli jamiyatda sinflar tushunchasining parchalanishi tilda ham o‘z aksini topdi. Natijada jamiyatda ham, tilda ham aholi deyarli

²⁹ Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. – Toshkent:Universitet,2014. – B. 22.

³⁰ Viv Edwards. Language policy in multicultural Britain. – London:Academic Press.1984. – B. 49-80.

³¹ Viv Edwards. Language policy in multicultural Britain. – London:Academic Press.1984. – B. 49-80.

sinflar va tabaqalarga ajratilmay qoldi, ularning muloqot tili ham deyarli farq qilmay qo‘ydi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniyada yagona rasmiy til belgilanmagan. Biroq Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyani o‘z ichiga olgan birlashgan qirollikda ingliz tilidan tashqari valley, kom, shotland va shotland-gel tillari ham faol qo‘llaniladi. Shunga qaramay ingliz tili muloqotning asosiy vositasi sanaladi. Ingliz tili Angliyaning rasmiy tili va butun Buyuk Britaniyaning defaktosi (lot. “amalda”, “aslida”) hisoblanadi³².

Endigi navbatda esa yana bir buyuk davlat-Fransiyadagi til siyosatini sharhlaydigan bo‘lsak, Fransiyada bitta rasmiy til, ya’ni fransuz tili mavjud. Fransiya hukumati jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy yozishmalar va o‘zaro muloqotda qaysi tildan foydalanishni nazoratga olmaydi, ammo tijorat va rasmiy aloqalarda fransuz tilidan foydalanish qonun bilan talab qilinadi. Fransiya hukumati Respublika hududida fransuz tilidan foydalanishni talab qilishdan tashqari, fransuz tilini Evropa Ittifoqida va global miqyosda La Francophonie kabi muassasalar orqali targ‘ib qilishga harakat qiladi. Ammo ingliz tili va madaniyatining imperializmi Fransiyadagi fransuz tilining mavqeini himoya qilishga qaratilgan harakatlarni kuchaytirishni taqozo eta boshladi. Fransiyada fransuz tilidan tashqari, boshqa ko‘plab mahalliy ozchilik tillari ham mavjud. Ushbu tillar Fransiya Konstitutsiyasining 75-1-moddasi bilan tan olingan. Bernard Serquglini tomonidan fransuz hokimiyatiga yozilgan 1999-yilgi hisobotda 75 ta til (ulardan 8 tasigina markaziy Fransiyada) mavjudligi ma’lum qilingan. Ular “Yevropa mintaqaviy yoki ozchilik tillari Xartiyasi”ga muvofiq tan olinishi kerak edi (ayni paytda Xartiya Fransiya hukumati tomonidan imzolangan, ammo ratifikatsiya qilinmagan). 1994-yil 4-avgustida fransuz tilidan foydalanish bilan bog‘liq masalarni tartibga nsoluvchi Tubon qonuni qabul qilindi. Qonun rasmiy davlat nashrlarida, barcha reklamalarda, ish joylarida, tijorat aloqalari va shartnomalarida, barcha hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan maktablarda va boshqa kontekstlar fransuz tilidan foydalanishni talab qiladi. Qonun xususiy va notijorat aloqalar, masalan, xususiy tashkilotlarning notijorat veb-nashrlariga taalluqli emas. Shuningdek kitoblar, filmlar,

³² Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiologiyat. – Toshkent:Universitet,2014. – B. 51.

ommaviy nutqlar va tijorat faoliyatini tashkil etmaydigan boshqa aloqa shakllariga ham taalluqli emas. Biroq qonun musiqiy asarlar va filmlarning original versiyalaridan tashqari, barcha efirga uzatiladigan audiovizual dasturlarda fransuz tilidan foydalanishni talab qiladi. 2006-yilda ushbu qonunga binoan, AQSh kompaniyasining fransuz filiali jarimaga tortilgan. 2008-yilda mintaqaviy tillarning rasmiy e'tirofini yaratish uchun Fransiya Konstitutsiyasini qayta ko'rib chiqish masalasi parlament tomonidan Kongressda ko'rildi. 2021-yilda parlament tomonidan mintaqaviy tillar to'g'risidagi qonun qabul qilindi³³.

Bir necha rasmiy tilga ega bo'lgan Yevropa davlatlaridan biri Belgiyadagi til siyosatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqa davlatlar til siyosatidan ancha farqli ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Yevropada joylashgan bu davlat ham ko'p tilli mamlakatlar qatoriga kirib, uchta rasmiy tilga ega. Bular: niderland, fransuz, nemis tillaridir. Bu tillar uchun mamlakatda keng ko'lamli til qonunchiligi mavjud bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra Belgiya aholisining 59%i golland, 40%i fransuz, 1%i nemis tilida so'zlashuvchilar hamjamiyatini tashkil etadi. Belgiyada til siyosati bir qancha murakkab bo'lib, ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan. Mamlakatda har bir shaxsning til erkinligi belgilangan, oqibatda mamlakatda fransuzlashuv jarayoni boshlangan va natijada golland tilini mavqeyi yo'qola boshlagan. Qonun hujjatlarida ham fransuz tilining roli ko'tarilgan, chunki qonun chiqaruvchi amaldorlar golland tilini yaxshi bilishmagan. Bu holatni bartaraf etish uchun qator qonun loyihalari ishlab chiqilgan va yakunda esa ya'ni 1970-yilda davlat Konstitutsiyasining 4-moddasiga binoan to'rtta til sohasi tashkil etilgan³⁴.

Belgiyada ta'lim sohasida ham bir qancha o'ziga xosliklar mavjud bo'lib, ular mintaqadagi mavjud rasmiy tillarni bir-birining hududida o'qitilishini rad etadi. Faqatgina boshqa chet mamlakat tillarini o'rganish qonun bilan cheklanmagan. Ta'lim sohasidagi hayratlanarli holga e'tibor beradigan bo'lsak, mazkur til hududlari o'zlarining mavjud til qoidalarini almashtirish va takomillashtirish hamda so'zlardagi urg'uning o'rinlarini belgilash imkoniyatlariga egadir. Ko'p mamlakatlarda bo'lgani

³³ https://en.m.wikipedia.org/wiki/Language_policy_in_France

³⁴ <https://www.docu.vlaamserand.be/node>

singari Belgiyada ham mamlakat miqyosida ma'muriy masalalarda til qonunchiligining qo'llanilishini tekshiruvchi tashkilot mavjud bo'lib, u Doimiy Til Nazorati Komissiyasi (Doimiy Lingvistik Nazorat komissiyasi)deb yuritiladi. Mamlakat rasmiy tillari soni ko'p bo'lgani bois, bu tashkilotning vazifasi bir muncha murakkablik kasb etadi. Ammo bu tashkilot qonuniy kuchga ega emas, faqatgina vaziyatlarni kuzatadi, tahlil qiladi va kerakli o'rinlarda Davlat kengashiga murojaat qiladi. Bu esa mamlakatda tilga bo'lgan munosabatning yaxshilanib borishi va shu bilan birga tildan to'g'ri joy va paytda foydalanishni ta'minlaydi.

Xitoyda umumiy milliy til uchun sa'y-harakatlar 1912-yilda Xitoy Respublikasi tashkil topganidan keyin boshlangan. Mamlakatni birlashtirish uchun Xitoy standart yozma yozuvga ega umumiy milliy tilni joriy etishga harakat qildi. Osiyo hududidagi Xitoy til siyosatida ham anchagina xilma-xillikni kuzatish mumkin. Xitoy rasmiy tili Putonghua bo'lib, mamlakatdagi deyarli barcha davlat organlari va xalq tashkilotlarida, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimida bu tildan foydalanish shartliligi keltirilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Xitoy tarkibiga kiruvchi bir necha davlatlarga o'zlarining rasmiy tillarini e'lon qilishiga ruxsat berilgan. Uning dialektlari ham ancha ko'p bo'lib, mamlakatning turli mintaqalarida ulardan foydalanish cheklanmagan. Mamlakatning ko'p provinsiyalarida til bo'yicha qator qonun hujjatlari ishlab chiqilgan va o'sha hudud uchun amalda qo'llaniladi. Bundan tashqari mamlakatda og'zaki til bilan birgalikda, yozma nutqni shakllantirishga va yaxshilashga, savodxonlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ozchilik etnik guruhlari Xitoyning rasmiy ko'p madaniyatli davlatida kichik mavqeni egallaydi, chunki ularning so'zlovchilari aholining qariyb 8% ni tashkil qiladi, ammo umumiy quruqlikning taxminan 64% ni tashkil qiladi. Xitoydagi o'nta eng yirik ozchilik guruhlari juanglar (16,2 million kishi), manlar (10,7 million), huislar (9,8 million), miaoslar (8,9 million), uyg'urlar (8,4 million), tujialar (8,0 million), yilar (7,8 million), mo'g'ullar (5,8 million), zanglar yoki tibetliklar (5,4 million) va buyeylar (3,0 million). Ozchiliklarga nisbatan rasmiy til siyosati Xitoy Konstitutsiyasining "har bir etnik ozchilik o'z tilidan foydalanishi va uni rivojlantirishi kerak" bo'limida qayd etilgan. Ushbu masala bo'yicha rasmiy ta'lim yo'riqnomasida shunday deyiladi:

“O‘quvchilarning aksariyati etnik ozchilikka mansub bo‘lgan maktablarda, agar shartlar imkon bersa, darsliklar va o‘qitish tili shu ozchilikning tilida bo‘lishi kerak. Xitoy tili milliy tilni rivojlantirish uchun boshlang‘ich maktabning so‘nggi ikki yilida va o‘rta maktabda o‘qitilishi kerak” (Etnik ozchiliklar uchun mintaqaviy avtonomiyani amalga oshirish dasturining 37-moddasi).

Ayni paytda xitoy tilshunoslarini ham, butun dunyo tilshunoslari kabi bir qator xavf ostida qolgan tillarning ahvoli alohida tashvishga solmoqda. Huang (2003)³⁵ Xitoyda hozirda 22 ta tilda o‘n mingdan kam so‘zlashuvchilar borligini va ko‘plab mintaqalarda avlodlararo tillarning xitoy tiliga o‘tish jarayoni izchil davom etayotganini ta’kidlaydi. Huang "ozchilik millatlari o‘z ona tillarining kelajagiga ishonmaydilar", shuningdek, "xitoy tilini egallash ularga ko‘proq imkoniyatlarni qo‘lga kiritishiga yordam beradi", natijada "bu ozchilik millatlarining ona tillarining inqiroziga olib keldi" deb izohlaydi. Huang nihoyat 2002 yildan beri Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasi Ozchiliklar ishlari bo‘yicha Davlat komissiyasi va YUNESKO bilan "Yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan tillarni qutqarish va hujjatlashtirishga qaratilgan dasturlar" ustida ish olib borayotgani haqida xabar beradi.

Ikki qit’ada joylashgan Turkiya o‘zining boy madaniy merosi va an’analarning jonli uyg‘unligi bilan mashhur. Uning chegaralarida turli tillar o‘zaro bog‘lanib, mamlakatda multikulturalizm (ya’ni ko‘plab madaniyatlar qorishmasi)ni vujudga keltiradi. Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgan Turkiya jonli ko‘p madaniyatli merosni o‘z ichiga olgan. Ushbu madaniy boylik o‘lkaning butun mamlakat bo‘ylab so‘zlashadigan ko‘plab tillarni birlashtirgan lisoniy manzarasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyida Turkiyada so‘zlashadigan tillarni: keng tarqalgan turkchadan tortib, unchalik ma’lum bo‘lmagan ozchilik tillarigacha ko‘rib chiqamiz.

Turk tili - Nation's Lingua Franca Turk tili, Turkiyaning rasmiy tili bo‘lib , aholining ko‘pchiligi so‘zlashadi. Turkiy tillar oilasiga mansub va lotin alifbosida yozilgan turk tili xalqni bir-biriga bog‘lovchi birlashtiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

³⁵ Huang Xing. Minority language planning of China in relation to use and development. Conference on language development, language revitalization and multilingual education in minority communities in Asia, Bangkok, Thailand, SIL International, Mahidol University, UNESCO, 6-8 November 2003.

Kurdcha - Til merosi Kurd tili, kurmanji va zaza kabi turli lahjalari bilan Turkiyada eng ko'p gapiriladigan ozchilik tillaridan biridir. Asosan janubi-sharqiy hududlarda jamlangan kurd tili kurd xalqining madaniy merosi va o'ziga xosligini o'zida mujassam etgan bo'lib, mamlakatning lingvistik mozaikasini boyitadi.

Arab tili - Arab dunyosi bilan tarixiy va madaniy aloqalar arab tilining Turkiyada so'zlashuvchi tillar orasida o'z o'rnini topishiga sabab bo'lgan. Suriya chegarasi bo'ylab va arab aholisi bo'lgan hududlarda yashovchi jamoalar tomonidan qo'llaniladigan arabcha, Turkiyaning madaniy merosini shakllantirgan madaniyatlararo aloqalar va ta'sirlar haqida hikoya qiladi.

Laz - Laz, kartvel tili, Turkiyaning shimoliy-sharqiy mintaqalarida, go'zal Qora dengiz sohillarida yashovchi lazlar tomonidan ishlatiladi. Laz tili nafaqat laz jamoasining madaniy an'alarini saqlab qolgan, balki Turkiyaning til xilma-xilligiga ham o'ziga xos jilo qo'shadi.

Cherkes - Shimoli-g'arbiy Kavkaz tillari oilasiga mansub cherkes tilida, asosan, Turkiyaning shimoli-sharqida yashovchi cherkes diasporasi ishlatiladi.

Arman tili - tarixiy meros. Turkiyadagi arman jamiyatining boy tarixiy merosini aks ettiruvchi arman tili Istanbul va armanlar yashaydigan boshqa hududlarda qo'llaniladi. Til o'zining boy madaniy merosiga ega hamda u mamlakatning ko'p madaniyatli o'tmishidan ham dalolat beradi.

Yunoncha - Istanbul, Go'kcheada va Bozcaadada to'plangan ozchilik yunonlar orasida so'zlashiladigan yunoncha Gretsiya va Turkiya o'rtasidagi tarixiy aloqalarning ramziy ifodasidir. Turkiyadagi yunon tili bir vaqtlar gullab-yashnagan ellinlar jamoasining barhayot merosini ifodalaydi.

Suriya - Suriya tili, sharqiy aramey tili, asosan Turkiyaning janubi-sharqida, xususan, Mardin va Shanliurfa viloyatlarida istiqomat qiluvchi suriyalik nasroniy jamiyati tomonidan ishlatiladi. Bu qadimiy til suriyalik jamiyatning donoligi va an'alarini o'zida mujassam etgan bo'lib, Turkiya chegaralaridagi jonli madaniy merosni namoyish etadi.

Gruzin, bolgar va hk.lar - Turkiyaning lisoniy manzarasi bolgar, gruzin va boshqa shu kabi tillarda so'zlashuvchi kichikroq jamoalarni ham qamrab oladi.

Turkiyada zamonaviy ko‘p tillilik yaqqol namoyon bo‘lsa-da, turk tili hukmron til bo‘lib qolmoqda va butun mamlakat bo‘ylab muloqotning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Turk tili rasmiy til sifatida millatni bir-biriga bog‘lab turadi va boshqaruv, ta‘lim va kundalik munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi³⁶. Turkiya Konstitutsiyasining 3-moddasida Turkiyaning rasmiy tili turk tili deb belgilangan. Konstitutsiyaning 42-moddasida esa ta‘lim muassasalarida turk fuqarolariga ona tili sifatida turk tilidan boshqa til o‘rgatilishi qat’iyan man etilgan³⁷.

“Har qanday ta‘lim yoki ta‘lim muassasasida turk fuqarolariga turk tilidan boshqa til ona tili sifatida o‘rgatilmaydi. Ta‘lim va ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan chet tillari hamda ta‘lim va ta‘limni chet tilida olib boruvchi maktablarda amal qilish qoidalari qonun bilan belgilanadi. Xalqaro shartnomalar qoidalari saqlanib qoladi”.

(Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi 42-modda)

Manbalarga ko‘ra, mazkur Konstitutsiyaning 42-moddasi va uning cheklovchi talqini tufayli Turkiyada uzoq vaqtdan beri etnik ozchiliklar o‘z ona tillaridan foydalanishda jiddiy cheklovlarga duch kelishmoqda.

2006-yilgi statistik ma‘lumotlarga ko‘ra Turkiya aholisining eng ko‘p qismi (84.54%) birinchi til sifatida turk tilidan, keyingi o‘rinda esa kurd tili(11.97%)dan foydalanadi. Boshqa tillarning ko‘rsatkichlari esa ancha past: masalan arab tili (1.38%), zazaki (1.01%) va hokazo.

Yuqoridagilarga qiyosan o‘zbek tili, uning ayni paytdagi mavqeyi hamda O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat va til siyosatiga nazar tashlasak, uning boshqa mamlakatlar sotsiolingvistikasidan ayrim tipologik o‘xshashlik va farqlilikga ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbekistonda ham yagona rasmiy til hukmron. Bu, shubhasiz, 1989-yil 21-oktyabrda “Davlat tili” maqomi berilgan o‘zbek tilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida:

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urfodatlari va

³⁶ <https://www.polilingua.com/blog/post/languages-spoken-in-turkey.htm>

³⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/Languages_of_Turkey#Statistics

an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.”- deb belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, mamlakatda barcha fuqarolarning qaysi til vakili ekanligidan qat'iy nazar (19-modda) bir xil huquq va erkinliklarga ega va qonun oldida tengligi, hamda 27-moddada belgilangan “Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart” qoidasi va 139-moddaga binoan “O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda yoxud qonunga muvofiq boshqa tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi” qoidalari O'zbekiston Respublikasida til erkinligi kafolatlanganligining, lingvistik diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligining qonuniy isbotidir. Qolaversa mamlakatda ta'lim olish tilini ham ixtiyoriy tanlash mumkin. Ushbu dalillardan kelib chiqib, O'zbekistonda davlat tili-o'zbek tilidan boshqa tillarga ham tolerantlik nuqtayi nazari bilan qaraladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. O'zbek tilining mavqeyini esa sotsiolingvistik mezonlar asosida ilmiy tadqiq qilib, globallashuv jarayonida o'zbek tili taraqqiyoti yuksalib borayotganligini asoslab bergan tilshunos olim Rafiqjon Zaripovning keltirgan ilmiy faktlari asosida ko'rsatib berishni lozim topdik. Unga ko'ra “o'zbek tili 0,7 foiz jahon aholisining so'zlashuv tili hisoblanib, hozirda ushbu tilda 50 millionga yaqin aholi muloqot qiladi. O'zbekistonning 80 % aholisi o'zbek tilini ona tili deb bilsa, mamlakat tashqarisida, O'rta Osiyo davlatlari hududida hamda jahonning turli mintaqalarida ushbu tilda muloqot qiluvchi ko'plab etnik guruhlar istiqomat qiladi. Shuningdek, o'zbek tili Afg'onistonning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi.”³⁸ Bundan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda olamning lisoniy manzarasida o'zbek tili o'ziga xos o'ringa ega va kun sayin nufuzi ortib bormoqda.

Mamlakatda yagona rasmiy til mavjudligi jihatidan O'zbekiston sotsiolingvistikasi yuqorida o'rganilgan bir nechta rasmiy tilga ega Belgiyadan, qat'iy

³⁸ Zaripov R. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluringvizm: f.f.f.d. ...diss. Avtoref. – Andijon, 2021. – B. 12-13.

bitta rasmiy til joriy etilmagan AQSh, Buyuk Britaniya va Xitoy sotsiolingvistikasidan butunlay farq qiladi. Fransiya va Turkiya sotsiolingvistikalari bilan esa o'xshashlik kasb etadi. Biroq o'zga tillarga bag'rikenglik nuqtayi nazari bilan qarash, ularni kamsitmaslik jihatidan esa aksincha, AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy til siyosati bilan biroz o'xshashsa, Turkiya va Fransiya olib borgan siyosatga teskari proporsiyani namoyon etadi. Shuningdek, Fransiyada standart fransuz tili uchun olib borilgan harakatlarni O'zbekistondagi adabiy tilni targ'ib etib, shevalar va dialektlarning qaysidir ma'noda biroz kamsitilayotgan holatlariga o'xshatish mumkin deb o'ylaymiz.

BOBGA DOIR XULOSALAR

1. Tilni sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish o'ta muhim. Negaki uning yaratuvchisi ham, isloh etuvchi va takomillashtiruvchisi ham, undan aloqa quroli sifatida foydalanib, olamda mavjudligini ta'minlovchisi ham insoniyat va jamiyatdir. Shunday ekan uni o'z yaratuvchilari va foydalanuvchilaridan ayro holda o'rganish mutlaqo imkonsiz.

2. Dunyo tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar va til siyosati masalalar keng ko'lamda, atroflicha o'rganilgan. Bunga izlanishlar chog'ida uchragan son-sanoqsiz manbalar va materiallarga guvoh bo'lgach yana bir karra amin bo'lindi.

3. O'zbek tilshunosligida esa sotsiolingvistik tadqiqotlar salmog'i ancha kam. Til siyosati, tilni planlashtirish yoki mamlakatdagi mavjud lisoniy vaziyat deyarli tadqiq etilmagan. Yoki katta-kichik maqolalar, ayrim konferensiyalar materiallari orasida ko'zga tashlanadigan tezislarni hisobga olmaganda, yaxlit planda yaqin yillar oralig'ida o'rganilmagan.

4. O'zbekiston aholisi orasida tilga bog'liq siyosat va unga munosabat ancha mo'tadil. Ya'ni mamlakatda yuritilayotgan til siyosatiga noroziliklar va keskin qarshiliklar ko'zga tashlanmaydi. Aholining davlat tilida so'zlashuvchi katta qismidan tashqari, o'zga tilli fuqarolar ham davlat tilidan hamin qadar xabardor. Ayrim joylarda esa ularning tillari o'zaro muloqot vositasi sifatidagi o'rnini ham o'zbek tiliga bo'shatib beryapti.

II BOB. O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI: O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZINI KO‘TARISHGA DOIR HARAKATLARNING TADRIJIY RIVOJI

2.1. O‘rta asrlarda o‘zbek tilining nufuzi va uni oshirishga bo‘lgan harakatlar

O‘zbek tilining bugungi kundagi mavqeyini va mustaqillikdan keyingi yillarda yurtimizdagi lisoniy vaziyat va olib borilayotgan til siyosatini tadqiq etishni niyat qilgan tilshunos, shubhasiz, ishni mustaqillikkacha ham bo‘lgan til tarixini o‘rganishdan boshlaydi. Shu maqsadda o‘zbek tili tarixiga doir manbalar bilan tanishish barobarida bu mavzuda juda ko‘p zabardast tilshunoslar ish olib borganiga guvoh bo‘lamiz. Ular tomonidan talaygina tadqiqot ishlari va manbalar yozilganiga qaramasdan hali bu borada yaxlit holdagi yoki mukammal darajadagi yangicha talqinda yozilgan ilmiy tadqiqot ishi yetarli emas deb hisoblaydi tilshunos U.Sanaqulov³⁹. “O‘zbek tili tarixi, asosan, o‘zbek xalqiga tegishli yozma manbalar tili faktlari, qisman, umumturkiy til yozma manbalari hamda xalq og‘zaki ijodi til materiallari asosida belgilanadi. Bu manbalarning yaratilish tarixi esa uzoq davrlar bilan o‘lchanadi”⁴⁰. Shu bois ham uni davrlar kesimida tasniflab tahlil qilish ancha qulay.

Manbalarga tayanadigan bo‘lsak, hatto Ilk O‘rta asrlar(IV asr oxiridan-IX asr o‘rtalarigacha)da ham o‘zbek tilining nufuzi yaxshigina baland bo‘lgan. G‘.Abdurahmonov tasnifiga ko‘ra Qadimgi turkiy adabiy tili(VI-X asrlar) deb ataladigan tilimizning bu davriga doir juda ko‘p yodgorliklar topib o‘rganilganligi fikrimizning isbotidir. Bu manbalar turkiy run xatida bitilgan O‘rxun-Enasoy yodgorliklari nomi bilan mashhur ekanligini yaxshi bilamiz. Keyingi ya’ni rivojlangan O‘rta asrlarda (ya’ni IX asr oxiridan XV asr boshlarigacha bo‘lgan davr) esa o‘zbek tilining yanada taraqqiy etganini ko‘rishimiz mumkin. Tarixiy manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Turonda IX asrdan boshlab yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi. X asr oxiriga kelib, ichki ziddiyatlar va sulolaviy kurashlar natijasida zaiflashib qolgan Somoniylar sulolasining boshqaruvi turkiy

³⁹ U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. T.; “G‘afur G‘ulom”, 2004. - B. 5.

⁴⁰ O‘sha manba, - B. 6.

Qoraxoniylarning zarbalari natijasida quladi. Bu davrda umumelat tili qaror topdi⁴¹. Agar Somoniylar va G‘aznaviylar davrida adabiy asarlar asosan arab va fors tillarida bitilgan bo‘lsa, Qoraxoniylar davrida turkiy tilning adabiy til sifatidagi mavqeyi ancha oshdi. Turkiy tilda dastlabki ilmiy asarlar paydo bo‘ldi⁴². Qoraxoniylar davridan mintaqada turkiy tildagi joy nomlari ham keng tarqaldi, so‘g‘diy aholi tili turkiy til bilan birga qo‘llandi. Biroq so‘g‘diy til sekin-asta turkiy tilga o‘z o‘rnini bo‘shatib bera boshladi. So‘g‘diylar va boshqa mahalliy xalqlarda ham turkiylashish jarayoni kuchaydi⁴³.

XI asrga kelib tildagi turli farqlanishlarga ega bo‘lgan shaharliklar va qabilalar o‘rtasidagi munosabatning kuchayishi tilda ma’lum me’yorlarni yaratish ehtiyojini yuzaga keltirdi⁴⁴. Jamiyat taraqqiyoti, adabiyot, ilm-fan rivoji ko‘p jihatdan, asosan, adabiy tilning taraqqiy etishiga bog‘liq edi. Natijada Mahmud Koshg‘ariy tarixdagi birinchi turkiy tillar lug‘ati “Turkiy so‘zlar devoni” (“Devonu lug‘otit turk”) asarini yaratib, turkiy xalqlar tilining birinchi tadqiqotchisiga aylandi. Mazkur davrda ham ilmiy asarlarni arab tilida yozish an‘anasi davom etganligi sababli Koshg‘ariy o‘sha vaqtda turkiy qabilalarning jonli tilida keng qo‘llangan, iste’moldagi olti mingdan ortiq so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini arab tilida bayon etdi. Mazkur kitob arablarga turkiy tilni o‘rgatish maqsadida ham yozilgan. Bundan tashqari, asarda Qoraxoniylar davlat boshqaruviga oid atamalar, unvon va darajalarni ifodalovchi so‘zlar ham berilgan. Qoshg‘ariy O‘rta Chinda yashagan turkiy tilli xalq xitoy (qiton)larning Qoraxoniylar xoniga turkiy tilda xat yozgani to‘g‘risida ham ma’lumot bergan. Bundan tashqari, Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ („Saodatga yo‘llovchi bilim“), Ahmad Yugnakiyning „Hibatul haqoyiq“ („Haqiqatlar armug‘oni“), Xorazmiyning „Muhabbatnoma“, Rabg‘uziyning „Qissai Rabg‘uziy“ asarlari shu davrda yaratilgan bo‘lib, ularning tili davriy nuqtayi nazardan eski turkiy til deb ataladi va XI-XIII

⁴¹ Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 93.

⁴² Гафуров Ф. Шарқ жавоҳирлари. Бадиалар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 11.

⁴³ Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 92.

⁴⁴ Зинатуллаев З. Махмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари, унинг яратилиши ва манбалари // ЎЗМУ хабарлари. 2014. 3-сон. – Б. 82.

asrlarga to‘g‘ri keladi⁴⁵. Yuqoridagi asarlar umuminsoniy ahamiyatga molik, insoniyat tamadduni gulto‘ji bo‘lgan durdona asarlar hisoblanadi hamda *Xoqoniya* nomini olgan Qoraxoniylar davlati adabiy tilida ya‘ni eski turkiy tilda yozilgani bilan o‘sha davrda o‘zbek tilining nufuzini namoyon etuvchi qimmatli dalildir. Turkiy tilning nufuzi Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida ulkan mamlakatning adabiy tili sifatida nufuzi baland bo‘lgan. Biroq Somoniylar davrida hukmdorlar fors tili va forsiy adabiyotga ishtiyoqmand bo‘lishgan. Shunga qaramay, Somoniylar buyurtmasiga ko‘ra X asrda hatto Islom olamining eng muqaddas kitobi Qur‘oni Karim turkiy tilga tarjima qilingan. Garchi asl nusxasi saqlanib qolmagan bo‘lsada, bizgacha uning XII va XIII asrlarda ko‘chirilgan nusxalari yetib kelgan⁴⁶. Bu tarixiy faktlar ham o‘zbek tilining o‘rta asrlardagi mavqeyini yaqqol ko‘rsatib bermoqda.

IX – XII asrlarda Movarounnahrda asosan turkiy, arab va fors tillari amalda keng qo‘llanilar edi. Aholining ziyoli qatlami bu tillardan bimalol foydalanib, ijod qilar edilar⁴⁷. Boshqa musulmon o‘lkalarida bo‘lgani singari Turonda faoliyat yuritgan rasmiy idoralar hujjatlar rasmiylashtirilishiga alohida ahamiyat qaratganlar. Tuzilgan davri, vaqti, uni tuzgan shaxs aniq ko‘rsatilgan va guvohlantirilgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy ma‘lumotlarni o‘zida ifoda etgan vasiqalar, vaqfnomalar, tarxon yorliqlari va boshqalar tarixiy-huquqiy hujjatlar sirasiga kiradi. Tarixiy hujjat tadqiq etilganda u mansub bo‘lgan davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, huquq manbalari, ish yuritish tartibi, hujjatlarni rasmiylashtirish va ijro etish bo‘yicha amaliy ma‘lumotlar to‘planadi.

X – XIII asrlarda Movarounnahrda muhrlarda turkiy, arabiy, forsiy tillardan olingan “amir”, “qutlug‘”, “xoqon” kabi so‘zlar yoki sultonning ismi sharifini va u egalik qilayotgan hudud nomi va shunga o‘xshash so‘zlar o‘yib yozilgan. Til nuqtayi nazaridan ushbu so‘z va iboralar arab, fors turkiy tillarda bitilgan. Masalan, bu davrda qozilik mahkamalarida ham hujjatlarning haqiqiyliги, huquqiy kuchga ega ekanligi tang‘a, muhr, nishonlar bilan qonuniylashtirilgan. Mazkur davr Turon hujjatshunoslik

⁴⁵ infografikauz.blogspot.com. O‘zbek tili tarixi.

⁴⁶ K.Sh.Sirojiddin o‘g‘li. Markaziy osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar. (qo‘lyozma huquqida) - Toshkent, 2019. - B. 97.

⁴⁷ Буюк истеъдод соҳиблари / Тузувчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи М.М. Хайруллаев. – Тошкент: Адолат, 2002.

an'alarida o'sha davr uchun rasmiy til vazifasini bajargan arab tili matnlarining turkiylashish-forsiylashish holatlari ko'zga tashlanadi. Masalan, muborak– qutlug', a'zam – buyuk, ibn – o'g'li, kitaba – bitig kabi so'zlar yonma-yon ishlatilganini ko'rish mumkin. X – XIII asrlarda qozilik hujjatlari fors tilida yuritilib, guvohlarning ko'rsatmalari ham o'sha davrdagi rasmiy til hisoblangan fors tilida yozilgan. Abulhasan Ali Movardiyning "Ahkom as-sultoniya va-l-valoyot ad-diniya" ("Davlatchilik qonunlari va shar'iy boshqaruvlar") asarida davlat boshlig'i bo'lishga munosib kishilardan talab etiladigan yettita asosiy shart sanab o'tilgan. Mazkur shartlarning uchinchisida davlat boshlig'ining qulog'i, ko'zi, tili kabi tana a'zolari sog'lom bo'lishi zarurligi qayd etilgan⁴⁸. Albatta, har bir hukmdor o'zining davlat boshqaruviga oid vakolat va majburiyatlarini bajara olishi uchun boshqa tana a'zolari qatori nafaqat tilining nuqsonsizligi, balki nuktadonligi ham alohida o'rin tutgan. Zero, beshinchi shartda qayd etilgan davlat va jamiyatni boshqarish, xalqning xohish irodasini idrok etishga qodir bilim sohib bo'lish uchun ham tafakkur va nutq uyg'unligini talab etiladi.

Anushteginiylar sulolasi boshqaruvida vazirlar muhim o'rin tutib, bu lavozimdagi shaxslar asosan arab-fors mansabdorlari muhitiga mansub kishilar bo'lgan. Ular ma'muriy ishlarga layoqatli bo'lishdan tashqari arab hamda fors tillarini, saroy tartib-qoidalarini bilishlari shart bo'lgan⁴⁹. Anushteginiylar sulolasi va keyingi davrda turkiyda yozilgan asarlarning tili bugungi kunda xorazm turkchasi deb nomlanadi. Plano-Karpinining shohidligiga ko'ra, XIII asrdayoq turkiy til xorazmliklar o'rtasida hukmron til bo'lib qolgan.

Ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, Turondagi xorazm turkiysi deb nomlangan qang'li-qipchoq unsurli turkiy til XIII asrda Misr mamluklar davlatining arab tilidan so'ng ikkinchi tiliga aylandi. Birinchi mamluk sultonlari (bahriylar) eski turkiy tilning qipchoq shevasida so'zlashar edilar. Devonxonalarda ham shu til muomalada bo'ldi. Bu til hozirgi o'zbek tiliga ancha yaqin bo'lgan. Bu davrda Misrda turkiy tilni o'rganishga alohida e'tibor berilib, til grammatikasi va lug'aviy boyligini o'rganishga bag'ishlangan

⁴⁸ Жўраев З.М. Ўзбекистон давлатчилиги ўрта асрлар тарихига оид муҳим манбаларидан бири Фазлуллоҳ ибн Рўзбехоннинг "Сулук-ул-мулук" асари ва қиёсий таҳлил учун Мовардийнинг "Аҳком" асари // ЎЗМУ хабарлари. 2011. 4/1-сон. 152-б.

⁴⁹ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 226.

asarlar yaratildi. Xorazm turkiysi Misrda XV – XVI asrlargacha rivojlandi. Mamluklar davlatida muomalada bo‘lgan mamluk-qipchoq hujjatlarida Xorazm shevasiga xos bo‘lgan so‘zlar mavjudligi aniqlangan.

Istilodan so‘ng mo‘g‘ullar eski uyg‘ur-turkiy yozuvi asosida mo‘g‘ul yozuvini shakllantirdilar. Turonga kelib o‘rnashgan va o‘troqlashgan mo‘g‘ul zodagonlari turkiy tildan saroy tili hamda jonli so‘zlashuv tili sifatida foydalana boshladilar. Chingiziy hukmdorlarning farmonlari, har qanday hujjatlari ommaga turkiy tilda yetkazildi. Hali davlatchilik an‘anasi, ish yuritish tizimi shakllanmagan mo‘g‘ullar devonxona tashkil etishni Turon xalqlaridan o‘rgandilar⁵⁰. Chingizxon tomonidan o‘g‘li Chig‘atoyga idora etish uchun topshirilgan hududlar qo‘shni xalqlar, ko‘proq eronliklar tomonidan Chig‘atoy ulusi deb atala boshlandi. Ushbu Chig‘atoy ulusida ishlatilgan turkiy xalqlar milliy adabiy tilini ham shu hudud nomiga nisbat berib “chig‘atoy tili” deb atay boshladilar. Shu tariqa bu atama eronliklar orqali Yevropaga ko‘chib, “chig‘atoy tili” nomi tarixiy adabiyotlarga o‘rnashdi⁵¹.

XIII – XIV asrlarda Chig‘atoy ulusida zarb etilgan tangalardagi yozuvlar arab imlosi va tilida, ba‘zan esa mo‘g‘ul tilida uyg‘ur imlosida bitilgan. XIII asrda Samarqandda so‘qilgan dirhamlarda arab imlosidagi turkiy va forsiy tillardagi yozuvlar ham uchraydi. XIII asrda Buxoroda xitoylik noib hukmronlik qilgani sababli bu davr Buxoro tangalarida xitoy iyerogliflari ham uchraydi. XIII – XIV asrlarda Xorazm adabiy muhitida aksariyat adib va shoirlar ikki tilda – turkiy va forsiy tillarda ijod qilganlar. Ularning ba‘zilari ko‘proq turkiy tilda ijod qilib, ba‘zi asarlarini forsiy tilda yaratganlar. Shu o‘rinda qayd etish joizki, Oltin O‘rdaning adabiy tili va adabiyotini yaratishda Xorazm muhim ahamiyat kasb etgan. Bu yerda yaratilgan bir necha badiiy asarlarning tili Xorazm va Sirdaryoning quyi oqimidagi shaharlar til unsurlari bilan bevosita bog‘lanish mavjud bo‘lganini namoyon etadi. Bu hududlar nafaqat Oltin O‘rda aholisining so‘zlashuv tiliga, balki yozuviga ham ta‘sir ko‘rsatgan. Rivojlangan O‘rta asrlarning so‘nggida ya‘ni Temuriylar davrida esa tilimiz nufuzini oshirish uchun ulkan

⁵⁰ Курбанниязов М. Олтин Ўрда адабий мухити ва Рабғузий ижоди // ЎзМУ хабарлари. 2015. 3/1-сон. – Б. 182.

⁵¹ Атаниязова М. Олим Шарафиддинов – Навоий ижодиниг тадқиқотчиси. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 33-34.

ishlar olib borildi. Shuni aytish kerakki, Arabcha, forsha soʻz va iboralarning koʻplab qoʻllanishi va uslubiy vositalar sababli kitobiy til jonli tildan jiddiy farq qilgan. Yozma adabiyotning kam tarqalganligi tufayli lahja xususiyatlari saqlanib qolgan. Bunday xususiyatlar adabiy asarlarda ham maʼlum darajada oʻz aksini topgan. Fargʻona va Movarounnahrda yozilgan adabiy asarlar tili bilan Xorazmda yozilgan adabiy asarlar tili oʻrtasida maʼlum lahjaviy farqlar sezilib turgan.

Eski oʻzbek tilining ilk shakllanish davrida (XIII-XIV asrlar) bu narsa yaqqol koʻrinar edi, keyinchalik esa bunday lahjaviy xususiyatlar aralashib ketadi. Masalan, Xorazmiyning «Muhabbatnoma» va Said Ahmadning «Taashshuqnoma» asarlarida oʻgʻuz lahjasi xususiyatlari, Qutbning «Xusrav va Shirin» asarida qipchoq lahjasi xususiyati oʻz aksini topgan boʻlsa, XVI asrga oid «Boburnoma»da qarluq, oʻgʻuz va qipchoq lahjalarining xususiyatlari aralash holda qoʻllangan. Shu tariqa lahja xususiyatlari asta-sekin yoʻqola borib, XV-XVI asrlarda yagona, umumiy adabiy til xususiyatlari asosiy oʻrinni egallaydi⁵². Bu oʻzbek tili nufuzi va taraqqiyotida katta oʻzgarish boʻldi degani edi.

Eski oʻzbek tili, ayniqsa, Alisher Navoiy davrida, uning asarlarida oʻz rivojining eng yuqori pogʻonasiga koʻtarildi. Shoir oʻzining oʻnlab nazmiy va nasriy asarlari bilan bu tilni kamolotga yetkazdi, uni davlat tili darajasiga olib chiqishga harakat qildi. U nafaqat oʻsha va keyingi davrlar oʻzbek adabiy tilining asoschisi, rivojlantiruvchisi, balki tadqiqotchisi hamdir. Navoiy oʻzining «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarida Eski oʻzbek tili (turkiy)ni fors tiliga qiyoslash asosida uning fonetik, leksik va grammatik sohalarda rivojlangan til ekanligini nazariy jihatdan asoslab, koʻrsatib beradi. Shuningdek, Alisher Navoiy mazkur asarida tilning ijtimoiy xususiyatini koʻrsatib beradi, uning madaniyat va maʼrifatning rivojiga xizmat qilishini alohida takidlaydi. Uning fikricha, til doim rivojlanib boradi, 155turli tillar bir-biriga taʼsir koʻrsatadi va shu yoʻl bilan muntazam boyib boradi. Adib oʻzbek tilini himoya qilishga, uni har xil taʼnakamsitishlardan qutqarishga, oʻzbek tilining lugʻat boyligi turli badiiy asarlar yaratish imkoniyatiga ega ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

⁵² milliycha.uz sayti. “Eski oʻzbek tili” maqolasi.

Asar turkiy (o‘zbek) tilning ijtimoiy hayotdagi mavqeini ko‘tarish, uning bir necha asrlardan beri turkiy xalqlarning ta’lim va adabiyot sohalarida yetakchi maqomda bo‘lib kelgan forsiy tildan aslo qolishmasligini, undan so‘z borasida boyroq va yangi so‘z yasash imkoniyatlari kengroq ekanligini dalillash, turkiy tilli shoirlarni o‘z ona tili, ya’ni turkiy (o‘zbek) tilda ijod qilishga undash maqsadida yozilgan. Navoiyning aytmoqchi bo‘lgani, ayrim turkiy tilli shoirlarning ona tilida emas, ko‘proq forsiyda ijod qilishni ma’qul ko‘rganligining sababi, turkiyning boy va cheksiz imkoniyatlarini bilmagani, undan foydalana olmasliklaridir ⁵³. Hazrat Navoiyning tilimiz va tilshunosligimiz rivojidagi hissasi benihoyat katta. Bu haqida Yoqub Saidovning “O‘zbek adabiy tili tarixi” o‘quv qo‘llanmasida ham atroflicha ma’lumotlar keltirilgan⁵⁴.

Hazrat Alisher Navoiy ona tilimizni (tarixiy manbalarda u “Chig‘atoy tili” deb ataladi) “Turk nazmi” deb atab uni nafaqat badiiy adabiyot tili, balki butun mamlakat uchun yagona rasmiy tilga aylantirishga uringan. Uning sa’y-harakatlari va taklifi bilan Husayn Boyqaro barcha shoirlarni turkiy tilda ijod qilishga chaqirgan. Alisher Navoiyning bu sohadagi katta xizmatlaridan yana biri shundan iboratki, u juda katta hududdagi tarqoq adabiy tilni uslub jihatidan ham, tarkib jihatdan ham birlashtirdi va shu katta hududdagi shevalar, lahjalar va ayrim tillardagi asosiy xususiyatlarni o‘zining badiiyamaliy faoliyati bilan yagona umumiy til darajasiga keltirdi, adabiy tilni sayqallashtirdi, uni keng ko‘lamga va yangi bosqichga olib chiqdi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, Alisher Navoiy qo‘llagan til uzoq yillar davomida faqat o‘zbeklar uchungina emas, balki yon atrofundagi boshqa turkiy xalqlar uchun ham adabiy til sifatida xizmat qilib kelganligini faxr bilan qayd etib o‘tishimiz lozim bo‘ladi⁵⁵.

Boburning nasriy asari «Boburnoma» esa Navoiyning nasriy asarlaridan tilining ancha soddaligi, jonli tilga yaqinligi bilan hatto hozirgi zamon o‘quvchisiga ham tushunarlidir. Alisher Navoiydan keyin yaratilgan nasriy asarlar va ayrim dostonlarda Eski o‘zbek tilining an’anaviy me’yorlaridan biroz uzoqlashish, uni xalq tiliga

⁵³ Содиқов Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 39.

⁵⁴ Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi / O‘quv qo‘llanma. – Buxoro.; “Durdona”, 2019. – B. 143-161.

⁵⁵ U.Sanaqulov. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. T.; “G‘afur G‘ulom”, 2004. - B. 238.

yaqinlashtirish tamoyili kuzatiladi. Ko‘plab she‘riy asarlarda, g‘azallarda esa eski o‘zbek adabiy tili an‘analari davom etgan. Xulosa qilib O‘rta asrlarda ham o‘zbek tilining nufuzi ancha yuqori bo‘lgan ekan va uni oshirish uchun talaygina muhim va ulkan ishlar amalga oshirilgan deb bermalol ayta olamiz

2.2. Bir tilli, ikki tilli va ko‘p tilli eski o‘zbek lug‘atlarida o‘zbek tilining nufuziga doir qarashlarning ifodasi

Har qanday tilning naqadar boyligi, eng avvalo, uning leksik fondida ko‘rinadi. Chunki tilning lug‘at tarkibi qanchalik xilma-xil va boy bo‘lsa, so‘zlovchiga eng nozik ma‘no qirralarini ham aniq ifodalay olish imkoniyatini beradi. Bu xil-ma xillik esa har bir tilning leksikografiyasida ya‘ni lug‘atshunosligi va lug‘atlarida o‘z aksini topadi. O‘zbek tili, shubhasiz, juda boy va maftunkor tildir. Bunga tilimizdagi bir tilli, ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarning bir qanchasiga nazar solish va tahlil qilish asnosida guvoh bo‘lamiz.

Avvalo, ishni buyuk tilshunos olim, etnograf, leksikograf Mahmud Koshg‘ariy va uning bizgacha yetib kelgan “Devonu lug‘atit turk” asari haqida fikr yuritishdan boshlaymiz. Ushbu asarida olim turkshunoslikda birinchi bor qadimgi turk lahjalarini klassifikasiya qildi, turk tilshunosligining muhim nazariy masalalarini yoritib berdi. “Devonu lug‘atit turk” ikki – muqaddima va lug‘at bo‘limlaridan tuzilgan. Muqaddimada kitobning yozilish sabablari, uning tuzilishi; turklar qo‘llaydigan yozuv; otlarning yasalishi; fe’llarning tuslanishi; so‘z tarkibi (morfem tuzilishi); kitobda berilgan grammatik qoidalar; turk tabaqalarining ta‘rifi va ularning yerlashuvi; turk lahjalari orasidagi o‘zgachaliklar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shu o‘rinda Yer tuzilishi (sharqiy yarim-shar) xaritasi ham ilova qilingan.

Lug‘at quyidagi sakkiz bo‘limdan iborat:

1. Hamzali so‘zlar, ya‘ni “alif” bilan boshlanadigan so‘zlar bo‘limi.
2. Solim, ya‘ni “alif”, “vav”, “ya” harflari bo‘lmagan so‘zlar bo‘limi.
3. Muzoaf, ya‘ni undoshlari ikkilanadigan so‘zlar bo‘limi.
4. Misol, ya‘ni tarkibida “alif”, “vav”, “ya” bo‘lgan so‘zlar bo‘limi.

5. Zavatu-s-salasa (uch harfli soʻzlar), yaʼni “alif”, “vav”, “ya” harflari qisqa unli sifatida oʻqiladigan soʻzlar boʻlimi.

6. Zavatu-l-arbaʼa (toʻrt harfli soʻzlar), yaʼni “alif”, “vav”, “ya” qisqa talaffuz qilinadigan soʻzlar boʻlimi.

7. Gʻunnalilar, yaʼni tarkibida burun (dumogʻ) tovushlari kelgan soʻzlar boʻlimi.

8. Al-jamʼ baynas-sakinayi, yaʼni harakatsiz ikki undoshli soʻzlar boʻlimi.

Har bir bob ism va feʼllardan iborat ikki qismga ajratilgan.

Tilshunoslik tarixida xorazmlik olim Mahmud Zamaxshariyning ham ulushi ulugʻ. Turkshunoslikda uning “Muqaddamatu-l-adab” asari shuhrat qozongan.

“Muqaddamatu-l-adab” (“Adab muqaddimasi”) – arab tili leksikologiyasi va grammatikasiga bagʻishlangan asar. Kitob muqaddima, ismlar boʻlimi, feʼllar, harflar (yordamchi soʻzlar), ismlarning turlanishi, feʼllarning tuslanishi boʻlimlaridan tuzilgan. Shulardan ismlar va feʼllar qismi lugʻat boʻlib, qolgan boʻlimlar grammatikaga tegishli. “Muqaddamatu-l-adab”ning lugʻat boʻlimi (yaʼni ismlar va feʼllar qismi) koʻp tillidir. Tartibga koʻra, lugʻatda avval arabcha soʻz keltiriladi, soʻng boshqa tillarda – forscha, turkiy, moʻgʻulcha, baʼzan qadimgi xorazmiy tilida uning tarjimasi, maʼnosi beriladi. Yana bir jihati, asarning mavjud qoʻlyozmalarida soʻzliklarning berilishi turlicha: asar nusxalari ikki tilli (arabcha forscha, arabcha-turkiy, arabcha-xorazmiy), uch tilli (arabcha-forscha-turkiy), toʻrt tilli (arabcha-forscha-turkiymoʻgʻulcha) variantlarda tarqalgan. “Muqaddamatul-adab” koʻp variantda tarqalgan. Tabiiyki, bu oʻrinda asarning lugʻat boʻlimlari (ismlar va feʼllar) ilk variantda qanday koʻrinishda edi, degan soʻroq tugʻiladi.

Olimlar, muallif asarning lugʻat qismini ikki tilda (arabchaforscha) tuzgan; turkiy va moʻgʻulchasini kotiblar keyinchalik qoʻshganlar, deb biladilar. Bizningcha, bu fikr toʻgʻri emas. Buni rad etuvchi dalillar ham bor. Chunki turkiy soʻzlik kiritilgan variantlarining ayrimlari juda eski. Yana bir jihati, asarning nodir nusxalarida keltirilgan turkiy soʻzlik ancha eski tilni aks ettirmoqda. Ushbu nusxalarni koʻchiruv chogʻida turkiy soʻzlikka alohida eʼtibor qaratilgan: baʼzi qoʻlyozmalardagi turkiy soʻzlik qizilda. Mavjud nusxalarning bunday belgilari tubandagi xulosaga olib keladi. Chamasi, muallif mazkur asarini ikki qayta yozgan, toʻgʻrirogʻi bir yozib, keyin

to'ldirish kiritgan. Asarni besh bo'limli qilib tuzgan. Bu ilk variantining lug'at qismi chamasi ikki tilli edi: arabcha so'zlar xorazmcha tarjimasi bilan keltirilgan. Bu bilan yerli xalqning ehtiyoji ko'zda tutilgan. Keyingi variantlarga xorazmcha so'zlikning kiritilganligi dargumon. Sababi, XIII asrdan xorazm tili asta-sekin iste'moldan chiqib, o'lik tilga aylana boshlagan edi. Keyinchalik Xorazm davlatining siyosiy-ijtimoiy talabidan kelib chiqib muallif asarning lug'at qismini qayta ishlab takomillashtirgan: uni ko'p tilli lug'atga aylantirgan. Muallif tomonidan qayta ishlangan ana shu ikkinchi variantda turkiy so'zlik ham bor edi. Keyingi asrlarda vujudga kelgan variantlar muallifning o'sha birinchi yoki keyingi – ko'p tilli variantiga asoslangan ko'rinadi. Asarning arabcha-xorazmcha lug'at shaklidagi qo'lyozma nusxasi ilk variantga asoslangan bo'lsa ehtimol. Lekin asarning fanda ma'lum bo'lgan boshqa nusxalari ikkinchi – ko'p variantli nusxadan urchigan ko'rinadi. Keyingi asrlarda asar ko'chirilayotgan yurtning madaniy, siyosiy-ijtimoiy talablaridan kelib chiqib, uning yangi-yangi variantlari yuzaga kela boshlagan. Turkiy muhitda ko'chirilgan nusxalarida turkiy so'zlik saqlangan, forsiyzabon muhit uchun mo'ljallanganlarida turkiysi tushirib qoldirilgan. Britaniya muzeyida, o'rni bilan, yunoncha tarjimasi berilgan nusxasi ham bor. Bu esa asarning Yevropa mamlakatlarida tarqalishi va o'rganilishi bilan bog'liq hodisadir. O'sha o'lkalarda yashovchilar talabidan kelib chiqib, undagi lug'at yunonchada izohlangan. Turkiy tillarni o'rganish bo'yicha arab tilida, keyinchalik fors va turkiy tillarda yaratilgan barcha lug'at va grammatikalar tilshunoslikning ana shu metod va usullarida yaratildi.

Tilshunosligimiz tarixida XIV asr ham yuksalish davri sanaladi. Turkshunoslikda arab tilshunosligi metod va usullarining sobit qolishida, ayniqsa, arab mamlakatlarida turkiy tilni o'rganish bo'yicha tuzilgan qo'llanmalarining ahamiyati katta. Mamluklar davlatida (1250–1517), davlat turk sultonlarning ilgida ekanligida turkiy tilga e'tibor katta edi. Bu kezlarda arablarning turkiy tilni o'rganishlari uchun grammatik asarlar va lug'atlar, turli qo'llanmalar yaratilgan. O'sha zamonlarda Abu Hayyon va Ibn Muhanna singari tilshunoslar yashab ijod etgan. Arablarga turkiy tilni o'rgatish uchun yozilgan asarlardan biri “Kitob-i majmu-i tarjumon-i turkiy va ajamiy va mug'aliy”dir (buni qisqacha “Kitob-i tarjumon-i turkiy” deb ataladi). “Kitob-i tarjumon-i turkiy” arabcha-

turkiy va mo‘g‘ulcha-forscha so‘zlik bo‘limlaridan tuzilgan. Asarning turkiy grammatikaga bag‘ishlangan bo‘limi kirish va to‘rt qismdan iborat. Kirish qismida hamdala, kitobning yozilish sababi va turkiy tilning fonetik o‘zgachaliklari to‘g‘risida so‘z boradi. Birinchi qism 26 bo‘limli so‘zlikdir. Qo‘llanmaning qolgan qismlari turkiy tilning grammatik qoidalariga bag‘ishlangan. Arab tilida yaratilgan qo‘llanmalardan yana biri yozuvchisining oti ma‘lum bo‘lmagan “Attuhfatu-z-zakiyatu fillug‘atit turkiya” (“Turkiy tillar haqida noyob tuhfa”) asaridir. Kitob “qipchoq tili” grammatikasiga bag‘ishlangan. Uning bituvchisi bu xususda: “Men bu asarda qipchoq tiliga asoslandim. Chunki eng ko‘p qo‘llanadigan til qipchoq tilidir. Turkman tilini bu ishda bayon qilmadim. Faqat juda zarurat bo‘lgandagina ko‘rsatdim,” – deb yozgan edi. Bu asar ham kirish, arabcha-turkiy so‘zlik, grammatik qoidalar bo‘limidan iborat.

XV–XVI asrlarning tilshunosligida Alisher Navoiyning xizmati buyuk. U turkiy va forsiy qiyosiy o‘rganish asosiga qurilgan “Muhokamatu-l-lug‘atayn” asari bilan tilshunoslikda tipologiya sohasiga asos soldi. O‘sha davr tilshunosligida Zahiriddin Muhammad Boburning xizmati ham katta. Uning tilshunoslikdagi ulug‘ xizmati “Xatt-i boburiy”da o‘z aksini topgan. Muhammad Shayboniy ham turkiy til grammatikasi to‘g‘risida qo‘llanma yozganligi ma‘lum. Biroq asar kunimizga qadar saqlangan emas. Hasanxoja Nisoriy o‘zining “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Shayboniyxon haqida ma‘lumot berar ekan, yozadi: Deydilarki, xon Hazora qal‘asi fathiga otlanganda bir g‘azal bitib, Hiri shayxu-l-islomi va Qozi Ixtiyorga yuboribdi... Qozi Ixtiyor turkiy tilni bilmas ekan, uning uchun turkiy til qonun-qoidalari kitobini bitib yuboribdi. Ushbu ma‘lumotlarga qaraganda, Shayboniyning turkiy tilga bag‘ishlangan ushbu kitobi forsiyda bitilgan.

XV–XVI yuzyilliklardan boshlab eski o‘zbek tilini (“chig‘atoy turkchasi”ni), xususan, Alisher Navoiy asarlarini chuqur o‘rganish istagida lug‘at va grammatik asarlar yaratila boshladi. Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan birinchi lug‘at “Badoyiu-l-lug‘at” deb ataladi. Uni sulton Husayn Boyqaroning buyrug‘iga ko‘ra chamasi 1500-yili Toli Imoniy tuzgan. Lug‘atda Navoiy asarlarida qo‘llangan turkiy so‘zlar fors tilida izohlanadi. Har bir so‘zning tovush tuzilishi, uning ma‘nosi, grammatik xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. So‘z ma‘nolarini ochiq qilmoq uchun Navoiydan baytlar

keltirilgan. XVI asr lugʻatlaridan yana biri Rajab ibn Muhib Ali Shomluning “Lugʻat-i Navoiy” asaridir. U chigʻatoychaturkcha lugʻat boʻlib, Navoiy asarlarida qoʻllangan mingga yaqin soʻzning izohi keltirilgan. Eski oʻzbek tilida yaratilgan lugʻatlardan yana biri “Abushqa” deb ataladi. Oti aslida bunday emas. Lugʻatning ilk soʻziga asoslanib, uni shunday atab ketilgan. Lugʻatning muallifi Mustaf bin Sodiqdir. Lugʻat soʻzlari turkiyda izohlangan. Uning tuzilgan davri nomaʼlum. Hozir Venada saqlanayotgan eng eski qoʻlyozmasi 1552 yili koʻchirilgan. Shunga asoslanib, ushbu lugʻat XVI asr boshlarida tuzilgan deyish mumkin.

Lugʻat tuzgan olimlardan yana biri Fazlullaxondir. Uning asari “Lugʻat-i turkiy” deb ataladi. Mazkur lugʻat Hindistonda Shoh Jahonning oʻgʻli Avrangzeb buyrugʻi bilan tuzilgan. Alisher Navoiy asarlari boʻyicha tuzilgan boshqa bir lugʻat Mirza Maxdixonning “Sangloh”idir. Kitob forsiyzabon oʻquvchiga moʻljallangan boʻlib, Navoiy asarlaridagi maʼnosini topish qiyin boʻlgan soʻzlar jamlangan. Shundan kelib chiqib, Mirza Maxdixon uni “Sangloh” deb atagan edi (maʼnosi “toshloq yer” degani). Lugʻatda Navoiy asarlaridan tashqari, oʻrni bilan Lutfiy, Husayn Boyqaro, Bobur asarlarida uchraydigan soʻzlar ham beriladi va ulardan baytlar keltiriladi.

Lugʻat va grammatik asarlar tuzish anʼanasi XIX asrda ham davom etdi. Kitobxonga Alisher Navoiy asarlarini chuqurroq oʻrgatish istagida bu davrda Fath Alixon “Kitob-i lugʻat-i atrokiya”, Shayx Sulaymon Buxoriy “Lugʻat-i chigʻatoyi va usmoniy” asarlarini yozgan.

Maʼrifatparvarlar jadid adibi Ishoqxon Junaydulla Xoʻja oʻgʻli Ibrat tuzgan “Lugʻoti sitta alsina” (“Olti tilli lugʻat”) asari – oʻzbek lugʻatchiligidagi oʻziga xos leksikografik asar. “Lugʻoti sitta alsina” ommabop lingvistik lugʻat, keng oʻquvchilar ommasini uchun moʻljallangan. Lugʻatda oʻsha davrda yaratilgan boshqa lugʻatlardan oʻziga xos anchagina sezilarli farq mavjud. Garchi, yangicha gʻoya, yangicha tafakkur, yangicha bilim olish tarafdorlari boʻlgan ilgʻor jadid maʼrifatparvarlari qatorida boʻlsa-da, Ibrat “Lugʻoti sitta alsina” asarini yaratishda yangicha yoʻnalishdagi gʻarb lugʻatchiligi tamoyillari bilan birga, anʼanaviy sharq lugʻatchiligi printsiplariga ham tayangan. Muallif lugʻatda soʻzlikni joylashtirishda ideografik usulni qoʻllagan, feʼllarni masdar (chochmak, kesmak,kiymak), hozirgi-kelasi zamon (oʻynar, yogʻar,

xohlar), o'tgan zamon (yotgan, turgan) hamda buyruq mayllarida (kelma, o'rganma) berilishi; ismlarni esa 37 ta mavzuiy guruhga ajratib, tarjimalarining berilishi jadid davrigacha bo'lgan sharq lug'atchiligi, xususan, arab lug'atchiligi an'analarining ta'sir belgilari. Shuningdek, lug'at mavzular bo'yicha "Moziy va amr" (O'tgan zamon va buyruq mayli), "Almutakallim" (Olmoshlar), "A'zoyi hayvonot" (Jonzotlarning a'zolari), "Asmou ahli qarobat" (Qarindoshlik nomlari), "Asmoi aqsomi taom" (Taom nomlari), "Asmoi nag'amot" (Musiqqa asboblari nomlari), "Aqsomi rang" (Rang nomlari) kabi bir necha bo'limga ajratilgan va sarlavhalangan. Sarlavhalarning arabcha nomlanishini ham arab leksikografiyasi ta'siri, deb qarash mumkin.

Darhaqiqat, Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida sharqshunoslik va turkiyshunoslik fanlarining rivojlanishi ta'sirida an'anaviy lug'atchilik bilan birga, yangicha yo'nalishdagi ruscha-o'zbekcha va o'zbekcharuscha, shuningdek, o'zbek tilini boshqa evropa va xorijiy sharq tillari bilan chog'ishtirib o'rganishga mo'ljallangan lug'atlar ham paydo bo'la boshladi. Shular qatorida, Ibratning mazkur lug'atini ham quyidagi leksikografik xususiyatlariga ko'ra, o'sha davrdagi yangicha yo'nalishdagi, ya'ni g'arb lug'atchiligi an'analari ta'sirida yaratilgan lug'atlar sirasiga ham kiritish mumkin: a) tilshunos olim A.Madvaliyev e'tirof etganidek, o'zbek leksikografiyasida Ibratgacha ham, Ibratdan keyin ham ayni shu xildagi, ya'ni olti til materiallari qamrab olingan va bu til materiallarining o'zaro qiyosan tarjimalari berilgan lug'at tuzilgan emas; b) muallif XIX asr oxiri va XX asr boshlari sharq va g'arb mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilg'or fan va texnika yutuqlari, yangiliklari bilan tanishish maqsadida qilgan sayohati davomida lug'at uchun materiallar to'plagan. Lug'atda o'sha davr uchun o'zlashma sifatida qabul qilish mumkin bo'lgan kraxmal, kursi, qandil, kasalxona, limon, dorishunos kabi ko'pgina leksik birliklar ham uchraydiki, bu holat Ishoqxon Ibratning XX asr boshlaridagi o'zbek tili lug'at boyligini rivojlantirishga ham ma'lum darajada o'z hissasini qo'shgan deyishimizga asos bo'la oladi; v) lug'atda so'zlar tarjimasini berilgan tillar geneologik jihatdan turli til oilasiga mansub. Jumladan, o'zbek tili, turk tili Turkiy tillar oilasiga; rus tili Hind-evropa tillari oilasining Slavyan tillari guruhiga; fors-tojik tili Hind-evropa tillari oilasining Eroniy tillar guruhiga; hind tili Hind-evropa tillari oilasining Hind tillari guruhiga; arab tili esa Semit-xami tillari

oilasiga mansub tillar. Bu jihatdan olib qaraganimizda ham mazkur lug‘atning o‘ziga xos tomoni, ya’ni turli til oilalariga mansub tillarning leksik birliklari o‘zaro qiyoslanganligi va bunda muallif lug‘at tuzishda oltita tilning ta’siriga qarab leksemalarni tanlaganligi e’tiborni tortadi. Bunday usul Ishoqxon Ibratning g‘arb lug‘atchiligi an’analariga tayanib lug‘at tartib berganligining isboti. Lug‘at muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, o‘sha davrda “safar ahli” (sayohatchilar) manfaatini ko‘zlagan holda tuzilgan so‘zlashgich bo‘lsa-da, lingvistik manba sifatida o‘sha davrda sharq va g‘arb lug‘atchiligi tamoyillarini o‘zida mujassamlashtirgan, o‘z xalqini jahon mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilg‘or fan va texnika yutuqlari, yangiliklari bilan tanishtirish barobarida xorijiy tillarni ham egallashga da’vat etgan, o‘zbek lug‘atchiligining tadrijiy takomilida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan leksikografik asar.

XIX asrda Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy usmoniy” asari yaratildi. Muallif Buxorodagi madrasada o‘qiydi, Turkiyada (Istambulda) hayot kechiradi. Vengriyada turkologlar anjumanida (1860) ishtirok etadi. Uning lug‘at tuzishiga mana shu anjumanda qatnashuvi sabab bo‘ladi. Shayx Sulaymon Buxoriyning lug‘ati taniqli turkolog I.Kunosh tomonidan nemis tiliga tarjima qilinadi va 1902-yilda Budapeshtda nashr etiladi. Asar uch qismdan iborat. Birinchi qism muqaddima, u “Manzumai chig‘atoyi” deb nomlangan. Bu qismda muallif asarning yozilish sababi, o‘ziningtarjimai holi va lug‘atning tuzilishiga oid ma’lumotlarni keltiradi. Ikkinchi qismi “Qavoid” deb nomlangan. Bu qism eski o‘zbek tilining grammatik xususiyatlari tavsiflangan ocherk. Unda muallif, til qurilishiga oid tushunchalar bilan bir qatorda, chig‘atoy tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, uning boshqa turkiy tillarga o‘xshash va ulardan farqli tomonlarini ham aytib o‘tadi. Turkiy tillarni bunday qiyoslash asarning yutuqlaridan biri. Sulaymon Buxoriy asarining uchinchi qismini lug‘at tashkil etadi. Unda eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan 7000 ga yaqin so‘z va turg‘un birikma usmonli turk tilida izohlanadi. So‘z ma’nolarining izohlari Alisher Navoiy va boshqa adiblarning asarlaridan olingan. Sulaymon Buxoriyning ushbu asari eski o‘zbek tilini o‘rganishda jiddiy va ishonchli manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga ega.

2.3. Jadidchilik davrida o‘zbek tilining maqomini yuksaltirishga doir harakatlar

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Sharq mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harakati Rossiya imperiyasi hukmronligi ostidagi Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. Mazkur harakat mintaqalarda turlicha nom oldi. Arab mamlakatlarida “An-Nahda” (Uyg‘onish), Rossiya imperiyasi mustamlakasida bo‘lgan turkiy xalqlar o‘rtasida “jadidchilik” nomi bilan tarixga kirdi. Jadidchilik

Qrimning Bog‘chasaroyida 1883-yili Ismoil Gasprinskiy asos solgan jadid usulidagi yangi maktabdan boshlandi. Jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi hukmronligidagi turkiy xalqlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotida nisbatan qisqa, ammo shiddatli va murakkab davr sanaladi. Ushbu harakatning tub mohiyati o‘tgan yillar mobaynida turlicha tadqiq va talqin qilingan bo‘lsa-da, jadidchilikning ko‘lami, uni harakatga keltirgan shaxslar hayoti, ijodi, jamiyatga ko‘rsatgan ta’siri masalalari hanuzgacha to‘liq ochib berilgan emas. Ayni masala o‘z navbatida jadidchilik harakatini izchil o‘rganishga zarurat tug‘diradi.

XX asr Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qiluvchi xalqlar uchun bir qadar muvaffaqiyatli boshlandi. Rossiya Yaponiya bilan bo‘lgan urushda mag‘lubiyatga uchragach, ichki va tashqi kuchlarning bosimiga bardosh bera olmay qoldi. Imperiya ichkarisida siyosiy kurashlar avj ola boshladi va imperator 1905-yil oxiriga kelib barcha siyosiy kuch va guruhlariga erkinlik beruvchi Manifestni e’lon qilishga majbur bo‘ldi. Manifestning asosiy jihatlaridan biri – so‘z erkinligining ta’minlanishi edi.

O‘zbek jadidchiligi yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931) millat va yurt istiqololi uchun kurashgan yirik va atoqli siymodir. U nafaqat Toshkent jadidlarining otasi, balki Behbudiydan keyin butun Turkiston jadidlarining yetakchisi edi. Chor mustamlakachiligi davrida zulmat va asoratga solingan, erki, huquqi va taraqqiyotdan bebahra tutilgan xalqini ma’rifat yo‘li bilan tarbiyalashga bel bog‘ladi. Jadid ziyolisi bo‘lishdan tortib, safdoshlari, maslakdoshlarini siyosiy harakatlarga boshlagan yo‘lboshchi o‘laroq faoliyat ko‘rsatdi. O‘lkada sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgach, hali dolg‘ali pallalarda qizg‘in siyosiy kurashlar girdobida bo‘ldi.

Mustabid tuzum qudratga kelgach, imkoniyati bo‘lgan barcha jabhalarda o‘z yorug‘ g‘oyalarini, niyatlarini amalga oshirishga intildi.

Munavvarqori jadid yetakchisi, buyuk istiqloqlchi, siyosiy arbob bo‘lish qatorida o‘lka madaniy hayotida kechgan til, alifbo-imlo masalalari bilan ham jiddiy shug‘ullangan. Bunga doir o‘tkazilgan anjuman va qurultoylarda faol ishtirok etgan. Matbuotda chiqishlar qilgan. Pedagog, tilshunos sifatida o‘zi tashkil qilgan yangi usul maktablari uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy” (1907), Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch qismdan iborat «O‘zbekcha til saboqlig‘i» (1925) kitobini nashr etdi.

O‘zbek jadidchilik harakatining yana bir yirik vakili Ashurali Zohiriy (1885-1937) sanaladi. Samarqandda Behbudiy, Toshkentda Munavvarqori jadid ijtimoiy harakatining boshida turgan bo‘lsa, Ashurali Zohiriy Farg‘ona vodiysi ma‘rifatparvarlarining yetakchisi edi. U o‘zbek ma‘rifatparvarlarining ko‘pchiligi singari milliy uyg‘onish davri ijtimoiy-ma‘naviy hayotining turli sohalarida faoliyat ko‘rsatdi. Zohiriy mashhur pedagog, jur‘atli jurnalist, yetuk tilshunos olim, adabiyotshunos, tarixchi va tarjimon sifatida faoliyat olib bordi. Yurt istiqloli uchun siyosiy maydonda qizg‘in kurashgan qahramon bu yo‘lda qurbon bo‘lgan.

Keyingi yillarda chop etilgan o‘zbek tilidagi ilmiy tadqiqotlarda XX asrning birinchi choragida Turkiston o‘lkasida milliy ziyolilarning arab alifbosini isloh etish harakatlariga baho berilganda, ko‘proq bir yoqlama yondashuv ko‘zga tashlanadi. Turkiston ziyolilari o‘rtasida shu tufayli yuzaga kelgan ziddiyatlarni baholashda hozirda turlicha qarashlar mavjud. Ko‘p hollarda bu yuzadagina o‘rganilib, eski imlochi va yangi imlochilar o‘rtasidagi kurash, nari borsa, o‘zbekparastlarning panislomist va panturkistlarga qarshi kurashi sifatida talqin qilinadi.

Sho‘rolar davrida milliy burjuaziya ziyolilari, «to‘dachilar» sifati bilan badnom qilib kelingan Munavvarqori, Ashurali Zohiriy va ularga hamfikir milliyatchilar bilan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari o‘rtasida alifbo, imlo, adabiy til masalalarida kelib chiqqan ziddiyat, kurashlarni avvalo bu davrdagi konkret tarixiy sharoitdan, bu ikki guruhning Turkistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga nechog‘li ishtiroki, voqelikka munosabatlari, tutgan pozitsiyalaridan kelib chiqib izohlash zarur.

Fitrat rahbarligida ish olib borgan “Chig‘atoy gurungi” madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy tashkilot sanalgan. 1919-yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiq qilingan. “Chig‘atoy gurungi” madaniy merosimizni to‘plash, o‘rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o‘zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug‘ullangan. Jamiyat a‘zolaridan Qayum Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Oltoy va Botu imlo masalalari bilan maxsus shug‘ullanuvchi “Chig‘atoy gurungi”ning “imlo to‘dasi”da ish olib borganlar. Yangi imlochilar o‘zlari isloh etgan imloni gazeta sahifalarida e‘lon qilib, targ‘ib qila boshladilar. Ikki oylik o‘qituvchilartayyorlash kurslari ochib, yangi imloni o‘rgata boshladilar. “Chig‘atoy gurungi”a‘zolarining o‘qituvchilar uchun imlo qo‘llanmasi bo‘lgan “Bitim yo‘llari” nomlibitkchasi 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan chop etildi. Ko‘pchilik yoshziyolilar, o‘qituvchilar “Chig‘atoy gurungi” imlosini yoqladilar va ularga ergashdilar. Munavvar qori va Ashurali Zohiriy o‘z tarafdorlari bilan yangi imloga qarshi bo‘ldilar. Turkiy xalqlar uchun o‘rta bir imlo, yagona yozuv fikrini yoqlagan bu zotlarning pozitsiyasi Turkistonda kechayotgan madaniy, siyosiy voqealar jarayoni bilan bog‘liq edi. Ayni chog‘da yangi imlochilar ilgari surgan alifbo-imlotamoyillarida ayrim kamchiliklar mavjud ediki, buni vaqtida Ashurali Zohiriy, hattobir muddat “Chig‘atoy gurungi”ga a‘zo bo‘lgan Shorasul Zunnun matbuotda ko‘rsatib o‘tgandi.

Maorif komissarligi qo‘llagan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari tashabbusi bilan Toshkentda 1921-yilning boshida Til va imlo qurultoyi bo‘ldi. Qurultoyda eski alifbo-imlo savod chiqarishga, maktab-maorif rivojiga, madaniy taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgani sababli rasmiyisloh etilib, “Chig‘atoy gurungi”ning imlo asoslari qabul qilindi. Ko‘pchilik ziyolilar, o‘qituvchilar yangi imloni yoqlab, buni qo‘llab-quvvatladilar. Qurultoyda imlo masalasida ziyolilar o‘rtasida fikriy ajralish bo‘ldi. Bu borada ziddiyat yangi imlo masalasi o‘rtaga chiqqan 1919-yildan paydo bo‘lgan edi.

Gurungchilar adabiy til va yozuv masalasida asosan o‘zbek millati manfaati nuqtayi nazaridan ish ko‘rdilar. To‘g‘rirog‘i, ular yangi o‘zbek milliy adabiyoti va adabiy tili, ilm-madaniyatini yaratishni maqsad qildilar. Yangi adabiyot va adabiy

tilni chig‘atoy adabiyotining chin vorisi bilib, uni Navoiy davridagidek burungi mavqeyiga, shon-shavkatiga qaytishini, boshqa turkiy tillar uchun ham o‘rnak adabiyot, namuna adabiy til holiga ko‘tarishni istadilar. Faqat buni yangi tarixiy sharoitda, o‘zbek millati nomi bilan bog‘liq ravishda vujudga chiqarmoqchi bo‘ldilar.

Tilshunos Sh.Bobomurodova o‘tmish ajdodlarimiz taxallus uchun arab va fors so‘zlarini tanlaganliklari holida, til sofliqi uchun kurashgan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari bu an‘anadan voz kechib, sof turkiy so‘zlardan taxallus tanlaganliklarini bayon qiladi⁵⁶. Masalan, Fitrat guruh a‘zolariga Botu, O‘ktam, Elxon, Elchi, O‘g‘uz, Yildirim kabi taxallus tanlab bergan⁵⁷.

“Chig‘atoy gurungi”ning maqsadi Fitratning ushbu so‘zlarida yanada yaqqol ko‘rinadi: “Chig‘atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o‘rinni tutg‘ondur. Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliqlari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turalar. Chig‘atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo‘lg‘onlig‘in qabul etmak mutlaqo lozimdir... Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori o‘rinda turg‘onidan, tilimizningda turk tillari orasida yuqori mavqe tutg‘onini chiqarg‘on kabi bo‘ldim” (Birinci o‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyi, 1921).

“Chig‘atoy gurungi” azolari «butun turk urug‘larining tili bir turli bo‘lsin va yozishlari ham bir qoida ostida yozilsin” kabi masalalarni imkonsiz deb bilganidan yolg‘iz o‘zbeklarning “o‘ziga tegishli bo‘lgan shevasida va o‘ziga tegishli sanalgan imlosida o‘qib, yozishlari hamda shul imlo va tilni yalpi shul xalqning o‘ziga qabul etdirish” fikri bilan ish ko‘rdilar. Gurung a‘zolaridan Elbek bu haqda shunday yozadi: “1921-yilgi Til-imlo qurultoyiga “Turkistonda bo‘lg‘on turk urug‘larining yolg‘iz o‘zbeklarnigina chaqirmoqchi bo‘ldiq ham bu qurultoyi “O‘zbek qurultoyi” deb atadik”.

Munavvar qori, Musa Begiyev, Ashurali Zohiriy va ularga maslakdosh millatparvarlar Turkiston ozodligi uchun kurash ketayotgan bir sharoitda milliy-

⁵⁶ Бобомуродова Ш. Э. Элбекнинг тилшунослик мероси [Матн]: монография. – Тошкент : Nodirabegim nashriyoti, 2020. - 108 б. – В.6.

⁵⁷ Бобомуродова Ш. Э. Элбекнинг тилшунослик мероси [Матн]: монография. – Тошкент : Nodirabegim nashriyoti, 2020. - 108 б. – В. 6.

madaniy jabhada yolg'iz o'zbek millati nomi bilan yo'l tutilsa, kurashning dushman foydasiga hal bo'lishi mumkinligini ta'kidlar edilar. Shuning uchun ham ular O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar uchun umumiy bir til, yagona yozuv va adabiyot yaratishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar.

Aslida bu g'oya Munavvar qori, Ashurali Zohiriy kabi millatparvarlarning maslakdoshi, Turkiston istiqlolchilik harakati rahbarlaridan biri yirik olim va siyosat arbobi Zaki Validiy tomonidan ilgari surilib, quvvatlanayotgan edi. Bu umumiy til asosida turkiy xalqlarning umum adabiyotini yaratish ko'zda tutilgan. Z.Validiyning fikricha, "milliy qiymatlar va dostonlar ham faqat qozoq va urug'li o'zbek, qirg'iz, qoraqalpoq guruhleri bo'yicha yaxshi muhofaza etilganligidan kelajakda milliy adabiyotning ham bu guruhlar atrofida vujudga kelajagi, kent turki, totor va boshqird qabilalarining ularga qo'shiluvleri o'z-o'zidan anglashiladi". Bu o'ziga xos panturkistik g'oya Turkiston hudididan chetga chiqmagan, uni butun turkiy dunyoga nisbatan amalga oshirish xomxayol ekanini bu fikr tarafdorlari yaxshi bilishgan. Shuning uchun ham O'rta Osiyo turkiy xalqlari (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq va boshqalar)ning umumiy til va yozuv birligi bu xalqlarning birdamligini mustahkamlaydi va bunday yagona harakat bilan Turkiston mustaqilligiga tezroq erishish mumkin, deb hisoblar edilar. Bu vaqtda Zaki Validiy, Munavvar qori, Ashurali Zohiriy singari g'oyaviy rahnamolar istiqlolchi kuchlar bilan Turkiston Milliy Birligi tuzib, milliy ozodlik kurashi olib borayotgan edilar. Til va yozuv masalasi bu davrdaijtimoiy-madaniy sohada muhim siyosiy ahamiyat kasb etayotgani sababli Munavarqori va uning tarafdorlari hamda "Chig'atoy gurungi" o'rtasida alifbo-imlo, adabiy til sohasida jiddiy kurash kechgan.

1922-yil fevral oyida Toshkentda chaqirilgan O'zbek madaniyati va xodimlarining o'lka qurultoyi ham til-imlo masalasi tufayli ikki taraf guruh o'rtasidagi bahs va janjallar bilan o'tdi. Milliy taraqqiyot omili bo'lgan maktab-maorif, matbuot-nashr ishlarida turlilik, parokandalik yuzaga keldi. Buning salbiy oqibatini anglagan ziyolilar o'rtadagi nizoga barham berishga va birlashishga qaror qildilar. Toshkentdagi o'zbek maorif va madaniyat xodimlari butun o'lkadagi maorifparvar kuchlarga qarata "Yerlik xalq maorifida muttahid furunt" shiori bilan

chiqdilar. Bunda Munavvar qori, Mannon Ramz, Zahiriddin A'lam, Elbek, Shahid Ehson Ahmadiyev, Salimxon Tillaxonov, Cho'lpon, Xolmuhammad Oxundiy, Majid Qodir va boshqalar faol ishtirok etdilar. "Muttahid frunt"ning o'rtalikda qabul qilingan imlo asoslari matbuotda e'lon qilindi. Ular o'zbek maorifini ko'tarish, ilmiy xizmatni yo'lga qo'yish, o'rtadagi fikr ayirmaligini yo'qotib, samimiyat barpo qilish uchun "Nashri maorif" jamiyatini tuzdilar. Biroq oradan ko'p o'tmay bu birlashuv barham topdi, ziyolilar o'rtasidagi yozuv masalasidagi kelishmovchilik davom etdi. 1923-yilning oktyabrida Buxoroda O'rta Osiyo o'zbeklarining Til va imlo o'lka anjumani chaqirildi. Unda yana alifboni isloh qilish, imlo asoslarini ishlab chiqish masalalari ko'rildi. Konferensiya qarori Turkiston Jumhuriyati Maorif komissarligining 1923-yil 18-oktyabrdagi 48-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. Ta'kidlash kerakki, bu yig'inda kelgusida alifboni lotinlashtirish fikri ma'qullandi. Bu ishning amaliy tomonlari muhokama qilindi. Turkiy dunyoda qo'zg'alayotgan lotinga o'tish harakati, shuningdek, ziyolilar o'rtasidagi noahillik sabab Buxoro anjumanidan so'ng ham yozuvda boshboshdoqlik davom etdi.

Keyinroq sho'rolar tuzumi mustahkam oyoqqa turib, o'zbek adabiyoti va adabiy tilini, milliy madaniyatini proletarlashtirish, sovetcha "baynalminallashtirish" jarayoni boshlangach, jadid ziyolilarining har ikki guruhiga "burjua millatchilari" tamg'asi bosildi. Hatto A.K.Borovkovdek yirik tilshunos olim ham hukumron mafkura nog'arasiga o'ynashga majbur bo'ldi. U keyinchalik shunday yozadi: "Umum turk" tili va "chig'atoy" tilini o'zbek xalqiga tiqishtirish Turkistonda milliy burjuaziyaning madaniy hukmronligini ta'minlash, burjua madaniyatini sotsialistik madaniyatga qarshi qo'yish uchun zarur edi". Ayniqsa, katta avlod ziyolilarining sho'ro tuzumi, xalq uchun ziyonli ekanini fosh etishda Ziyosaid (Qosim Solihov)ning xizmatlari ajralib turadi. U Munavvar qori va uning tarafdorlarini ham, ular bilan alifbo-imlo masalasida tortishgan "Chig'atoy gurungi" a'zolarini ham xalq e'tibori uchun o'zaro kurashgan millatchilar, aksilinqilobchilar sifatida birday qoralaydi. Jadidlar keskin tanqid qilingan turkum maqolalari va matbuotga oid kitobini e'lon qiladi. Keyinchalik o'zi ham ular kabi sho'rolar qatog'oni qurboni bo'ladi.

Arab alifbosi bu davrlarda bir necha bor isloh etilganiga qaramay, 1929-yilgacha, ya'ni o'zbek xalqi lotin alifbosiga o'tgunga qadar yozuv birligiga erishib bo'lmadi. Bu alifbo 1921-yildan boshlab o'zbeklar orasida uch bor isloh qilingan bo'lsa-da, uni tuzatib, bu sohada yagona fikrga kelib bo'lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar ham o'z tillari uchun ancha sodda va ancha qulay bo'lgan lotin alifbosini qabul qildilar. Fitrat, Ashurali Zohiriy, Cho'lpon, G'ozim Olim, Qayum Ramazon, Elbek, Abdulla Alaviy, Shokirjon Rahimiy, Rahim In'omov singari mashhur olim va yozuvchilar, ko'zga ko'ringan madaniyat xodimlari, milliy ziyolilar lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi va imlosini ishlab chiqish, uni hayotga joriy etish ishiga katta hissa qo'shdilar.

Tilshunos olim X.Muxitdinova XX asr birinchi yarmida Turkistonda o'zbek tili va uni o'rganishga doir qarashlar sirasida quyidagilarni bayon qiladi: "...o'zbek tilini boshqa millatlar vakillariga o'qitish 1906-yildan, o'zbek tili ta'limi yuzasidan olib borilgan ilk tadqiqot ishlari esa 30-yillardan boshlangan... O'zbek tilini boshqa millat vakillariga o'rgatish Turkiston o'lkasida rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishi bilan bog'liq bo'lib, Turkiston hududida yashovchi boshqa millat vakillariga o'zbek tilini o'rgatishga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmalarining paydo bo'lishi aynan shu maktablarning faoliyati bilan bog'liqdir. O'zbek tilining o'quv rejalariga asosiy fanlardan biri sifatida kiritilishi esa 1933-yildan boshlangan bo'lib, bu davrga kelib o'zbek tili maktablardagina emas, balki oliy o'quv yurtlarida ham o'qitila boshlangan edi."

Biroq olimaning qarashlarida bir qadar nooydinlik mavjud bo'lib, biz uni Sh.Bobomurodovaning fikrlari bilan ochiqlashga harakat qilamiz. Ya'ni Sh.Bobomurodovaning ma'lumotiga ko'ra "Elbek 20-yillar "Chig'atoy gurungi" tarkibidagi "Imlo to'dasi"(1920-yil) guruhida til va imlo masalasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, "Til", "Alifbo masalasi", "Imlo masalasi" kabi maqolalarini e'lon qildi."⁵⁸ Aniqlanadiki, o'zbek tilini o'qitish va alifbo muammolari o'zbek ma'rifatparvarlari tomonidan rus hokimiyatchiligining ta'siridagina qo'zg'atilmagan.

⁵⁸ Бобомуродова Ш. Э. Элбекнинг тилшунослик мероси [Матн]: монография. – Тошкент : Nodirabegim nashriyoti, 2020. - 108 б. – В.7.

X.Muxitdinovanning ta'kidlashicha, maxsus o'zbek tili kafedrasining tashkil etilishi va hatto davlat muassasalarida ham maxsus dastur asosida o'zbek tilini o'rganishning tashkil qilinishi o'zbek tilining boshqa millatlar vakillariga o'qitilishida sezilarli siljishlar bo'lishiga olib keldi. O'zbek tilidan dastlabki o'quv dasturlari, lug'atlar rus metodist olimlari tomonidan tuzilgan edi⁵⁹. Bizningcha, milliy tilni ona tili o'zbek tili bo'lmagan mutaxassislar ko'rsatmasiga muvofiq o'rgatish – BU MASALANI HAM ROSSIYA HUKMRONLIGINING NAZORATIGA QO'YIB BERISH BILAN BAROBAR EDI.

Sh.Bobomurodovanning bayon qilishicha, XX asr boshlarida Turkistonda ochilgan usuli jadida maktablarida, 9 oylik bilim yurtlarida ona tili o'qitish o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, muallimlar shogirdlariga til qoidalarini usmonlicha va tatarcha kitoblardan olib (buzib-tuzib turli yo'llar bilan) o'qitmoqqa majbur bo'ldilar. Chunki bu davrda o'zbek tilining qoidalari maxsus o'rganilmagan, "Qavoiydi turkiy" kabi grammatikaga oid asarlarda esa turk tillarining qurilishiga oid umumiy yo'nalish berilgan edi, xolos. Ayrim jadid maktablarida turkiy xalqlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan o'rta til va imloni qabul ettirish g'oyasi ostida turk tili grammatikasi o'qitilgan⁶⁰.

XX asr boshlarida rus tilida ham bir qancha o'zbek tiliga oid grammatika va xrestomatiyalar tuzilgan bo'lib, unda til qoidalari rus tili grammatikasi asosida izohlanganligi sabab o'zbek o'quvchilari ehtiyojini qondira olmas edi. 1913-yilda M.Faxriddinov tomonidan tuzilgan "Turkcha qoida" kabi asarlar esa turk olimlari tomonidan arab tili sarf-nahvi andozasi asosida tuzilgan grammatikaning nusxasi edi, xolos⁶¹. Fitrat boshchiligidagi Chig'atoy gurungi a'zolari ilk bor o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganishga kirishdilar. Ular til qoidalarini rus yoki arab tili grammatikasi asosida emas, balki shu tilning ichki xususiyatlari asosida yoritish kerakligini tushunib yetganligi sababli tarixiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, shevalar

⁵⁹ Muxitdinova x.s. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

⁶⁰ Qarang: Bobomurodova Ш. Э. Элбекнинг тилшунослик мероси [Матн]: монография. – Тошкент : Nodirabegim nashriyoti, 2020. - 108 б. – В.7.

⁶¹ Qarang: Bobomurodova Ш. Э. Элбекнинг тилшунослик мероси [Матн]: монография. – Тошкент : Nodirabegim nashriyoti, 2020. - 108 б. – В.7.

asosida materiallar to'plab, ularni ilmiy jihatdan o'rgana boshladilar. Natijada matbuot sahifalarida Elbek, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun (Elchi) larning o'zbek tili tovushlari, unlilar, singarmonizm masalalaridan bahs etuvchi maqolalari ko'rina boshladi. Bular sho'ro davridagi o'zbek tilshunosligiga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar edi⁶².

1940-yillardan keyin o'zbek tilini o'qitish metodikasiga va til ta'limining ayrim muammoli masalalariga bag'ishlangan bir qator qo'llanmalar yuzaga keldi, biroq ularda o'zbek tilini milliy maktablarda ona tili sifatida o'qitish masalalari yoritilgan bo'lib, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish mutlaqo e'tiborga olinmagan. Ma'lumki, islohotdan avval o'qishlar rus tilida olib boriladigan umumta'lim maktablarida, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining rus guruhlarida ham o'zbek tili darslari ona tili metodikasi asosida o'qitilar, ya'ni milliy guruhlardagi ona tili fani kabi o'zbek tilining barcha bo'limlari: fonetika, leksika, morfologiya, sintaksisdan biroz qisqartirilgan ma'lumotlar berilar, bunda asosiy farq grammatik qoidalarning qisqa va asosan rus tilida yoki ayrim hollarda o'zbek va rus tillarida berilishida bo'lar edi⁶³. Mashqlarda ham odatda sof grammatik topshiriqlar berish, terma gaplarni rus tiliga yoki o'zbek tiliga tarjima qildirish bilan cheklanilar edi. O'qitishning bu usuli, ayniqsa, qoidalarning rus tilida ham berilishi natijasida rusiyzabon o'quvchilar grammatik qoidalarni quruq yod olish bilan cheklanib, o'zbek tilini tushunadigan, ammo o'zbek tilida gapira olmaydigan bo'lib qoldilar. Ushbu darsliklarda o'quvchilarni nutqiy muloqotga undaydigan, o'quvchilarda o'zbek tilida so'zlashish ehtiyojini yuzaga keltiradigan, so'zlardan so'z birikmalari, so'z birikmalaridan gaplar, gaplardan matnlar tuzishga yo'naltiradigan mashqlar va topshiriqlar tizimi deyarli yo'q edi⁶⁴.

⁶²

⁶³ Muxitdinova x.s. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

⁶⁴ Muxitdinova x.s. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

BOBGA DOIR XULOSALAR

1. IX asrdan Turonda jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi. Qoraxoniylar davrida umumelat tili qaror topdi, turkiy tilning adabiy til sifatidagi mavqeyi ancha oshdi. Chingizxon boshchiligidagi mog'ullar istilosidan so'ng Turonga kelib o'rinishgan mo'g'ul zodagonlari turkiy tildan saroy tili hamda jonli so'zlashuv tili sifatida foydalana boshladilar. Chingiziy hukmdorlarning hujjatlari ommaga turkiy tilda yetkazildi. Hali ish yuritish tizimi shakllanmagan mo'g'ullar devonxona tashkil etishni turonliklardan o'rgandilar.

2. O'zbek tilining ayniqsa Temuriylar davrida taraqqiy etgan bo'lib, uning nufuzini oshirishga har tomonlama: ham siyosiy, ham badiiy, ham madaniy jihatdan harakat qilingan. Bu borada Hazrat mir Alisher Navoiyning xizmatlari esa beqiyosdir.

3. O'zbek tilining boy va maftunkor ekanligi va uzoq o'tmishga egaligi leksikografik manbalarda ham o'z aksini topgan. Mahmud Qoshg'ariyning o'ziga xos lug'atidan boshlab davom etib kelgan lug'at tuzish an'anasi, hamda yaratilgan lug'atlar o'zbek tili rivojiga munosib hissa qo'shib kelgan va bugungi kunda ham eng noyob manbalar sanaladi.

4. Jadidchilik harakati va jadid mutafakkirlari faoliyatlari davomida boshqa sohalar qatori til masalasiga ham befarq bo'lishmagan. Ular adabiy til qoidalarini ishlab chiqishga, uni keng ommaga joriy etishga, shu bilan birga ona tilimizdan tashqari arab, fors, rus tillarini ham o'rganishni keng targ'ib qilishgan. Til bilishning ahamiyati va afzalliklarini har tomonlama asoslab berishgan.

III BOB. XX-XXI ASRDA O‘ZBEK TILINING MAQOMINI KO‘TARISHGA DOIR HARAKATLAR

3.1. O‘zbek tilining rivojiga totalitar tuzumning ta’siri: til rivojidadagi to‘siqlar (ish yuritish, o‘zbek terminologiyasi, o‘zbek ilm-fani tili misolida)

Sobiq sovet davrida konstitutsiyaviy jihatdan mustaqil hisoblangan, ammo aslida mustamlaka bo‘lgan Markaziy Osiyoning boshqa xalqlar kabi, o‘zbek xalqining ham milliy tili kamsitilgan. 60 yil mobaynida milliy tillarning rivoji haqida hech qanday qonun yoki qaror qabul qilinmaganining o‘zi buning yorqin dalilidir.

Bu siyosat 1917-yil inqilobidan keyin darhol boshlanmagan. Dastavval, qonunlar chiqqarilgan. Jumladan, 1917-1918-yillarda Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan tashkilotlarning siyosiy-huquqiy dasturlarida o‘z xalqini Rossiya madaniyati bilan tanishtirish, shu bilan birga, o‘z milliy madaniyatini rivojlantirish va mustaqillik, shaxs erkinligini ta’min etish, ijtimoiy va huquqiy tengsizlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi g‘oyalarni ilgari surish bilan bir qatorda, til masalasiga ham alohida e’tibor berilgan.

Sobiq sovet tuzumining mustamlakachilik siyosatiga to‘la-to‘kis o‘tilgunga qadar til siyosatida milliy tillar qo‘llab-quvvatlangan. Ammo 20-yillardan keyin bu siyosat butunlay o‘zgargan⁶⁵.

Masalan, Turkiston maorifi komissariyati huzuridagi bilim kengashi ye.D.Polivanov, D.Shmidt, S.Falevlar singari a'zolari ishtirokida A.Sa'diy va yana bir qancha millat fidoyilari ko‘targan “Turk tillarining qonun va qoidalarini qat’iy bir tartib ostiga olib tuzishda boshqa oilalarga mansub bo‘lgan tillarning qonun-qoidalariga ergashtiruv, ulardan o‘rnak oluv va yondashtiruv mumkinmi?” degan masala qat’iy muhokamaga sabab bo‘lgani, A.Sa'diyning yozishicha, o‘zbek tilining grammatikasini tuzishga chaqirilgan professorlar o‘zbek, turk, tatar tillarini bilmaganliklari tufayli ular uchun kengashga tarjimonlar ham chaqirilgani sir emas. Elbekning “Turk tillarining qonunlari to‘g‘risida mulohazalar” maqolasi mana shu o‘tkazilgan kengash munosabati bilan yozilgan bo‘lib, unda olim o‘zbekcha bir

⁶⁵ O‘zbekistonda sho‘rolar davridagi til siyosati. <http://namtum22maktab.zn.uz/2022/04/15/ozbekistonda-shorolar-davridagi-til-siyosati/> Qarang: Еникеев Р. Тил ҳақидаги қонунлар тарихига оид // Тил ва адабиёт та’лими, 1997. – № 2. – Б. 88-90.

kalima bilmasdan uning grammatikasini tuzmoqchi bo‘lgan bu professorlarni qattiq tanqid qiladi, til uchun qoida tuzish ishi uning butkul ruhi bilan tanishgan va shu tilda so‘zlaydigan kishilargagina tegishli ekanligini ta’kidlaydi⁶⁶.

Sobiq sho‘ro davrida o‘zbek terminologiyasining asosan ruscha-baynalminalcha so‘zlar evaziga rivojlangani, afsuski, o‘zbek olimlari tomonidan ijobiy baholanib, bu kabi taraqqiyot usuliga eng asosiy boyish manbayi sifatida qaraldi⁶⁷. Vaholanki, Elbek bir vaqtlar 550 tacha so‘z-terminlarni to‘plab, avval «Turkiston» gazetasida (1923, 168—198), so‘ngroq «Inqilob» jurnalida e’lon qilgan edi. Lug‘atning kirish qismida muallif quyidagilarni yozgan edi: «Bu lug‘atni tuzishdan maqsad barcha chet so‘zlarni tilimizdan haydab chiqarish va haqiqiy o‘zbek atamalarini (terminologiyasini) yaratishdir. Lug‘atni tuzishda biz jonli tilda qo‘llanilayotgan so‘zlardan foydalandik, hozirgi tilimizda bo‘lmagan so‘zlarni eski tilda yozilgan asarlardan oldik, qiyinchilik tug‘iladigan bo‘lsa, biz bunday so‘zlarni o‘zimiz sun’iy yasadik»⁶⁸.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan taniqli tilshunos olimlar M.Mirtojiev va N.Mahmudov 20-asr ikkinchi yarmi sobiq sho‘ro tuzumi doirasida K.D.Dyosheriev o‘z tili uchun qayg‘uruvchilarni, kaltabinlikda va fahmsizlikda ayblaganini esga olib, shunday deb yozdilar: “Biz o‘z tilining sofliги va sof holda boyishi uchun qayg‘uruvchilarni “purist” deb ayblaymiz. Xuddi shunday puristligi bilan rus tili boyligini yiqqan V.Dal, turk tili sofliги uchun kurashgai Ota Turk, fors tilini tozalashga kirishgan eron tilshunoslari, nahotki, tarixda qoralanuvchi shaxslar hisoblanadi. Aksincha, o‘z xalqi ular nomini faxrlanib tilga oladilar. Bunday shaxslar tarix talabi bilan maydonga chiqqan, o‘z tili inqirozga yuz tutishining oldini olish uchun kurashganlarning oldingi safida turgan kishilardir. Ularning ish yuritish yo‘llari, turgan gapki, rang-barang bo‘lgan, ammo maqsadlari bir edi”⁶⁹.

⁶⁶ Элбек. Эскичилар. // Қизил байроқ. 1921. 12 февр.; Бобомуродова Ш. Э. Элбекнинг тилшунослик мероси [Матн]: монография. – Тошкент : Nodirabegim nashriyoti, 2020. - 108 б. – В.16.

⁶⁷ Абдуллаев Ф.Тил қандай ривожланади? – Тошкент: Фан, 1972.

⁶⁸ Абдуллаев Ф.Тил қандай ривожланади? – Тошкент: Фан, 1972.

⁶⁹ Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

Sobiq ittifoq zamonida rus tili uning tarkibiga kirgan qardosh respublikalar va elatlarning asosan rasmiy muloqot tili sifatida xizmat qildi. Sobiq ittifoq parchalangandan keyin ham rus tilidagi bu xususiyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmadi, balki o'sdi. Ikkinchi tomondan, ayrim hududlarda rus tili o'zining rasman hukumronlik vazifasini yo'qotgan bo'lsa-da, ammo davlatlararo muloqotlarni olib borish, hujjatlarni imzolash, shuningdek, mamlakatning ta'lim jarayonlarida, kashfiyotlar haqida axborot informatsiyalar olish va uzatish rus tili orqali amalga oshirilgan. Keyingi paytlarda joylarda rus tili bilan bog'liq yana bir tendentsiya, ya'ni mahalliy yoshlarni rus tilida o'qitish jarayoni qayta jonlandi.

Davlat va jamiyatda, kishilarning turmush hayotida sotsiomadaniy omillar ham salmoqli o'rin tutadi. Joylarda rus tili nufuzining oshib borishi mustaqillikni qo'lga kiritgan metropoliya davlatlari fuqarolari uchun moddiy tirikchilik manbai sifatida baynalminal makon bo'lib shakllanmoqda edi. Unday tendentsiyalarning kuchayib borishi esa o'z navbatida rus tilini o'rganish zarurligini tabiiy omillardan biri qilib qo'ymoqda. Bu ham u yoki bu millatlarning davlatchiligi bilan bog'liq davlat tilini yaratish jarayonida ayrim jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan jihatidir. Buning sababi esa, Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy munosabatlarida yuz yildan ko'proq qaram respublikalar bo'lib kelganligidir. Bu ham asosiy omil sifatida makonlarda yashab kelgan millat va etnoslar tilining rivojida hal qiluvchi ta'sirini o'tkazmoqda.

Masalan, O'rta Osiyoning Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlarida rus tili yetakchi til sifatida o'z nufuzini saqlab qoldi, ya'ni rus tiliga sirtdan munosabat o'zgarganday tuyilsa-da, aslida botinan o'zgargani yo'q. Bu o'rinda qozoq, qirg'iz tili leksikasining asosan rus tili hisobida boyib borganligini ham unutmash kearak. Qozog'istonning shimoliy mintaqasining rus zabonlar yashay- digan areallar ekanligi ham ortiqcha isbotga o'rin qoldirmaydi. U davlatlarda til islohotlari olib borilgan esada, krill alfaviti saqlab qolindi. Krill alfavitining saqlanib qolishi ham Rossiyaning tarkibida bo'lgan boshqa turkiy xalqlar bilan tildagi yaqinlikni ushlab turishda ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Rossiya aholisining 20 % musulmonlarga to'g'ri keladi. Ular esa asosan turkiy tilda so'zlashuvchi aholi hisoblanadi.

Rus tiliga davlat tili sifatida barham berilishi, joylarda begona tillar o'rtasida ham o'ziga xos tendentsiyalarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Kelajakda bu omillarning kuchayib borishi ham joylarda til vaziyati bilan bog'liq ayrim masalalarni chuqur o'rganishni bevosita taqozo etmoqda. Ana shu ma'noda "siyosat" – asli til siyosatidan boshlanadi desak, xato bo'lmaydi.

O'zbekistonda sho'rolar hukmronligi paytida davlat tili haqida umuman gapirish ham mumkin bo'lmagan, aksincha o'zbek tilining ijtimoiy hayotda qo'llanilishi tobora cheklanib qolgandi. Jamiyatni qayta qurish ma'naviy poklanishni boshlab berdi. Uning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilinib, unda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu qonunning e'lon qilinishi o'sha davr uchun katta tarixiy ahmiyatga ega bo'ldi. Ushbu qonun o'zbek tilining rus tili soyasida siqilib, faqat ko'cha-ko'ya va oilada foydalaniladigan ikkinchi darajali bir tilga aylanib qolish xavfiga chek qo'ydi.

3.2. Mustaqillik davrida o'zbek tili

3.2.1. Mustaqillik davrida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini ko'tarishga doir hujjatlar

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimiz ma'naviy hayotidagi boshqa ko'plab muammolar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiya- lashuvini ta'minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar bu masalani kechiktirmasdan hal qilishni talab etar edi.

Xuddi shunday dolzarb hayotiy ehtiyoj tufayli mustaqillikning ilk qadami, samarasi o'laroq 1989-yil 21-oktyabrda O'zbekiston Respublikasining –Davlat tili to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi, qadimiy va muqaddas ona tilimiz – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi, o'zbek tili taraqqiyoti va takomilida yangi davr boshlandi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov ta'biri bilan

aytganda, “Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma’nodagi buyuk voqea edi”.

Yer yuzida yashovchi xalqlar, elatlar, qabilalar har xil tilda so‘zlashadilar. Dunyoning lisoniy xaritasiga nazar tashlansa, tillar va shevalarning nihoyat darajada ko‘pligi va ularning xilma-xilligi ko‘rinadi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda jahon tillarining umumiy soni 2500 dan 5000 gacha va undan ortiq deb ko‘rsatiladi. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, dunyodagi tillarning miqdori 7000 ming atrofida. Buni asoslaydigan bir dalil: 2010-yilda “National Gengrapnik” jamiyati tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiya aniqlagan Hindistondagi koro tili dunyodagi 6909-tildir. Ana shu tillar ijtimoiy mavqeiga ko‘ra **rasmiy til** va **davlat tillariga** ajratiladi. Davlat tili maqomi rasmiy tildan yuqoriroq mavqega ega. Manbalarda izohlanishicha, **“Davlat tili ma’lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida integratsion funktsiyani bajaruvchi va shu davlatning ramziy belgisi hisoblanuvchi tildir”**. Davlat tili ma’lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida faol qo‘llanuvchi, shu davlatning ramziy belgilaridan biri hisoblanuvchi tildir. Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

Davlat tili – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til.

Davlat tili odatda uch yo‘l bilan belgilanadi:

- 1) tarixiy an’analar asosida davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlarni mavjud tillaridan birini umum til sifat tan olinishi asosida;
- 2) hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlari tomonidan xalqaro yoki jahon tillaridan birini davlatning rasmiy tili deb e’lon qilinishi asosida;
- 3) davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki mamlakat prezidenti tomonidan ma’lum tilning jamiyat hayotining barcha sohalarida qo‘llanilishi shart deb e’lon qilinishi asosida.

Yarim asrdan oshiq (1938-1991) davr ichida o‘zbek tili mafkuraviy, siyosiy, ma’muriy jihatlardan ulkan tazyiq ostida bo‘ldi. Sobiq SSSR Xalq Komissarlari

Soveti va VKP(b) MK ning 1938-yil 13-fevraldagi “Rus tilini milliy respublikalarda majburan o‘qitish to‘g‘risida” qarori chiqqandan so‘ng sho‘ro mamlakatida keng miqyosda ruslashtirish siyosati amalga oshirildi, o‘zbek tili hayotning asosiy sohalaridan asta-sekin chiqarila boshlandi.

Ona tili elning taqdiri, kelajagini ham belgilaydigan eng muhim omildir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimovning 1989-yil 25-oktyabrda O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining o‘n birinchi sessiyasida so‘zlagan “Til elni birlashtirishi lozim” nomli nutqida ham tilning xuddi shu jihati alohida ta’kidlangan: –Birinchi navbatda shuni aytmog‘chimanki, o‘zbek tiliga davlat maqomini berilishi hech kimda hech qanday shubha tug‘dirmasa kerak. Bu allaqachon yuz berishi lozim bo‘lgan hodisa ediki, aholimiz ko‘pchiligining qonuniy talabi ham shunday edi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xalqimiz ma’naviy hayotidagi boshqa ko‘plab muammolar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiya- lashuvini ta’minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar bu masalani kechiktirmasdan hal qilishni talab etar edi. Shu bois O‘zbekiston hukumati tomonidan til siyosatiga istiqlol siyosatining uzviy bir qismi sifatida qaraldi. O‘zbekistonimizda istiqlol ona tiliga davlat maqomini berish bilan boshlandi.

O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shubhasiz, muayyan darajada olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar natijasida sodir bo‘lmoqda. Shu ma’noda mamlakat iqtisodiyotidagi modrenizatsiya jarayonlari, bozor munosabatlarining tobora takomillashuvi, kishilar turmush darajasining muttasil ravishda o‘sib borishi, pirovard natijada demokratik o‘zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlar samaradorligisiz amalga oshmasligini e’tiborga olish lozim.

Ma’lumki, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishning yo‘llari juda ko‘p. Bular safiga fuqarolar, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida turli tarbiyaviy-axloqiy

tadbirlar o‘tkazish, yigit-qizlar tafakkur tarzini boyitish, ular ma’naviy olamini shakllantirishdan tortib to O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligini, umum-madaniy saviyasini oshirishgacha bo‘lgan ishlarni kiritish mumkin.

Ammo ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishda muhim biro mil mavjudki, uningsiz ushbu jarayonni tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bu til masalasidir. Shu ma’noda o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilganligini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi haqidagi qonun muqaddas qadriyatimiz hioblangan ona tilimizning tom ma’nodagi himoyachisi, uning ijtimoiy nufuzining oshishiga imkon beradigan omil bo‘ldi. Alohida ta’kidlash lozimki, ushbu qonun o‘zining demokratik mohiyati bilan ajralib turadi. “Jumladan, – deydi – Islom Karimov, – mazkur qonun davlat idoralarida ishlash, ta’lim olish, mansab lavozimlari bo‘yicha ko‘tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlarva “senz”lardan xoli ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan talab va qoidalarga to‘liq javob berar edi. Shuning uchun ham u ko‘pmillatli xalqimiz kutib olingani bejiz emas”.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish jarayonida ko‘plab jihatlar e’tiborga olindi:

1. Uzoq tarixga va o‘tmishda o‘ta katta ijtimoiy nufuzga ega o‘zbek tilining mustabid tuzum davrida juda katta to‘siqlarga duchor bo‘lganligi va uni tiklash milliy taraqqiyot uchun muhim zamin bo‘lishi nazarda tutilgan.

2. O‘zbek tilining mamlakat fuqarolari orasidagi aloqa vositasi sifatidagi o‘rnini ko‘rsatish, uning madaniy-ma’rifiy hayotimizdagi ahamiyatini oshirishga ahamiyat qaratilgan.

3. O‘zbek tilining rivojlanishi, uning og‘zaki va yozma nutq sifatida shakllanishi inson tafakkurining yanada boyishi, kishilar ma’naviy olamining kengayishiga imkon beradigan ijtimoiy hodisa sifatidagi o‘rnini belgilash lozim edi.

Mustaqillikning ilk samarasi o‘laroq bundan 27 yil muqaddam – 1989-yil 21-oktyabrda XI chaqiriq O‘zbekiston Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Qonun

o‘zbek tiliga davlat maqomini berdi. Aholisining 72 foizi o‘zbek, 85 foizi o‘zbek tilining biladigan Respublika uchun bu tabiiy bir hol edi.

1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi. Natijada o‘zbek tili mustaqil O‘zbekistonimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

Shu o‘rinda bir ma’lumot: Yer yuzida besh mingga yaqin til va lahjalar mavjud bo‘lgani holda atigi yuzga yaqin til davlat tili maqomiga ega. Har birida yigirma milliondan ortiq odam gaplashadigan tillarning umumiy soni qirqqa bormaydi.

Davlat tili haqidagi qonun qabul qilingandan keyin, 2 yil o‘tgach, O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Mamlakatimizda yuz berayotgan real jarayonlar va imkoniyatlarni hisobga olib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini uzil-kesil joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish vazifasi til islohoti bilan bog‘liq masalalariga zarur tuzatishlar kiritish ehtiyojini tug‘dirdi, respublika hali sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan va madaniy-ma’naviy sohada o‘ziga xoslikni mustahkamlashga intilgan bir sharoitda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonunning ko‘pgina moddalariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritishni taqazo etdi. Natijada 1995-yil 21-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 6- sessiyasida “Davlat tili haqida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilindi. Avvalgi qonunda 30 ta modda mavjud bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirda ayrim keraksiz moddalar qisqartirilib, mustaqil mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish, davlat til siyosatining asosiy yo‘nalishlarini aniq belgilab beruvchi qoidalar o‘zaro izchillikka, bog‘liqlikka asoslangan 24 ta moddada jamlangan. Ana shu asosda mamlakatimizda o‘zbek tilning jadal taraqqiyoti tamoyillarini tayin etadigan, shu yurtda istiqomat qiladigan boshqa millatlarning ham yuragiga g‘ulu solmaydigan benihoya xolis til siyosati shakllandi⁷⁰. Qonun o‘zbek xalqining milliy va ona tilisi bo‘lgan o‘zbek adabiy tilining huquqiy asosi hisoblanadi.

⁷⁰ Махмудов Н. Давлат тили ва умуминсоний қадриятлар // Til va adabiyot ta’limi, 1999. – № 5-6. – B. 20-30.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son da turgan dolzarb vazifalardan. "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy- tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida", 2020-yil 11-martdagi 139-son "O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlari mustaqillik yillarida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini ko‘tarishga doir salmoqli ishlar qilinganligining yorqin isbotidir.

Taniqli tilshunos olim N.Mahmudov istiqlol davri o‘zbek tilshunosligida ro‘y bergan o‘zgarishlar, xususan, yangi o‘zbek lug‘atchiligi davri haqida quyidagilarni yozadi: "Mustaqillik davrida tilimizning lug‘at boyligi tarkibida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Tabiiyki, bu ulkan ma'naviy xazinani endi yangidan mufassal to‘plash va tavsiflash uchun faqulodda katta ehtiyoj tug‘ildi. Ana shuning uchun ham ma'naviyatni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e'lon qilgan hukumatimiz maxsus qaror va dastur qabul qildi (Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 10 sentyabrdagi 311-sonli qarori). Unda o‘zbek tilining ko‘p jildli yangi izohli lugatini tuzish vazifasi ham ko‘rsatib o‘tilgan edi. Shu vazifaning ijrosi o‘laroq O‘zFA Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan yangi 5 jildli «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (A.Madvaliev tahriri ostida) yaratildi.

Bu lug‘at akademik A.Hojiev, professor E.Begmatov, E.Umarov, N.Mahkamov, A.Madvaliev, Z.Mirahmedova, D.Xudoyberganova, M.Sodiqova kabi taniqli tilshunoslarning, tahrir hay'ati rahbari professor T.Mirzaevning mashaqqatli va muntazam izlanishlari, zargarona mehnatlari mahsulidir. Aytish mumkinki, mazkur

lugʻat oʻzbek tilshunosligidagi, xususan, oʻzbek lugʻatchiligidagi oʻziga xos bir taraqqiyot bosqichini tayin etadigan, tilimizning soʻz boyligini koʻz-koʻz qiladigan moʻtabar manbadir, ayni paytda u mustaqillik sharoitida tilimizning tabiatiga tamomila mos tarzda yaratilgan tillo sandiq sifatida madaniy-maʼrifiy hayotimizdagi chinakam tarixiy voqea hamdir⁷¹.

3.2.2. Mustaqil Oʻzbekistonda alifbo islohoti

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamiz mustaqilligi yoʻlidagi dastlabki qadamlardan edi. Negaki, mustaqillik milliy tildan ayri boʻlgan emas. Oʻz davlat tilining mavjudligi mustaqil yurtning muhim belgilaridan biridir. Oʻzbekistonning mustaqil davlatga aylanishi tufayli yuzaga kelgan sharoitlar, istiqlol mafkurasi talablari va imkoniyatlari oʻzbek tilining rivojiga yoʻl ochgan boʻlsa, shu bilan birga oʻzbek tilining talab darajasidagi alifbosini yaratishni eng muhim va tezda amalga oshirilishi lozim boʻlgan masala sifatida kun tartibiga qoʻydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimizning yirik, taniqli ilm-fan, jamoat arboblari, mutaxassis olimlari oʻzbek tili uchun yangi alifboga oʻtish zarurligini, bu biz uchun lotin yozuviga asoslangan alifbo boʻlishi lozimligi toʻgʻrisida ommaviy axborot vositalarida, matbuotda turkum chiqishlar qila boshladilar. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutining katta ilmiy xodimi Suyun Qorayev “Yozuvimiz takomilga muhtoj” maqolasida joriy kirill-oʻzbek yozuvidagi muammolar haqida gapirar ekan, shunday fikrlarni bayon qiladi: “Yozuvning mukammalligi shu xalq madaniyatining eng muhim koʻrsatkichlaridan biridir. Kirillitsaga asoslangan hozirgi oʻzbek yozuvi tilimizdagi milliy soʻzlarning nozik farqlarini ifoda eta olmaydi... Lotin yozuvi dunyodagi yozuvlar orasida eng takomillashganidir. Uni milliy til xususiyatlariga moslashtirish oson. 1929-yildan 1939-yilgacha davom etgan oʻn yillik tajriba lotin yozuvining oʻzbek tiliga juda mos ekanligini koʻrsatgan edi⁷²”.

⁷¹ Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий ўйи, 2012.

⁷² Қораев С. Ёзувимиз такомилга мухтож./Ўзбекистон адабиёти ва санъати газ. 1991 йил 23 август, 34-сон, 5- бет.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi Ubaydulla Karimovning matbuotda e‘lon qilingan “Madaniy millat bilan bir qatorda” maqolasi ham milliy yozuv uchun lotin alifbosining afzalliklari qayd etilgan. Muallif maqolasini ushbu jumlar bilan yakunlaydi: “...fan va texnika yuqori sur‘atlar bilan taraqqiyot etayotgan hozirgi paytda umumbashariy yutuqlardan unumli foydalanish hamda bundan buyon ham ilg‘or madaniy millatlar bilan bir qatorda kelajak tomon odim tashlash uchun lotin yozuviga o‘tish aqlga muvofiq ko‘rinadi”⁷³. Bu ruhdagi maqola va chiqishlar ko‘payib bordi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muxbir a‘zolari I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubov, filologiya fanlari doktorlari N.Mahmudov, E.Begmatov, filologiya fanlari nomzodlari. A.Jobborov, A.Rafiyev va A. Madvaliyevlar singari obro‘li jamoa tomonidan “Xalq so‘zi” gazetasida “Tilimiz jozibasining tilsimi” nomli maqola e‘lon qilindi⁷⁴. Unda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining yangi loyihasi gazetxonlar diqqatiga havola qilindi. 1929 yilda Samarqandda imlo bo‘yicha o‘tkazilgan qurultoyda qabul qilingan lotin harfli alifbo yangi alifbo uchun asos sifatida taklif qilindi (qarang: 3 jadval). Falsafa fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Qo‘chqor Xonazarov va falsafa fanlari nomzodi G.Mansurova hammuallifligidagi “Alifbo xususida” maqolasida mustaqillik siyosatining bosh maqsadi xalqimizning toptalgan obro‘cini qayta tiklash, O‘zbekistonni jahonning taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqish ekanligi ta’kidlanib, ana shu ulug‘ maqsadlar yo‘lida milliy alifbo ham xizmat qilishi lozimligi ko‘rsatilgan⁷⁵. Alifboni o‘zgartirish zaruratini akademik Erkin Yusupov shunday izohlagan: “Til taraqqiyotida alifboni o‘zgartirishning ikki sababi bor: biri – mavjud alifbo imkoniyatlari til taraqqiyotidan orqada qolgani, uning yangi bosqichidagi talablarga javob bera olmagan; ikkinchisi esa, bir millat, xalq, mamlakat boshqalar tomonidan zabt etilib, mahalliy imkoniyatlar zo‘rlilik bilan ta’qib etilganligidadir⁷⁶”. Bizningcha, o‘tgan asr 20-yillarida arab alifbosi asosidagi yozuvimizning isloh

⁷³ Каримов У. Маданий миллат билан бир қаторда. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газ. 1992 йил 29 май, 22- сон, 5-бет.

⁷⁴ Муаллифлар жамоаси. Тилимиз тилсимининг жозибаси./Халқсўзи, 1993 йил 28 июль., 4-бет.

⁷⁵ Хоназаров Қ., Мансурова Г. Алифбо хусусида./Халқ сўзи, 1993 йил 9 октябрь, 3-бет.

⁷⁶ Юсупов Э. Ўзбек миллий алифбоси (давра суҳбати). /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 13 август, 2-бет.

qilingani, ko‘p o‘tmay undan voz kechilib, lotin harfli yozuvga o‘tilishi yuqorida keltirilgan ko‘chirmaning birinchi sababiga to‘g‘ri keladi. Bizning kirill harfli o‘zbek alifbomizdagi xato va kamchiliklar, shu tufayli tug‘ilgan yangi alifboga o‘tish zarurati esa ko‘rsatilgan ikkinchi sabab bilan izohlanadi. Ko‘pchilik filolog, tarixchi va faylasuf olimlarning fikricha, 1929-yilda qabul qilingan lotin-o‘zbek alifbosidan kirill asosidagi alifboga o‘tishning aslida o‘zbek xalq uchun zarurati bo‘lmagan. Alifboning o‘zgartirilishi o‘zbek xalqining yozuvini tuzatish uchun emas, balki hukmron tuzum manfaatidan kelib chiqib amalga oshirilgan. Bu jarayon to‘la majburiyat ostida kechgan. Barcha sohalarda rus tilining to‘la amaliyoti uchun ishlar olib borildi. Shu maqsadda rus tilini milliy maktablarda o‘qitishni yengillashtirish, umuman rus tili ruhini o‘zbek xalqi yozuviga, tiliga singdirish nazarda tutildi. Bu ishlar avvalo alifbo tuzishdan boshlandi. Kirillcha o‘zbek alifboda o‘zbek tilining tovush-talaffuz xususiyatlari hisobga olinmadi, balki u rasmiy mafkura talablariga moslashtirildi. Rus alifbosiga xos harflar va belgilar deyarli aynan ko‘chirildi⁷⁷. Kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosining o‘zbek tili tovush tizimiga mos bo‘lmaganligini ushbu alifbo qabul qilingach (1940), o‘zbek tilining imlo qoidalari oradan 16 yil o‘tgandan so‘ng, ya‘ni 1956-yildagina tasdiqlanganidan ham bilish mumkin. Chunki nomukammal, tilning milliy xususiyati asoslariga qurilmagan alifbo imlo qoidalarining tez va to‘g‘ri ishlab chiqilishiga to‘sqinlik qildi. Alifbodagi kamchiliklar imlo, alifbosiga o‘tish arafasida tilshunos olimlar, mutaxassislar, ona tili o‘qituvchilari, ziyolilar, keng jamoatchilik tomonidan kirillo‘zbek alifbosidagi kamchilik sifatida ko‘rsatilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: - unli harflar sonining unli tovushlar sonidan kam ekanligi, ya‘ni tildagi barcha unli fonemalar uchun harflar olinmaganligi; - qator unli harflar o‘zbek so‘zlarida bir xil, rus tilidan olingan so‘zlarda boshqa xil tovushlarni bildirishi; - bir qancha tovush uchun harflar tayin etilmaganligi; - o‘zbek tiliga xos bo‘lmagan tovushlar uchun harf va belgilar kiritilganligi. Bu kabi kamchiliklar bois alifbo va imlo birligi, imlo va talaffuz munosabati kabi muhim masalalar to‘g‘ri hal qilinmadi, imloda istisnolar, qo‘shimcha qoidalar ko‘paydi, o‘qish-o‘qitish ma‘lum

⁷⁷ Қўчқортоев И. Ўзбек миллий алифбоси (давра суҳбати) /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 13 август, 2-бет.

ma'noda qiyinlashdi. Alifboni almashtirish oson ish emas. Avvalo, buning uchun juda katta mablag' sarflash zarur bo'ladi. Ikkinchidan, alifboni almashtirish bilan hamma ma'lum ma'noda savodsizga aylanadi, yangitdan savod chiqaradi. Ammo shularga qaramay, o'zbek xalqining kelajagini o'ylab va bu istiqbolda o'z samarasini ortig'i bilan qaytarishini ko'zda tutib O'zbekiston Respublikasi o'zbek lotin alifbosiga o'tishga qaror qildi. O'zbek kirill alifbosini almashtirish haqida gap boshlangandan keyin jamoatchilikka ikki nuqtai nazar havola qilinadi: 1) o'zbek kiril alifbosini talab darajasida o'zgartirib saqlab qolish; 2) o'zbek kiril alifbosidan voz kechib, avvalgi alifbomizga qaytish. Ko'pchilik ikkinchi nuqtai nazarni yoqlab chiqdi, o'zbek arab alifbosini va o'zbek lotin alifbosini targ'ib etish avj oldi. Nihoyat, ko'pchilik turkiyzabon millatlar bilan bahamjihat o'zbek lotin alifbosiga qayta o'tish ma'qul topildi. Bunday qaror ijtimoiy-siyosiy jihatdangina emas, balki madaniy-ma'rifiy jihatdan ham to'g'ri. Biz o'zbek lotin alifbosini tanladik. Bunda juda ko'p omillar hisobga olindi, albatta. Birinchidan, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini, ayniqsa, kelajagini o'ylab ish tutish lotin alifbosini tanlash to'g'ri bo'lganini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi dunyo miqyosiga chiqmoqda. G'arb sivilizatsiyasi tomon harakat qilar ekanmiz, alifboni tanlashda ham buni hisobga olindi G'arb dunyosidagi eng taraqqiy etgan millatlarning deyarli barchasi lotin harflari asosidagi milliy alifbolar bilan ish yuritadi. Umuman, lotin alifbosi – dunyoda eng keng tarqalgan alifbo. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyo miqyosiga chiqish, xorijiy davlatlar bilan bevosita diplomatik munosabatlar o'rnatish dunyoda eng keng tarqalgan tillarni – ingliz, ispan, fransuz, nemis tillarini bilishimizni taqozo etmoqda. Lotin alifbosiga o'tilishi o'zbeklarning g'arb tillarini o'rganishini yengillashtirdi. Uchinchidan, lotin alifbosiga o'tish masalasini faqat o'zbeklargini ko'tarib chiqqani yo'q, balki ko'pgina turkiyzabon millatlar ham shu yo'lni tutdilar. Shu o'rinda yana bir holatni alohida ta'kidlash joiz. Avvallari alifboni almashtirish yuqoridan berilgan ko'rsatma bilan amalga oshirilgan bo'lsa, bu gal dastlab ziyolilarimizning o'zi tashabbus ko'rsatdi va bu tashabbusni xalqimiz va hukumatimiz qo'llab-quvvatladi⁷⁸. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy istiqlolni mustahkamlash maqsadida ijtimoiy sohaga, xususan, milliy

⁷⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Тошкент: Университет, 1999. – Б.15-16.

qadriyatlarni tiklash va e'zozlashga alohida e'tibor qaratildi. Ona tili va milliy yozuv ana shunday buyuk qadriyat sifatida mustaqil davlatimizning har tomonlama kamol topishi hamda umumjahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda Respublikamizda 1993 yil 2 sentyabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» qonun qabul qilindi. Aytish kerakki, 1991-92 yillarda o'zbek yozuvi muammolari bilan bog'liq yangi davr boshlangan edi: bu davrda ruschalashtirilgan o'zbek alifbosini boshqa tizimdagi alifbo bilan almashtirish g'oyasi paydo bo'ladi va shu g'oya atrofida to'rt xil yo'nalish shakllanadi. Birinchi yo'nalish tarafdorlari o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitga ko'chirish masalasini o'rta qo'yadi; ikkinchi yo'nalish tarafdorlari arab grafikasidagi eski o'zbek yozuviga qaytishni yoxud uni (eski yozuvni) ma'lum vaqt amaldagi yozuv bilan parallel qo'llashni, shu tarzda bu ikki yozuvdan birining tanlanishini vaqt ixtiyoriga berishni taklif qiladilar; uchinchi yo'nalish tarafdorlarining aniq shakllangan xulosa va takliflari bo'lmasa-da, ularning fikrlarida qadimgi turkiy (urxun) alifbosini tiklashga moyillik bordek tuyuladi; to'rtinchi yo'nalish tarafdorlari esa amaldagi alifboni ma'lum o'zgarishlar bilan saqlash kerakligini aytishadi. Yuqoridagi yo'nalishlarning tarafdorlari o'rtasidagi bahslar, oxir oqibatda, o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifboga ko'chirish g'oyasining ustun kelishi bilan yakunlanadi.

O'zbek yozuvini rus grafikasiga asoslangan alifbodan boshqa alifboga ko'chirish masalasi aslida 1991-1992 yillarda ko'tarildi. Uning kun tartibiga qo'yilishini quyidagicha izohlash mumkin: a) amaldagi alifboning milliy va umumturkiy jihatlarini mustahkamlash yuzasidan uzoq yillar davomida olib borilgan ishlar (bahslar, munozaralar, taklif-tavsiyalar) natija bermadi; b) sobiq SSSRdagi turkiy xalqlar orasida yozuvni rus grafikasidan boshqa tizimga ko'chirish harakati boshlanib ketdi; v) 1991 yilning 18-20 noyabrida Turkiyada (Istanbuldagi Marmara universitetida) «Qardosh turk alifbolari» muammosiga bag'ishlangan xalqaro simpozium o'tkazildi, unda ham lotin grafikasi asosida turkiy alifbolar tuzish g'oyasi targ'ib qilindi. 1993 yilning 2 sentyabrida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonun qabul qiladi. Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib

va o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929–1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarini inobatga olgan holda respublikaning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. 1-modda. O‘zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan, quyidagi 31 harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat o‘zbek alifbosi joriy etilsin. 1-modda. Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini joriy etish bilan birga O‘zbekiston xalqining milliy iftixori bo‘lmish bebaho ma’naviy meros bitilgan arab alifbosini va kirillitsani o‘rganish va ulardan foydalanish uchun zarur sharoitlar saqlab qolinadi. Qonunga muvofiq yangi o‘zbek alifbosining tarkibi quyidagi 31 harf va 1 ta tutuq belgisidan iborat deb belgilanadi. 1995-yilning 6-mayida O‘zbekiston Oliy Majlisi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirish kiritadi. Shunday qilib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining o‘zgartirilgan yangi varianti quyidagi ko‘rinishda tasdiqlanadi. Respublika Oliy Majlisi qaroriga binoan 1996-yil 2-sentyabridan boshlab umumta’lim maktablarining birinchi sinflarida va maktabgacha tarbiya muassasalarida yangi o‘zbek alifbosini va imlosini o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlar boshlandi, davlat muassasalari va tashkilotlarda lotin yozuvidagi o‘zbek alifbosini o‘rgatish kurslari ish boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 21-dekabrda «Davlat tili haqida»gi qonunining yangi tahlilini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida»gi qarorida lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini o‘rganish barcha bosqichdagi o‘quv yurtlari va muassasa, tashkilotlarda 2005-yilning birinchi sentyabrida tugallanadi hamda shu muddatdan boshlab respublikamizda barcha sohalarda davlat tilida ish yuritish yangi alifboda olib boriladi deb ko‘rsatildi. Bu muddat keyin 2010-yil etib belgilandi. Hozircha masala ochiqlicha turibdi. O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 1995-yilning 5-6-may oyida qabul qilingan tomonidan qabul qilingan respublika qonuni o‘sha paytdanoq boshlang‘ich ta’lim tizimiga joriy qilindi. Bu alifbo va imlodan savod chiqargan o‘quvchilar hozirda o‘ttiz yoshga kirdi. Lekin hali-hanuz mamlakatimizda o‘zbek tilini bu yozuvga o‘tkaza olmadik.

1993-yil 2-sentyabrda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida qonun chiqqan bo‘lsa-da bu to‘g‘rida 1995-yilda yangi tahrirdagi qonun

qabul qilindi. O‘shanda yangi yozuvga to‘liq o‘tish muddati 2005-yil etib belgilangan edi. Keyinchalik bu muddat o‘zgartirilib 2010-yil deb ko‘rsatildi. Shundan beri yana 14 yil o‘tdi hamki, bizda respublika miqyosida yagona alifbo va imlodan foydalanishni ta‘minlashga muvaffaq bo‘linmadi. Bunga joriy alifbo va imlodagi ayrim kamchiliklar ham sabab bo‘lmoqda. Ma‘lumki, dunyodagi tillar uchun qabul qilingan alifbo hech qachon muayyan tildagi nutq tovushlarini yuz foiz ifodalagan emas. O‘zbek tili ham bundan mustasno emas. Masalan, darang‘ladi, dong‘, qo‘ng‘iz so‘zlaridagi ng‘ tovushi alifbomizda o‘z belgisiga ega emas. U yozuvda n va g‘ harflari birikmasi ng‘ bilan ifodalanadi. O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashabbusi bilan uyushtirilgan, alifbo va imlomizni takomillashtirishga qaratilgan fikrlar to‘qnashuvi ijtimoiy tarmoqlarda bir yarim yildan beri ko‘rilmoqda, ba‘zan matbuotda muhokama qilinmoqda. Ularda bildirilayotgan fikr-mulohazalar, ilgari surilayotgan takliflar turli-tuman bo‘lsa-da, yozuvimiz muammolarini hal qilish maqsadiga qaratilgan. Alifbo va imloni takomillashtirish bo‘yicha bildirilayotgan fikrlar va mulohazalar orasida quyidagi qarashlar ustun: a) sh, ch, ng harf birikmalarini bitta harflar bilan ifoda etish. Ya‘ni: Sh sh o‘rniga Š š; Ch ch o‘rniga Čč; NG ng o‘rniga Ņ ņ harflarini olish (1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan variantdagi kabi); b) harf belgisiga ega bo‘lgan O‘o‘ o‘rniga Ö ö; G‘ g‘ o‘rniga Ğ ğ harflarini olish, bosma o‘ va g‘ harflarini ularning yozma shakli bilan birxillashtirish; d) rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan sirk, sirkul, sex kabi so‘zlar tarkibidagi birinchi tovush uchun s harfini qabul qilish. e) sirg‘aluvchi j (jurnal so‘zi boshidagi undosh) va qorishiq j (jo‘ja so‘zi bo‘g‘in boshidagi undoshlar) uchun ayrim harflar olish. Masalan, professor Sh.Sirojiddinov bu borada shunday fikr bildiradi: “sh, ch, ng tovushlarini ifodalashda ham murakkablik yuzaga keldi, ya'ni bir tovush ikkita harf bilan – harflar birikmasi orqali ifodalash yozuv amaliyotida ko‘p harf ishlatishga, ko‘p kuch va vaqt sarflashga olib keldi”. Shuningdek, “O‘o‘ va G‘g‘ harflarining bosma shaklini yozish murakkablashdi, ya'ni o va g harflarining yoniga maxsus diakritik belgi (‘) qo‘yiladigan bo‘ldi. Bu esa lotin yozuvidagi matnlarning kengayib ketishiga sabab bo‘ldi, Masalan, o‘g‘il – o‘g‘il kabi. Ayni paytda lotin yozuvidan foydalanishda tutuq (˘) va diakritik (‘) belgilarni chalkashtirish holatlari ko‘p”. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

(ToshDO‘TAU) ishchi guruhi loyihasi sifatida Nizomiddin Mahmudov nomidan bilan internet tarmog‘ida taqdim qilingan maqolada ham yuqoridagi fikrlar bilan mos. Faqat olim jo‘ja, jo‘ra, jon, jahon, tijorat, rivoj kabi so‘zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun C c (“dj”) harfini olish; 2) jurnal, ajdar, garaj, tiraj kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi jarangli sirag‘luchli undoshni ifodalash uchun J j (“j”) harfini belgilashni taklif qilgan. Filologiya fanlari nomzodi T.Tog‘ayev esa alifboga o‘zgartirish kiritishga qarshi chiqadi: “harf birikmalari (sh, ch, ng) o‘rniga bitta harf, qo‘shimcha belgili harflar (O‘, G‘) o‘rniga yaxlit belgili harflar bo‘lgani afzal. Ammo joriy alifbomiz shularsiz ham xalqimizning ta'lim-tarbiya, savodxon chiqarish va oshirish, umuman, yozuv bilan bog‘liq barcha yumushlariga zarur darajada bemalol yarab turibdi Aksincha, alifboga yana, navbatdagi o‘zgartirish kiritish bilan kelib chiqadigan muammolar taraqqiyotimizga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin”. Olimning fikricha, hozir alifbo yana almashtiriladigan bo‘lsa, yana qancha hujjatlar, kitoblar, darslig-u qo‘llanmalar – xullas, ancha narsalarni o‘zgartirishimiz kerak. Bu ko‘p xarajat, mehnatni talab qiladi, ayrim chalkashliklarga, hatto talafotlarga olib keladi. Qolaversa, jahon hamjamiyati oldida beburd bo‘lib qolishimiz ham mumkin. Negaki, bu alifbo va imlo borasida so‘nggi 100 yil ichida qilingan oltinchi islohot bo‘ladi. Chunki: - alifboni almashtirish 1928, 1940, 1993-yillarda bo‘lib o‘tdi, 65 yil ichida o‘zbek alifbosi 3 marta boshqasiga o‘zgartirildi; - alifbo va imlo islohoti 1921, 1922, 1923, 1934, 1995-yillarda amalga oshirildi, 67 yil ichida o‘zbek imlosi 5 marta tuzatildi. Yana isloh qilinsa, bu 6-si bo‘ladi.

Inglizlarning yozuviga qarasaq, bir so‘zdagi nutq tovushlari va ularni ifodalaydigan harflar ko‘pincha bir-biriga mos kelmaydi, ya'ni necha zamondan buyon bir narsani yozib, boshqa narsani talaffuz qiladilar, lekin bu ularning yozuvlarini to‘g‘ri yuritish va savodxonligiga hech to‘siq bo‘layotgani yo‘q. Ishchi guruhning bo‘lib o‘tgan yig‘ilishlarida (2016-yil 14-dekabr) TDO‘TAU professor-o‘qituvchilaridan Z.Xolmonova, M.Qurbonova, T.Tog‘ayevlar joriy alifboga o‘zgartirish kiritishga qarshi bo‘ldilar. Joriy alifbomiz shularsiz ham xalqimizning ta'lim-tarbiya, savodxon chiqarish va oshirish, umuman, yozuv bilan bog‘liq barcha yumushlariga zarur darajada bemalol yarab turibdi. Aksincha, alifboga yana, navbatdagi o‘zgartirish kiritish bilan kelib

chiqadigan muammolar taraqqiyotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, deya fikr bildirdilar. Faqat imloni takomillashtirish, joriy imloga tuzatish va qo'shimchalar kiritish fikrini yoqlab chiqdilar.

Biz ham bu masalada muhtaram olimlarimizning ko'pchilik fikrlariga qo'shilamiz. Lekin shu paytgacha ommaviy axborot vositalarida munozaraga qatnashgan ko'pchilikning fikrini, takliflarini inobatga olsak, birinchidan, sh, ch, ng harf birikmalarining har qaysini bitta harf bilan ifoda etish lozim. Shunda biz ortiqcha urinish, harakatdan qutilish bilan birga bu masalada qardosh turkiy xalqlar alifbosiga uyg'unlashamiz. Ikkinchidan, O' o' o'rniga Ö ö; G' g' o'rniga Ğ ğ harflarini olish bosma o' va g' harflarini ularning yozma shakli bilan birxillashtirishadi hamda biz yozuvda tutuq va harf belgisidagi chalkashliklardan qutilamiz. Negaki, turli yozma matnlarda, reklamalarda o', g' o'rniga o', g' ni farqlamay yoki e'tibor bermay yozish shunchalar ko'p uchraydiki, yuqoridagi tadbir bilan bunga chek qo'yilar edi deb o'ylaymiz. Rus tilidan o'zlashgan sirk, sirkul, sex kabi so'zlar tarkibidagi birinchi tovush uchun s harfini qabul qilishga hojat yo'q, chunki o'zbek tilida bunday tovushning o'zi yo'q. Nega biz boshqa tilda bo'lgan nutq tovushi uchun alifbomizda harf olishimiz kerak. Bu masalada (s tovushini o'zbek yozuvida ifodalashda) professor Sh.Rahmatullayev bergan qoidani to'g'ri deb hisoblaymiz. Sirg'aluvchi j (jurnal so'zi boshidagi undosh) va qorishiq j (jo'ja so'zi bo'g'in boshidagi undoshlar) uchun alohida harflar olishni ham yoqlamaymiz. Ta'lim nuqtai nazaridan bu o'zini oqlamaydi. Chunki joriy alifboda sirg'aluvchi va qorishiq undoshlar uchun J j harfi bilan yozib kelishga o'rganib, bunga ko'nikma hosil qilganimizda, ularni ajratish chalkashlik tug'diradi. Bahsmunozaralarga sabab bo'lib kelayotgan ushbu muammolarni hal qilish maqsadida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini keng joriy etish va yanada takomillashtirish bo'yicha harakatlar rejasi" Respublika Bosh vazir A.Aripov va Prezident maslahatchisi X.Sultonovlar tomonidan 2018-yilning 15-may sanasi bilan imzolandi. Chora-tadbirlarning birinchi moddasida quyidagilar aks etgan: "O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 1995-yil 6-maydagi qonunni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbek

tilining asosiy qoidasini tasdiqlash haqida” 1995-yil 24-avgustdagi qarorini takomillashtirish”. Muddati - 2018 yilning sentyabr oyi. Buning mazmuni shuki, joriy alifbo va imlo takomillashtirilishi rasman e'lon qilindi. Ammo masala yana ochiqlicha qoldi va hech qanday yechim berilmadi. Afsuski, alifbo va imlo muammolariga bugungi kungacha ham ko‘z yumib kelinmoqda.

3.3. XXI asr birinchi o‘n yilliklarida O‘zbekistonda til siyosati: bilingvizm va polilingvizm sharoitida o‘zbek tili

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining, uning iste’mol qilinish doirasini kengaytirishning, o‘zbek tilini o‘qitish sifatini yaxshilashning muhim kafolati sifatida qaralmog‘i lozim. Ayni vaqt, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi respublika hududida yashovchi boshqa millatlar tillarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda foydalanishiga monelik qilmaydi.

2005-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 139 millat vakillari istiqomat qiladi. Hozirgi kunda o‘zbeklar O‘zbekiston aholisining deyarli 4/5 qismini tashkil qiladi. Shuningdek, aholining 4,0 foizini ruslar, deyarli 5 foizini tojiklar, 4,5 foizini qozoqlar, 1,8 foizini tatarlar tashkil qiladilar. Demokratik O‘zbekistonda aholining ko‘pmillatlilik darajasi yanada o‘smoqda. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, o‘zbek tili O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi turkiyzabon fuqarolar va qisman, tojiklar uchun millatlararo til bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida e’tirof etilar ekan, hududagi tillarning faoliyat ko‘rsatishi, rivojlanishi va boshqa millat vakillarining o‘z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni 24 moddadan iborat bo‘lsa, shundan beshtasida boshqa millat va elatvakillari tillarining erkin amal qilishi himoya qildinadi. Bu qonunni boshqa millatlarni hurmat qilish, kamsitmaslik, aniqrog‘i, millatparvarlik, xalqparvarlik, erkinlik tamoyillariga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Davlat tili haqidagi qonunning 4-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi”, – deb yozilgan. Demak, Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida barcha millatlar va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish belgilangan va ta‘minlangan.

Davlat fuqarolarning davlat tilini o‘rganishlari uchun zarur iqtisodiy, huquqiy chora-tadbirlar ko‘radi va eng shart-sharoitlar yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasida uning hududida yashovchi barcha millatlar va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi.

Mazkur moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, respublikada yashovchi, ammo davlat tilini bilmaydigan fuqarolarga Davlat tomonidan bepul o‘qitish ta‘minlanadi.

Fuqarolarga bunday g‘amxo‘rlik, birinchi navbatda, ularning ish va o‘qish joylarida ko‘rsatilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etilishi qayd etilgan.

Qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi (6- modda).

Qonunning yuqoridagi moddalari mamlakatimiz milliy siyosatining bosh tamoyiliga asoslangan bo‘lib, fuqarolarga ta‘lim tilini erkin tanlash huquqini berish barobarida ta‘lim to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy me‘yorni rivojlanishiga asos bo‘ldi. –Yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti

mavzusidagi xalqaro konferensiyada e'tirof etilgani va ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi 7 ta: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida ta'lim beradigan 1906 ta maktab mavjud bo'lib, ularda 725 ming nafar o'quvchi ta'lim oladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilini o'qitishga e'tibor kuchaydi, dars soatlari ko'paydi, umumta'lim maktablari uchun yangi zamonaviy andozalarga mos tarzda umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yangi ona tili darsliklari va o'quv lug'atlari yaratildi.

Bunday demokratiya va xalqparvarlik boshqa biror davlatda kuzatilmaydi. Bu ham O'zbekiston Respublikasining til siyosati va "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston o'zbeklarnikigina emas, balki O'zbekistonda yashayotgan barchaniki degan davlat siyosatining singdiril-ganligini ko'rsatadi.

Demak, yurtimiz tinchligi, osoyishtaligi yo'lida barcha xalq vakillarining bu yurtni o'z Vatanim deb, uning ravnaqi yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib hamjihatlik bilan mehnat qilishlari uchun respublikamizning boshqa qonunlari kabi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunida ham puxta zamin yaratilgan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi boshqa milliy tillarni qo'llashda cheklashlarni va ularga nisbatan mensimay qarashni nazarda tutmaydi. Davlat barcha milliy tillarning erkin amal qilishi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy hamda huququiy choralarni ko'radi, o'zbekcha-ruscha, ruscha-tojikcha va boshqa ikki tillilikni hamda ko'ptillilikni turli xil yo'llar bilan rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari, qaysi til ularning ona tili ekanligidan va ular o'zaro qaysi tilda muloqotlashishlaridan qat'i nazar, teng huquqlidirlar. Ularning huquqlari, erkinligi va qadr-qimmati biror-bir tilni bilishlari yoki bilmasliklariga qarab kamsitilishi va cheklab qo'yilishi mumkin emas. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini kamsitishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, tashviqot va targ'ibot qonun bo'yicha jazolanadi, bunday g'ayri-huquqiy xatt-harakatlarni sodir etgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan

ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Ularga nisbatan, shuningdek, jamoatchilik tomonidan ta'sir choralari ham ko'rilishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 42-moddasiga muvofiq, fuqarolarning tarbiya va ta'limda tilni erkin tanlash to'g'risidagi huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'siqlar hamda cheklashlar vujudga keltirish davlat tiliga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yashovchi xalqlar va elatlarning tillariga mensimay qarash eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi. Bunday huquqbuzarlik haqidagi ish tuman yoki shahar sudyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Biroq o'zbek xalqining bu bag'rikengligi suiste'mol qilinib, mazkur qonunning to'liq kuch bilan ishga tushirilishida to'siq bo'lib qolmoqda. Vaholanki, qonun loyihasi ishlab chiqilayotgan ilk yillarda M. Kenjaboevning "Dildoshlik" maqolasi chop etilgach, ikki tillilikka bag'ishlangan Toshkent konferensiyasida O'zSSR FANing til va adabiyot instituti direktori B. Nazarov tomonidan 1988 yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi ko'tarib chiqilgan edi. Shundan so'ng davlat tili to'g'risidagi qonunning 1-loyihasini tuzishga kirishilgan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish yo'lida bir necha to'siqlar mavjud edi.

Birinchi to'siq – V.Leninning davlat tili haqidagi qarashlarini yo'qqa chiqarishdagi qiyinchiliklar, siyosiy to'siqlar.

Ikkinchi to'siq – o'zbek tilining davlat tili maqomiga loyiq til ekanini isbotlash.

Uchinchi to'siq – rus tilini ikkinchi davlat tili sifatida belgilashni rad qilishga yetarli asoslar keltirish.

To'rtinchi to'siq – O'zbekistonda yashab, o'zbek tilini bilmaydiganlar taqdiri masalasi.

Beshinchi to'siq – o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish bilan bog'liq moddiy masala⁷⁹.

⁷⁹ Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент, 1992.

Xalq irodasi bilan amalga oshirilgan va katta ma'naviy jasorat evaziga qo'lg'a kiritilgan til mustaqilligi, natijada O'zbekiston qonunchiligining ko'plab jabhalariga tegishli mas'uliyat yukladi.

Qonunning 243-moddasida "O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar", – deb belgilangan. Mazkur moddada turli xil yo'llar bilan millatlararo nizoni keltirib chiqarish- ning oldini olishga va qat'iy yo'l qo'ymaslikka, milliy or-nomusni haqorat qilishyoki kamsitish natijasida yetkazilgan ma'naviy zararni qoplashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining g'ururi va or-nomusi sud tartibida ham himoya qilinadi. Mazkur modda, boshqa qonunlar kabi milliy adovat va nafratni targ'ib etuvchi tashkilotlar hamda guruhlarning faoliyatini man qiladi.

Mansabdor shaxslar respublika davlat tilini bilmaslikni ro'kach qilib, fuqarolarning arizalari, shikoyatlari va takliflarini qabul qilishdan va ularni ko'rib chiqishdan bosh tortish huquqiga ega emasdir. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqlarini amalgam oshirishga to'sqinlik qiluvchi barcha xatti-harakatlar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etilishi qayd etilgan. Demak, Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida barcha millatlar va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish belgilangan va ta'minlangan.

Mustaqillik yillarida 140 ga yaqin millat va elat yashayotgan O'zbekistonda har bir millat va elatning ravnaqi va barqaror taraqqiyotini ta'minlash, ularning xavfsizligi va yashash kafolatlariga har qanday tahdidlarning oldini olish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgandir.

O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ko‘p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o‘zliklarini anglash jarayonlariga bo‘lgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib keldi. Shu o‘rinda 1989-yili madaniyat vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta’kidlash lozimdir. Agarda 1990-yillarning boshlarida O‘zbekistonda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, hozirgi kunda kelib ularning soni 80 dan ortdi. Mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyati ustidan muvofiqlashtiruvchi ishlarning ko‘lami ham ortdi va 1992-yil yanvar oyida hukumat qarori bilan Respublika Baynalmilal Madaniy markazi tashkil etildi.

O‘zbekistonda hozirgi paytda 100 dan ortiq millat va elatlar vakillari yashasada, ularning ichida eng yiriklari – ruslar va rus tillilar, qozoqlar, tojiklar, qirg‘izlar, turkmanlari, tatarlar, qrim-tatarlar va koreyslardir.

O‘zbekistondagi ruslar va rus tillilar deganda etnik ruslar hamda rus tilini ona tilisi hisoblaydigan ukrain, belorus kabi slavyan millatlari vakillarini hamda tatarlar va koreyslarning bir qismini tushunish mumkin. Hozir O‘zbekistonda bu ripdagi aholi 1,5 million kishi atrofidadir. Mamalakatimizdagi rus va rus tillilar asosan poytaxt Toshkent va boshqa yirik shaharlarda yashaydilar, qishloqlarda yashovchi bu tipdgi aholi deyarli yo‘q darajada.

Rus tahlilchisi Roy Medvedevning fikricha, sobiq Sho‘ro tuzumi tugagandan keyin, Markaziy Osiyo davlatlaridan O‘zbekistonda rus tili va ruslarga eng kam bosim o‘tkazildi. Rasmiy Toshkent hamisha rus tili va ruslarga kerakli darajada hurmat va e’tibor ko‘rsatib keldi. Shu sababli ruslarning O‘zbekistondan ko‘chib ketishi, aytaylik, Qirg‘iziston va Tojikistonga ko‘ra oz edi⁸⁰. Rus tahlilchisi 1998-yilda qabul qilingan Davlat tili haqidagi Qonunning yangi tahririda (1995) milliy ozchiliklarga rasmiy tilni o‘rganish va amalda qo‘llash til vajidan anchayin o‘rin berilganligi O‘zbekistonning rus fuqarolarining kayfiyatlariga optimism qo‘shdi, deb hisoblaydi⁸¹.

⁸⁰ Медведев Р. Русский Язык на просторах СНГ - <http://magazines/russ/ru//druzhba/2006/10/mel I.html>.

⁸¹ Медведев Р. Русский Язык на просторах СНГ – <http://magazines/russ/ru//druzhba/2006/10/mel I.html>. (December, 2007)

O'zbekistonda rus tili o'zbek tili bilan bir qatorda, ta'limning har qanday turini olish mumkin bo'lgan til maqomidadir. Mamlakatdagi ruslar yashaydigan barcha shaharlardagi maktablar, litseylar, kollejlari, institut va universitetlarda ruscha ta'lim beradigan sinflar, guruhlar va bo'limlar mavjud. 1996-1997-o'quv yilida O'zbekistonda 384.128 kishi (o'quvchi) rus maktablari yoki rus sinflarida o'qigan. Rus o'quvchilar uchun darsliklarning bir qismi Rossiyadan keltirilgan, asosiy qismi esa O'zbekistonda chop etilgan.

Ruslar g'uj bo'lib yashaydigan Toshkent shahrida 2005-2006-o'quv yilida mavjud 315 maktabning 53 tasi rus maktablari edi, shuningdek, 99 ta maktabda ta'lim o'zbek tili bilan bir qatorda rus tilida olib borilgan. 2006-yilda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida jami 8769 talaba ta'lim olgan va ular O'zbekistondagi umumiy talabalarning 6,99 foizini tashkil etgan⁸².

O'zbekistonning Rossiya bilan geopolitik, siyosiy, iqtisodiy munosabatlari har doim yaxshi bo'lib keldi. Bu esa o'zbek jamiyatida har doim rus tilining obro'-e'tibori yuqori bo'lishini ta'minlab kelgan. Jumladan, respublika teatrlarida ruscha tomoshalar qo'yishning oshishi, maktab va oiliy o'quv yurtlarida rus tili dars osatlarining ko'payishi kuzatilgan. Shuningdek, Toshkentda 2006-yilda Moskva davlat universiteti va Moskva neft va gaz institutining filiallari ham ochildi. Respublikadagi ruslar va rus tilli aholi o'zlarining kelajagiga umid va ishonch bilan qaraydilar.

O'zbekistonda 1994-yilda Rus madaniyati markazi tashkil etilgan edi. Mamlakat viloyat va shaharlarida bu markazning bo'limlari maqomidagi rus madaniy-ma'rifiy uyushmalari mavjud va ularning faoliyati ruslar va rus tili aholining madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Rus madaniy markazning tashabbusi bilan respublikada Pushkin tavalludining 200 yilligi (1999), Visotskiyning 60 yilligi (2000) yubiley tadbirlari o'tkazildi. 1998-yildan beri har yili –Yangra, garmon!! musiqa festivali o'tkazib kelinmoqda. Respublikada

⁸² Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане - <http://www.ia-centr.ru/expert/257/>

ruslarning “Russkiy lapotok”, “Veseliye palochki” folklor ansambillari muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.³

O‘zbekistondagi mahalliy rus va rus tilli aholining diniy ehtiyojlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, O‘zbekistonning barcha yirik shaharlarida pravoslav cherkovlari, Toshkentda katoliklar cherkovi, Samarqadda Armanilar cherkovi faoliyat ko‘rsatmoqda⁸³. 2006-yilda mamlakatda Rus pravoslav cherkovining 125-yilligi keng nishonlandi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda 2 ta ayollar va erkaklar monastri faoliyat ko‘rsatmoqda.

3.4. Mahalliy tillar va ularning rivojlanish imkoniyatlari

Tojiklar mintaqaning tub joy xalqlaridan va O‘zbekiston ularning tarixiy vatani hisoblanadi, bugungi O‘zbekiston hududidagi asrlar davomida shakllangan moddiy va ma’naviy madaniyatning yaratuvchilari safida o‘zbeklar bilan birga tojiklar ham mavjud. Sotsiologik so‘rovnomalar O‘zbekistonda yashovchi tojiklarning 22 foizi o‘zbek tilini o‘z ona tilisi deb hisoblashini ko‘rsatganligi ham bejiz emas⁸⁴. Ayni shu tarafi bilan tojiklar respublikadagi boshqa milliy ozchiliklardan farq qiladilar.

Tojiklar O‘zbekistonning Andijon, Xorazm viloyatlaridan va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan boshqa barcha viloyatlarda o‘zbeklar bilan yonma-yon yashaydilar va aholining 5 foizga yaqinini tashkil etadilar. O‘zbekistonning markazidan joy olgan Samarqand va Buxoro shaharlarida esa tojiklar g`uj bo‘lib yashaydilar.

Qayd etish kerakki, tojik aholining vakillari O‘zbekistondagi davlat va jamoat tashkilotlarining barcha darajalarida faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Shuningdek, respublika hukumati mamlakatdagi tojiklarning milliy-madaniy ta’lim ehtiyojlarini qondirishga jiddiy e’tibor berib kelmoqda. Respublika poytaxti

⁸³ Ислам и толерантность. Пример Узбекистана - [http://www. Fromuz. Com/news/islam_i_tolerantnost_primer_uzb](http://www.Fromuz.Com/news/islam_i_tolerantnost_primer_uzb) (December, 2006)

⁸⁴ Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане - <http://www.ia-centr.ru/expert/257/>(December, 2007)

Toshkentda, tojiklar g`uj yashaydigan Samarqand, Buxoro shaharlarida, Boysun, Sariosiyo tumanlarida (Surxondaryo viloyati), Chust tumanida (Farg`ona viloyati) tojiklarning milliy-madaniy markazlari mavjud⁸⁵.

O`zbekistondagi 282 tojik maktablari va ko`plab maktablardagi tojik sinflarida 100 mingdan ortiq o`quvchilar ta`lim olmoqda, bir qancha universitetlarda, ayniqsa, tojiklar g`uj bo`lib yashaydigan mintaqa shaharlaridagi universitetlarda (Samarqand, Buxoro, Termiz universitetlari) ta`lim tojik tilida olib boriladigan fakultetlar va bo`limlar mavjud⁸⁶. 2006-yilda O`zbekiston oily o`quv yurtlarida 2472 tojik talaba ta`lim olgan va ular jami o`zbekistonlik talabalarning 1,97 foizini tashkil etgan.

Bu ta`lim maskanlari uchun asosiy darsliklar O`zbekistonda tayyorlanib, chop etilmoqda. Tojikistonda darslik yetkazib berish an`anasi to`xtab qolgani tufayli O`zbekistonda tojik tilidagi darsliklar nashr etish 1996-yildan boshlangan va 1997-yildayoq 23 turdagi yangi tojikcha darsliklar maktablarga yetkazib berilgan.² Shuningdek, O`zbekistonda yuz minglab tirajda tojik tilida gazetalar, jurnallar chop etilmoqda, radioeshittirish va teleko`rsatuvlar berilmoqda. O`zbekistonning Tojikistondagi elchisi Sh.Shoislomovning so`zlari bilan aytganda, "O`zbekistondagi tojiklar o`z milliy kimligini saqlab qolishlari uchun barcha shart-sharoitlarga egadir. Ular boshqalardan yaxshi ham, yomon ham yashamaydi, barcha qatori hayotning quvonch va tashvishlari bilan yashamoqdalar"⁸⁷.

Qozoqlar ham tojiklar ham O`zbekistonning tubjoy aholisi hisoblanadi. O`zbekistondagi qozoqlarning miqdori 1 millionga yaqin. Qozoqlar asosan Qoraqalpog`iston Respublikasi (aholining 24,8 foizi), Navoiy viloyati (10,2%), Toshkent viloyati (13,7 %), Jizzax viloyatlarida (6,6 %) yashaydilar. Asosan chorvachilik va boshqa qishloq xo`jalik faoliyati bilan shug`ullanadilar.

O`zbekistonda qozoqlarning madaniy-milliy va ta`limiy ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli sharoitlar yaratilgan. Jumladan, respublika poytaxti Toshkent va

⁸⁵ Шоисломов Ш. Проблемы в Центри Азим раздуваются искусственно <http://www.Avesta/tj/articles/2/83115/html> (30.08.2007)

⁸⁶ O`sha manba.

⁸⁷ Шоисломов Ш. Проблемы в Центри Азии раздуваются искусственно <http://www.Avesta/tj/articles/2/83115/html> (30.08.2007)

qozoqlar yashaydigan hududlarda 50 ta Milliy-madaniy markazlar mavjuddir. Respublikada 522 ta qozoq maktablari bo'lib, ularning 234 tasida darslar faqat qozoq tilida olib boriladi (jami 175 ming o'quvchi). Qozog'iston Respublikasining va O'zbekiston Respublikalari ta'lim vazirliklari o'rtasida bu maktablarni darslik va o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, maktablararo aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha shartnomalar mavjud. Toshkent pedagogika universitetida qozoq tili va adabiyoti fakulteti, Siradaryo, Jizzax, Nukus va Navoiy shaharlaridagi Pedagogika institutlarida ta'lim qozoq tilida olib boriladigan bo'limlar bor. Bu fakultet va bo'limlarda mamlakatdagi qozoq maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlanadi. Toshkent shahri va viloyatiga Qozoq telekanallari doimo olib ko'rsatiladi, –Nurli jo'll nomli respublika gazetasi chop etiladi.

O'zbekistonda mamlakatning qozoq grajdanlariga o'z milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarning mavjudligiga qaramay, Qozog'iston hukumatining mamlakatga dunyodagi etnik qozoqlarni jalb qilish va ko'chirib keltirish xususidagi tutgan siyosati tufayli 1991-2001-yillar orasida Qozog'istonga 180 ming qozoq ko'chib o'tdi. Ularning asosiy qismi (75%) Orol dengizi ekologik halokati yuz bergan Qaraqalpog'istondan ko'chib ketgani diqqatga sazovordir.

Tatarlar tarixning taqozosi bilan butun jahonga tarqalgan turkey xalqlaridan biridir. Butun dunyoda bugun yashayotgan 12 million tatarlarning 2,5 milliongina Tatariston Respublikasi (Rossiya) hududlarida yashaydi. 1552-yilda Ruslar Qozon xonligini bosib olgach, keyingi 450 yil davomida Tatarlar dunyoning 50 ga yaqin davlatiga tarqalib ketdilar.

Markaziy Osiyoga, shu jumladan, O'zbekiston hududlariga Ruslar Turkistonni bosib olishdan ancha ilgari kelishni boshlagan edilar. 1860-yillarda, chor Rossiyasi Turkistonni bosib olganida, bu yerda 5 ming tatar yashar edi. XIX asr oxiri, XX asr boshida Turkistonga tatar savdogarlari, sanoatchilari, ma'ifatpar-varlari va oddiy tatar ishchilari ko'plab kelib o'rnatish boshladilar. Turkistondagi Jadidlar harakatida va Sovetlarga qarshi olib borilgan istilochilik (bosmachilik) harakatida

tatar ziyolilari va vatanparvarlarining roli katta bo'lgan edi (Musa Begiyev, Zaki Validiy, To'g'on va boshqalar). Sovet davri tatarlarning O'zbekistonga ko'chib kelib o'rnashishda 1980-yillargacha davom etdi. Jumladan, 1979-yilgi aholi ro'yxatida O'zbekistonda yashagan tatarlar soni 539 ming kishi edi. 1989-yilgi aholi ro'yxatida esa tatarlar soni 467 ming kishi ekanligi aniqlandi. Demak, tatarlar 80-yillardayoq O'zbekistondan ko'chib ketishni boshlagan edilar. Hozir O'zbekistonda 250-ming tatar istiqomat qiladi, deb taxmin qilinadi⁸⁸.

O'zbekistondagi Tatarlarning uchdan bir qismi, ayniqsa shaharda yashovchi tatarlar rus tilini o'z ona tilisi deb biladi⁸⁹. Bu qism tatarlar, ukrain, belorus va koreyslar bilan bir qatorda o'zlarini rus tillilar toifasiga mansub aholi deb hisoblaydilar. Tatarlarning aksariyat ko'pchiligi o'zbek tilini yaxshi biladi, chunki ular bir-biriga yaqin qarindosh tillardir.

O'zbekistonda tatar tilida mashg'ulotlar olib boruvchi maxsus maktablar mavjud bo'lmasa-da, tatarcha ta'lim beriladigan sinflar Toshkent maktablarida, tatarlar g'uju bo'lib yashaydigan hududlarda (Toshkent viloyati, Qashqadaryo viloyati) mavjud. Bundan tashqari yakshanba kunlari dars olib boriladigan tatar tili sinflari ishlab turibdi. Respublika oliy o'quv yurtlarida 2006-yil ma'lumotlariga ko'ra 1337 tatar talaba ta'lim oladi va ular umumiy talabalarning sonining 1,07 foizini tashkil etadi⁹⁰. Tatarlarning respublika milliy-madaniy markazi hamda barcha viloyatlarda shunday markazlari mavjud.

Qrim-tatarlarning O'zbekistonda deportatsiya qilinishi va ularning mamlakatimizdagi 60 yillik tarixi mavjud. Qrim-tatarlar 1956-yildan boshlab o'z tarixiy vatanlariga qaytish uchun harakatlar boshlangan bo'lsa-da, 1989-tildagina amaliy natijalarni qo'lga kiritdilar. O'sha yili SSSR Oliy Soveti maxsus qaror qabul qilib, Qirim tatarlarning deportatsiyasini jinoyat deb topdi va ularning vatanlariga qaytish huquqi mavjud ekanligini e'tirof etdi. Ana shunday keyin Qirim tatarlarning Qrim Respublikasiga (2014-yilgacha Ukrain tarkibida)

⁸⁸ Татары Узбекистана – [http://tatarica/yuldash.com/society/article486%5c;Rim Гиниятуллин](http://tatarica/yuldash.com/society/article486%5c;Rim_Giniyatullin) – старишина татарУзбекистана – <http://gazeta.Islam.ru/modules/php?name=article&sid=240>(Juni, 2007).

⁸⁹ Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане – <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007).

⁹⁰ O'sha manba.

ommaviy qaytish boshlandi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zosi bo'lgan davlatlarning 1992-yil 6-oktabrda qabul qilgan Bishkek deklaratsiyasiga asosan Markaziy Osiyodagi qirim-tatarlar yashaydigan davlatlar (O'zbekiston va Tojikiston) va Ukraina hukumatlari bu xalqning o'z tarixiy vataniga qaytishiga imkoniyatlari darajasida yordam ko'rsatdilar.

Hozirgacha O'zbekistondan 170-180 ming Qrimga ko'chib ketdi va hozirgi vaqtda bu mamlakatda 75-80 ming nafar qirim tatarlar yashamoqda va ularga O'zbekistondan ko'chib ketishi muqarrar bo'lgan aholi sifatida qaraladi (chunki, ularning 73foizi Qrimga ko'chib ketishni rejalashtirmoqda)⁹¹.

Qrim tatarlarning milliy-madaniy ehtiyojlarini qarshilash uchun 1957-yildan e'tiboran "Lenin bayrog'i" va "Yildiz" jurnali nashr etib kelinar edi. 1990-yillar boshida bu gazeta va jurnal qirim-tatarlarning ommaviy ravishda Qrimga ko'chib ketishi munosabati bilan o'z faoliyatini to'xtatdi. Respublika maktablaridagi darslar qrim-tatarcha olib boriladigan sinflar ham u sabab yopildi. O'zbekistonda qrim-tatarlarning respublika milliy-madaniy markazi hamda ular g'uj bo'lib yashaydigan viloyat va shaharlarda madaniyat markazlari mavjud.

Xullas, O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy ozchiliklarning milliy, madaniy, ta'lim, matbuot-matabaa bobidagi ehtiyojlarini qondirilishiga birinchi darajali e'tibor berildi, chunki yurtimizdagi milliy ozchiliklar tubjoy aholi qatori Vatanimizning fuqarolaridir va ularga barcha shart-sharoitlarni tayyorlash jamiyat va davlatning burchidir. Ana shunday don ova insonparvar yondashuvlar tufayli mamlakatimizda barcha millat va elatlarning vakillari tinch-totuv yashab, Vatanimiz ravnaqi uchun mehnat qilmoqdalar⁹².

Yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni millatparvarlik, boshqa millat va elat vakillariga hurmat, e'tibor tamoyillari asosida tuzilgan bo'lib, xalqlararo hamdo'stlik hamda osoyishtalikka, mazkur qonunning hayotiyligiga, bardavomligiga xizmat qiladi.

⁹¹ Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане – <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007).

⁹² Eltazarov J. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan til siyosati xususida (1999-2000-yillar) // Путь к маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Андижон, 2016. – Б. 35-40.

BOBGA DOIR XULOSALAR

1. Sobiq sovet tuzumi davrida konstitutsiyaviy jihatdan mustaqil hisoblangan, ammo aslida mustamlaka bo'lgan Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi, o'zbek xalqining ham milliy tili kamsitilgan. Uzoq yillar mobaynida milliy tillarning rivoji haqida hech qanday qonun yoki qaror qabul qilinmaganligi buning yorqin dalilidir.

2. Davlat tili – ma'lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida faolqo'llanuvchi, shu davlatning ramziy belgilaridan biri hisoblanuvchi tildir. Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

3. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o'zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining, uning iste'mol qilinish doirasini kengaytirishning, o'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilashning muhim kafolati bo'ldi.

4. Ayni vaqtda, o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi respublika hududida yashovchi boshqa millatlar tillarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda foydalanishiga monelik qilmaydi. Bu davlatimiz til siyosatining ijobiy qirralaridan biridir.

5. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o'zligini anglash jarayonlariga bo'lgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib keldi. Shu o'rinda 1989-yili Respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilganligi va buni uzluksiz rivojlantirib, takomillashtirib borilayotgani muhim siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga egadir.

XULOSA

1. Tilni sotsiolingvistik nuqtayi nazardan o'rganish o'ta muhim. Negaki uning yaratuvchisi ham, isloh etuvchi va takomillashtiruvchisi ham, undan aloqa quroli sifatida foydalanib, olamda mavjudligini ta'minlovchisi ham insoniyat va jamiyatdir. Shunday ekan uni o'z yaratuvchilari va foydalanuvchilaridan ayro holda o'rganish mutlaqo imkonsiz.

2. Dunyo tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar va til siyosati masalalar keng ko'lamda, atroflicha o'rganilgan. Bunga izlanishlar chog'ida uchragan son-sanoqsiz manbalar va materiallarga guvoh bo'lgach yana bir karra amin bo'lindi.

3. O'zbek tilshunosligida esa sotsiolingvistik tadqiqotlar salmog'i ancha kam. Til siyosati, tilni planlashtirish yoki mamlakatdagi mavjud lisoniy vaziyat deyarli tadqiq etilmagan. Yoki katta-kichik maqolalar, ayrim konferensiyalar materiallari orasida ko'zga tashlanadigan tezislarni hisobga olmaganda, yaxlit planda yaqin yillar oralig'ida o'rganilmagan.

4. O'zbekiston aholisi orasida tilga bog'liq siyosat va unga munosabat ancha mo'tadil. Ya'ni mamlakatda yuritilayotgan til siyosatiga noroziliklar va keskin qarshiliklar ko'zga tashlanmaydi. Aholining davlat tilida so'zlashuvchi katta qismidan tashqari, o'zga tilli fuqarolar ham davlat tilidan hamin qadar xabardor. Ayrim joylarda esa ularning tillari o'zaro muloqot vositasi sifatidagi o'rnini ham o'zbek tiliga bo'shatib beryapti.

5. IX asrdan Turonda jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi. Qoraxoniylar davrida umumelat tili qaror topdi, turkiy tilning adabiy til sifatidagi mavqeyi ancha oshdi. Chingizxon boshchiligidagi mog'ullar istilosidan so'ng Turonga kelib o'rinishgan mo'g'ul zodagonlari turkiy tildan saroy tili hamda jonli so'zlashuv tili sifatida foydalana boshladilar. Chingiziy hukmdorlarning hujjatlari ommaga turkiy tilda yetkazildi. Hali ish yuritish tizimi shakllanmagan mo'g'ullar devonxona tashkil etishni turonliklardan o'rgandilar.

6. O'zbek tilining ayniqsa Temuriylar davrida taraqqiy etgan bo'lib, uning nufuzini oshirishga har tomonlama: ham siyosiy, ham badiiy, ham madaniy jihatdan

harakat qilingan. Bu borada Hazrat mir Alisher Navoiyning xizmatlari esa beqiyosdir.

7. O‘zbek tilining boy va maftunkor ekanligi va uzoq o‘tmishga egaligi leksikografik manbalarda ham o‘z aksini topgan. Mahmud Qoshg‘ariyning o‘ziga xos lug‘atidan boshlab davom etib kelgan lug‘at tuzish an‘anasi, hamda yaratilgan lug‘atlar o‘zbek tili rivojiga munosib hissa qo‘shib kelgan va bugungi kunda ham eng noyob manbalar sanaladi.

8. Jadidchilik harakati va jadid mutafakkirlari faoliyatlari davomida boshqa sohalar qatori til masalasiga ham befarq bo‘lishmagan. Ular adabiy til qoidalarini ishlab chiqishga, uni keng ommaga joriy etishga, shu bilan birga ona tilimizdan tashqari arab, fors, rus tillarini ham o‘rganishni keng targ‘ib qilishgan. Til bilishning ahamiyati va afzalliklarini har tomonlama asoslab berishgan.

9. Sobiq sovet tuzumi davrida konstitutsiyaviy jihatdan mustaqil hisoblangan, ammo aslida mustamlaka bo‘lgan Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi, o‘zbek xalqining ham milliy tili kamsitilgan. Uzoq yillar mobaynida milliy tillarning rivoji haqida hech qanday qonun yoki qaror qabul qilinmaganligi buning yorqin dalilidir.

10. Davlat tili – ma’lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida faol qo‘llanuvchi, shu davlatning ramziy belgilaridan biri hisoblanuvchi tildir. Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

11. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o‘zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining, uning iste’mol qilinish doirasini kengaytirishning, o‘zbek tilini o‘qitish sifatini yaxshilashning muhim kafolati bo‘ldi.

12. Ayni vaqtda, o‘zbek tiliga davlat maqomi berilishi respublika hududida yashovchi boshqa millatlar tillarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda foydalanishiga monelik qilmaydi. Bu davlatimiz til siyosatining ijobiy qirralaridan biridir.

13. O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ko‘p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o‘zligini anglash jarayonlariga bo‘lgan intilishlarini qonuniy-

huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib keldi. Shu o'rinda 1989-yili Respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilganligi va buni uzluksiz rivojlantirib, takomillashtirib borilayotgani muhim siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/uz/docs/4561730?query=0%27zbek%20tili%20davlat%20tili>

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

1. Атаниязова М. Олим Шарафиддинов – Навоий ижодиниг тадқиқотчиси. – Тошкент: Bookmany print, 2022. – Б. 33-34.
2. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 92.
3. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. -М., 2001. -С. 7.
4. Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. Том II. - М.: Изд-во Академии Наук СССР, 1963. - С. 15.
5. Буюк истеъдод соҳиблари / Тузувчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи М.М. Хайруллаев. – Тошкент: Адолат, 2002.
6. Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 51.
7. Eltazarov J. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan til siyosati xususida (1999-2000-yillar) // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Андижон, 2016. – Б. 35-40.

8. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 226.
9. Еникеев Р. Тил ҳақидаги қонунлар тарихига оид // *Til va adabiyot ta'limi*, 1997. – № 2. – В. 88-90.
10. Figueroa, E. 1994. *Sociolinguistic Metatheory*. Oxford: Pergamon.
11. Huang Xing. Minority language planning of China in relation to use and development. Conference on language development, language revitalization and multilingual education in minority communities in Asia, Bangkok, Thailand, SIL International, Mahidol University, UNESCO, 6-8 November 2003.
12. Kamoliddin Shamsiddin Sirojiddin o'g'li. *Markaziy osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar. (qo'lyozma huquqida)* - Toshkent, 2019. - В. 97.
13. Каримов Б., Мираъзамов К. *Миллат равнақи ва тил муаммолари*. - Тошкент: ФАН, 1993. – Б. 21.
14. Каримов Б.Р. *Миллат, инсон ва тил: тараққиёт муаммолари*. - Қарши: Насаф, 2003. – Б. 131.
15. Labov W. Phonological correlates of social stratification. *AA*, 66 (6), part 2, 1964. -P. 170.
16. Labov, W. 1997. Linguistics and sociolinguistics. In *Sociolinguistics: A Reader and Coursebook*, Coupland & A. Jaworski (eds.), 23–24. London: MacMillan.
17. Махмудов Н. Давлат тили ва умуминсоний қадриятлар // *Til va adabiyot ta'limi*, 1999. – № 5-6. – В. 20-30.
18. Махмудов Н. *Тил*. - Тошкент: Ёзувчи, 1998. - Б. 24.
19. Makkarti T. *Ethnography of language*. Nyu-York: Routledge, 2011. – P. 8.
20. Миртожиев М., Махмудов Н. *Тил ва маданият*. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. -Б. 27.
21. Muxitdinova x.s. *О'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023

- 22.Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Тошкент: Университет, 1999. – Б.15-16.
- 23.Safarova G., Zaripov R. Jahon mamlakatlarida til siyosati va til boshqaruvi. O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari.konf.to‘plami. 2022. – B.31-34.
- 24.Saidov Y. O‘zbek adabiy tili tarixi / O‘quv qo‘llanma. – Buxoro.; “Durdona”, 2019. – B. 143-161.
- 25.Sanaqulov.U. O‘zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari. T.; “G‘afur G‘ulom”, 2004. - B. 238.
- 26.Содиқов Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. –Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. –Б. 39.
- 27.Tollefson J. Planning language, planning inequality: language policy in the community. – London: Longman,1989. – P. 16.
- 28.Viv Edwards. Language policy in multicultural Britain. – London:Academic Press.1984. – B. 49-80.
- 29.Хоназаров Қ. Тил ва дил. -Тошкент: Ўзбекистон, 1991. - Б. 68.
30. Хоназаров Қ. Мустақиллик ва ёшларни байналмилал руҳда тарбиялаш. Тошкент: Қатортол-Камолот, 1998.
- 31.Хоназаров Қ. Мустақиллик ва миллий муносабатларнинг ривожланиши. - Тошкент, 2001. – Б. 44.
- 32.Ғафуров Ғ. Шарқ жавоҳирлари. Бадиалар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 11.
- 33.Шермухамедов С. Ижтимоий тараққиётда миллатлараро алоқа маданиятининг аҳамияти. – Тошкент: Маънавият, 1998. - Б. 32.

III. Matbuot materiallari va ilmiy maqolalar

1. Abdirashidov, Z. Sh. 2020. “Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslikka oid tadqiqotlariga doir”. O‘zbekiston: til va madaniyat 2: 24–37.
2. Абдуллаев Ф.Тил қандай ривожланади? – Тошкент: Фан, 1972.

3. Брайт У. Введение: параметры социолингвистики // Новое в лингвистике. Вып. VII. - М., 1975. - С. 34-41.
4. Элбек. Эскичилар. // Қизил байроқ. 1921. 12 февр.; Бобомуродова Ш. Э. Элбекнинг тилшунослик мероси [Матн]: монография. – Тошкент : Nodirabegim nashriyoti, 2020. - 108 б.
5. Fierman, William, 1991, Language Planning and National Development: The Uzbek Experience, Berlin /New York: Mouton de Gruyter & Co.
6. Ислам и толерантность. Пример Узбекистана - http://www.Fromuz.Com/news/islam_i_tolerantnost_primer_uzb (December, 2006).
7. Жўраев З.М. Ўзбекистон давлатчилиги ўрта асрлар тарихига оид муҳим манбаларидан бири Фазлуллоҳ ибн Рўзбеҳоннинг “Сулук-ул-мулк” асари ва қиёсий таҳлил учун Мовардийнинг “Аҳком” асари // ЎЗМУ хабарлари. 2011. 4/1-сон. 152-б.
8. Каримов У. Маданий миллат билан бир қаторда. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газ. 1992 йил 29 май, 22- сон, 5-бет.
9. Медведев Р. Русский Язык на просторах СНГ – <http://magazines/russ/ru//druzhba/2006/10/mel.html> (December, 2007).
10. Муаллифлар жамоаси. Тилимиз тилсимининг жозибаси./Халқсўзи, 1993 йил 28 июль., 4-бет.
11. Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане – <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007).
12. Panayota Gounari. Language Policy in the United States: Uncommon Language and the Discourse of Common Sense.
13. Қораев С. Ёзувимиз такомилга муҳтож./Ўзбекистон адабиёти ва санъати газ. 1991 йил 23 август, 34-сон, 5- бет.
14. Қурбанниязов М. Олтин Ўрда адабий муҳити ва Рабғузий ижоди // ЎЗМУ хабарлари. 2015. 3/1-сон. – Б. 182.
15. Қўчқортоев И. Ўзбек миллий алифбоси (давра суҳбати) /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 13 август, 2-бет.

16. Ricento T. Historical and theoretical perspectives in language policy and planning. *Journal of Sociolinguistics*, 4(2), 196–213.
17. Татары Узбекистана – [http://tatarica/yuldash/com/society/article486%5c;Rim Гиниятуллин – старишина татар Узбекистана](http://tatarica/yuldash/com/society/article486%5c;Rim%20Giniyatullin%20-%20starišina%20tatar%20uzbekistana) – <http://gazeta.islamn.ru/modules/php?name=article&sid=240>(Juniy, 2007).
18. Хоназаров Қ., Мансурова Г. Алифбо хусусида./Халқ сўзи, 1993 йил 9 октябрь, 3-бет.
19. Юсупов Э. Ўзбек миллий алифбоси (давра суҳбати). /Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1993 йил, 13 август, 2-бет.
20. Зинатуллаев З. Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асари, унинг яратилиши ва манбалари // ЎЗМУ хабарлари. 2014. 3-сон. – Б. 82.
21. Шоисломов Ш. Проблемы в Центри Азим раздуваются искусственно – <http://www.Avesta/tj/articles/2/83115/html> (30.08.2007).

IV. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari

1. Мамашукуров Ж.А. Ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланишининг ижтимоий-сиёсий ва маънавий асослари: Филс. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 22.
2. Рахимов Ғ. Инглиз тилининг Ўзбекистонда тарқалиши (социолингвистик ва прагматик жиҳатлар): Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. - Тошкент, 2017.
3. Zaripov R. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: f.f.f.d.(PhD) ...diss. Avtoref. – Andijon, 2021. – B. 12-13.

V. Elektron resurslar

1. <https://constitution.uz/oz>
2. <https://www.docu.vlaamserand.be/node>
3. infografikauz.blogspot.com.
4. www.lex.uz
5. library.ziyonet.uz
6. milliycha.uz
7. www.polilingua.com
8. <https://www.usconstitution.net/>
9. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Language_policy_in_France
10. https://en.wikipedia.org/wiki/Languages_of_Turkey#Statistics
11. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>